# GENIUS

## CLUB BOOK



**JAHONDA BIRINCHI RAQAMLI ENG TEZKOR**

**"META-TA`LIM"**

**TEXNIKALARI:**

- TA`LIM JARAYONINGIZNI 30-100 BAROBAR TEZLASHTIRISH;
- 1 OY/1TA FAN HAMDA 1TA TIL;
- 1 YIL/4-YILLIK OLIY TA`LIM DASTURI;
- 6 OY/3-4TA SINF DASTURINI YAKUNLASH;
- HAR QANDAY UNIVERSITETGA 6 OY ICHIDA 100% TAYYORGARLIK KO`RISH IMKONIYATI.

ENDI TA`LIM YO`NALISHIDA MUAMMO YO`Q!
USHBU TEXNIKALAR YORDAMIDA HAR QANDAY SOHANI SIZ
HAMISHA HAMMADAN 30-100 BAROBAR TEZROQ O`RGANASIZ

# Kirish

Zamon taraqqiylashgani sayin insonlar yangiliklarni qabul qilishga ulgurmay ham qolishmoqda. Har kuni kimdir qandaydir yangi ixtiro bilan oldinga chiqmoqda hamda ushbu ixtiro juda ham tez fursatda olamshumul yangilikka aylanib, qisqa muddat ichida xalq ichiga kirib bormoqda. Bu holat hali beri to`xtamasligini olimlar anchadan buyon bashorat qilishmoqda.

Shunday bir zamonda yashashning ham o`ziga yarasha Afzal hamda kamchilik taraflari bor. Misol uchun, hamma narsani ko`rishga, hayotdan to`liq foydalanib, lazzatlanib qolishga, undagi yangiliklar, undagi ochilmagan qirralarni birma-bir ochishga ulgurib qolish – global muammoga aylanmoqda. Chunki, vaqt yo`q. Vaqt – bu insoniyatga tekinga hadya etilgan ajoyib meros, desak ham bo`laveradi. Sababi, vaqt noyob narsa va uni sotib olishning hech ham ilojisi yo`q. Shunchaki, vaqtni samarali o`tkazish hamda tejab qolish mumkin, xolos. Tasavvur qiling, umringizni uzoq bir qismini tejashni imkoniyati bo`lsa, siz tejagan bo`larmidingiz? Albatta, buni kim ham xohlamaydi, deysiz. Va qo`lingizda ayni shu imkoniyat turibdi, ya`ni sizning vaqtingizni ham, umringizni ham tejovchi ajoyib dastur sizning xizmatingizga sha`y holatda turibdi.

Bir necha yil oldin inson zoti tug`ilishidan to o`lgunigacha bo`lgan muddatdagi qancha vaqtini o`qib-o`rganishga sarflashini hisob-kitob qilib ko`rgim keldi. Sababi, o`qib-o`rganish – bu tiriklikning yana bir asosiy manbalaridan biri desak ham xato bo`lmaydi. Qolaversa, bog`chadan boshlab, maktabda, lisey-kollejda, universitetda, ishda, ishdan tashqari, magistraturada, aspiranturada, har qayerda asosiy rol o`qib-o`rganishga borib taqaladi. Agar yaxshilab o`ylab ko`rsak, umrimizning deyarli yarmidan ko`p qismi o`qish bilan o`tib ketar ekan. Bu degani, biz nimadir yaratgunimizgacha bo`lgan muddat faqat boshqalar yaratgan narsalarni o`rganishga ketar ekan.

Biroq, yaxshilab fikrlab ko`radigan bo`lsak, agar o`qib-o`rganish jarayonini hech bo`lmaganda ikki karra qisqartiradigan bo`lsak, juda ham yuqori natijaga chiqishimiz mumkin ekan. Agar 60 yilimiz o`qish bilan o`tsa, biz 30 yilga yutib qolamiz. Agar 3 karra qisqartirsak, 40 yilga

META CITY

Meta so`zi lotin tilidan olinganda, o`zbek tiliga tarjima qilinganda "yordamchi" degan ma`noni anglatadi.

Ushbu so`zning ma`nosidan tushunarli bo`lsa kerak, meta-ta`lim ta`limning ayni qaysidir turi bilan shug`ullanmaydi, ya`ni ushbu ta`lim turi shunchaki ta`lim jarayonini tezlashtirishga asoslangan.

Hozirda meta-ta`lim texnologiyalari dunyodagi barcha ta`lim texnologiyalari ichida 1 o`rinni egallaydi. Meta-ta`lim hozirda Yevropaning eng rivojlangan davlatlarida (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya va h.k.) hamda AQShda keng rivojlangan va rivojlanib bormoqda. Osiyo davlatlari esa bu sohada oqsab qolmoqda, faqatgina Janubiy Koreya, Xitoyning ayrim regionlari hamda Yaponiya davlatlariga ushbu yo`nalish endi-endi kirib kelmoqda. O`rta Osiyoga hali meta-ta`lim kirib kelmadi. Bu degani O`zbekistonda meta-ta`lim ilk bor Toshkent shahrida o`z qanotlarini yozishni boshladi.

***Meta-ta`limning asosiy maqsadlari:***

1) Ta`lim tizimini eskilik sarqitidan zamonaviy holatga olib chiqish;
2) Ta`lim samaradorligini oshirish;
**3) Ta`lim jarayonini tezlashtirish.**

Hozirda meta-texnologiyalari barcha fanlar, qolaversa barcha sohalar uchun ishlab chiqilgan.

Endi eng qizig`i, meta-texnologiyalari yordamida siz ta`lim jarayoningizni 30 baravariga oshirishingiz mumkin. Misol, siz repetitor yo biron o`quv markazida ingliz tilini taxminan 1 yil ichida o`rganasiz. Ushbu texnologiyalar yordamida, siz atiga 2 oy ichida o`rganib olishingiz mumkin, qolaversa natijangiz 1 yillik ta`limingizdan yuqori bo`ladi. Matematikani 3 hafta ichida o`rganish mumkin va h.k. Qolganlari hozircha sir!!!

***Meta-ta`limning bo`limlari:***

1) Tillar uchun maxsus texnologiyalar;
2) Mnemonika (superxotira)ga ega bo`lish sirlari;

3) Tez va sifatli o`qish san`ati (1 daqiqada – 2500 – 3200 ta so`zgacha olib borish mumkin);
4) Ma`lumot bilan ishlash, tushunish va uni esda qoldirish texnologiyalari;
5) 1 oyda 1ta fan o`rganish texnikalari.

Meta-ta`limni tasavvuran tushunishingiz uchun, sizga bir metafora keltirib o`taman.

Tasavvur qiling, marafon barcha yuguryapti. Kimdir tez, kimdir ma`lum bir sabablarga ko`ra sekin. Marra aniq, hamma bor kuchi bilan marra sari intilyapti. Siz bo`lsa mashinada ketyapsiz. Xo`sh, nima deb o`ylaysiz, kim birinchi bo`lib yetib boradi. Albatta siz. Chunki sizda texnika bor. Maxsus algoritm hamda texnologiyalar bilan va texnikasiz standart ravishda o`rganishning o`rtasidagi farq shunda. Texnologiyalar yordamida siz 95% ustunlikka ega bo`lasiz.

## Axborotni qabul qilishda samaradorlikni oshirish

Samaradorlik masalasi hamisha bizni qiziqtirgan, shu bois bu masalaga atroflicha e`tibor qaratishingizni maslahat beraman. Ma`lum bir vaqt ichida misol siz 20% axborotga ega bo`lsangiz, biz o`sha vaqtda 80% axborotga ega bo`lishimiz mumkin, mana shuni samaradorlikni oshirish deyishadi.

Ammo bu galgi samaradorlikka oid ma`lumotlar yuk tashuvchilar, haydovchilar kabi kasb vakillari uchun emas. Ishi o`qish va axborot bilan ishlash bilan bog`liq bo`lgan insonlar uchun. O`quvchilar, ayniqsa bu sizga kerakli mavzu.

Maktablarda darslar 45 daqiqa davom etadi. Hech birimizga sir emaski, bu samaradorlikni hech ham oshirmaydi. Chunki so`nggi 15 daqiqa ichida miya hech qanday axborot qabul qilmaydi. Har yarim soatda miya samaradorligi pasayadi va u umuman axborot qabul qilmay qo`yadi.

Birinchi o`n daqiqa ichida esa miya xuddi shunday past samaradorlik bilan ishlaydi. Shu bois, malakali o`qituvchilar bu o`n daqiqa davomida bolalar bilan biroz suhbatlashishi, uyga vazifani tekshirishi kerak. Ana

undan keyin yangi ma`lumotlarni qabul qilishga bolakayning miyasi tayyor bo`ladi.

Endi ta`lim jarayonida qanday qilib samaradorlikni oshirish mumkin? Bu masala juda oddiy. Har yarim soatda 5 daqiqa tanaffus qilasiz. So`ng yana yarim soat o`qiysiz, 5 daqiqa dam olasiz. Iloji bo`lsa 30 daqiqaga budilnik qo`yib qo`ying.

Endi mana shu tanaffuslar vaqtida nima qilish keragi, nima qilmaslik kerakligi haqida gaplashamiz.

Bilamiz-ki, ko`pchiligimizning axborot bilan ishlash jarayonimiz asosan kompyuter oldida bo`ladi. Bu vaqtda qon aylanishi sekinlashadi. Shu bois, qo`l gimnastikasi yoki ko`z gimnastikasi bilan shug`ullanish maqsadga muvofiqdir.

Qo`l gimnastikasi e`tiborni chalg`itadi, miyani dam oldiradi va samaradorlikni oshiradi. Ko`z gimnastikasi esa ko`z nurini asrab qolishga zamin yaratadi.

Qo`l gimnastikasiga quyidagi mashqlar kiradi: Bosh barmoqni ishqalaymiz, ikkala qo`lnikini ham. Va shu yo`sunda barcha barmoqlarni ishqalab chiqamiz. Xalqimizda boshing og`risa bosh barmoqni ishqala degan gap bor. Chunki aytishlaricha miyaga yetib boruvchi tomirlar bosh barmoqdan boshlanarkan.

So`ng bosh barmoqni zo`r qilib ko`rsatamiz – chap qo`lda, o`ng qo`l bilan esa to`pponcha qilamiz (ko`rsatkich barmoq yordamida). So`ng tezda almashtiramiz, chap qo`l to`pponcha, o`ng qo`l zo`rni ko`rsatadi. Shu mashqni tez qilishni o`rganish kerak.

Kaftlarni ishqalaymiz, ishqalaymiz, tez ishqalaymiz. So`ng yaxshilab qarsak chalib yuboramiz.

Ko`rsatkich va o`rta barmoqlar bilan to`pponcha yasang – bir qo`lingizda, ikkinchi qo`lingizda unga qarshi to`pponchani ya`ni nomsiz barmoq bilan, kichkina barmoqni qarating. So`ng tezda almashtirishni o`rganing. Bittadayoq bu o`xshamaydi, ammo yaxshigina samara beradi.

Ko`z gimnastikasi: ko`z qorachig`ini tepaga, pastga harakatlantiramiz, bu holatda bosh qimirlamasligi kerak, qosh ham. Qorachig` bilan doira yasaymiz, avval o`ng tomonga, so`ng chap tomonga. Bosh va qoshni qimirlatmagan holatda ko`z qorachig`i bilan u yon bu yonga qaraymiz.

Endi biroz quloqlarni ham massaj qilamiz. Faqat oxista massaj qiling, tag`in filnikidek uzun bo`lib ketmasin.

Ana endi mehatga tayyorsiz, o`qishda davom eting. Tekin maslahat uchun hech yo`q minnatdorchilik xatini yuborishingizni kutib qolamiz.

## Repetitor va o`qituvchilarni qanday tanlash kerak?

Bu masala hammani qiynaydi. Qo`shimcha ko`nikmalar haqida ma`lumotlar hadya etmadim, chunki ular o`z bo`limlarida to`liq tushuntirib beriladi.

Yuqoridagi masalaga qaytsak. O`qituvchi va repetitorlar hayotimizda asosiy rollardan birini o`ynashadi. Ammo hamisha ham o`qituvchilarni to`g`ri tanlay olamizmi?

Barcha repetitorlar ham sifatli ta`lim bera olishadimi? Sifatsiz repetitorga borish – nafaqat cho`ntakka ziyon, balkim eng qimmatli narsangiz – vaqtingiz havoga uchib ketishi alam qilarli hodisa.

Shunday qilib, siz, aziz do`stlarimga, kamina repetitorlarni qanday tanlash haqida misollar bilan tushuntirib beraman.

Shaxsan o`zim matematikman. Ammo hech bir repetitorimni maqtay olmayman, chunki ular hozirda men qo`yadigan hech bir kriteriyalarga javob bera olishmagan. Kamdan-kam o`qituvchilar quyida sizga hadya etadigan uch kriteriyamga javob bera olishadi.

Sizga maslahat, agar repetitor tanlayotganingizda, o`qituvchi kriteriyalarning bariga javob bera olsa, unda uning qo`lida o`qing. Agar birortasiga ham yoki uchovsidan bittasiga javob berolmay qolsa, yaxshisi unda o`qimaganingiz ma`qul.

1) Avvalo o`qituvchi natijalarga erishgan bo`lishi kerak. Yaxshilab surishtiring, qancha o`quvchisi Universitetga kirgan, qanchasi kirolmagan. Agar uning o`zi o`qitgan o`quvchilardan surishtirsangiz, nur ustiga a`lo nur bo`lgan bo`lardi. Agar natijalari ajoyib bo`lsa, unda yaxshi o`qituvchi ekan;

2) O`qituvchi talabchan bo`lishi shart. Hozirda hech bir o`qituvchida aynan shu hislatni ko`rib bo`lmayapti. O`qituvchilar ikki xil bo`ladi. Birinchisi – natijaga qaragan bo`ladi, ikkinchisi – pulga qaragan bo`ladi. Natija va pul. Ba`zilari uchun faqat natija muhim, natija ko`rsatmaguncha tinchimaydi, boshqalari uchun esa faqat pul muhim. Endi ularni qanday ajratib olish mumkin. Natijaga asoslanadiganlari juda qimmat bo`ladi va to`lovni boshidan oladi. Misol uchun bizning Trening klubimiz ham shu qoidaga asoslanadi. Biz uchun muhimi natija. Agar o`quvchilarimiz natija ko`rsata olishmasa, ularga pullarini qaytarib beramiz. Pulni boshidan olishning sababi, pulini bergach, ayniqsa katta pul bergach ota-ona ham, bola ham o`qishga qattiq kirishishadi, bu qandaydir motivatsiya hadya etadi. Qolaversa, biz motivatsiya darajasini ko`rish uchun o`quvchilarni imtihon bilan olamiz. Agar imtihondan o`tishsa, qo`limizda o`qishadi. Agar o`tisholmasa, xayrlashamiz. Bundan tashqari, eng muhim qoida, toki birinchi darsni qilib kelmagunicha ikkinchi darsga qo`yilmaydi. Mana shu talabchanlik. Agar bolangiz dars qilib bormasa ham o`qituvchisi ikkinchi darsni o`tdimi, demak bu o`qituvchi to`g`ri ma`noda ahmoq ekan!!!!! Boshqa gapim yo`q. Mana shu talabchanlik bo`lishi shart;

3) O`qituvchida texnologiya bo`lishi shart. Har qanday zo`r o`qituvchi qancha vaqt ichida qanday natijaga erisha olishingizni shundoq aytib bera oladi. O`qituvchi o`ziga ishongan bo`lishi kerak. Texnologiyasi bor o`qituvchi bilan texnologiyasi yo`q o`qituvchining farqini aytib beraymi? Tasavvur qiling, marafon, siz va men yuguryapmiz. Men mashinadaman, siz esa oyoqlaringiz blan yuguryapsiz. Qay birimiz tezroq boramiz? Menimcha kamina tezroq yetib boradi, shunday emasmi??? Menimcha, tushundingiz.

## Motivasiya

Motivatsiyani ilmiy tomondan, maxsus formulalar orqali ko`rib chiqamiz. Motivatsiya – bu benzin. Siz mashinasiz, motivatsiya esa benzin. Agar benzin bo`lmasa, siz harakatlanmaysiz, umuman harakatlanmaysiz.

Motivatsiya qachon paydo bo`ladi? Ayniqsa, nimanidir sotib olish borasida. Quyidagicha formula bor: V > P

V – bu Tovar, P – bu narx. Agar siz sotib olayotgan tovar narxidan ko`ra siz uchun qimmatliroq bo`lsa, siz uni sotib olasiz. Buni alternative tanlov deyishadi. Oddiyroq qilib tushuntiraman. Siz tasavvur qiling mashina sotib olmoqchisiz. Mashina 40 million turadi. Deylik, sizda shuncha pul bor. Pul sizda yetarli. Endi hisob-kitob qilasiz. Agar mashina sotib olsangiz, taksiga bo`lgan harajatlar qisqaradi, ammo benzin, ta`mirlash va h.k. singari chiqimlar paydo bo`ladi. Endi nima qilish kerak, sotib olaymi yo yo`qmi?

Navbatdagi masala shuni ko`ndalang holatda ko`rib chiqish. Agar mashina sotib olsak, emotsiyalar to`lqini ostida qolasiz. Hamma siz maqtaydi, hamma siz haqingizda gapiradi va shunga o`xshash itning akkillashiga o`xshagan narsalar yuz beradi.

Xullas, qaraysiz, narx arzimagan, ammo tovar qimmatli bo`lsa, siz uni sotib olasiz.

Universitetlar bilan ham xuddi shu ahvol. Repetitorga boryapsiz. Borishdan oldin o`ylaysiz, katta pul tikyapman, ammo Universitetga kirib, o`qib, kattaroq lavozimda ishlasam, pullarimni chiqarib olaman, yaxshi, shunday homxayollar ta`sirida yashayverasiz.

Endi dars jarayonida motivatsiyadan qanday foydalanish to`g`risida so`zlab beraman. Motivatsiya o`z navbatida ikki turga bo`linadi: Jarayon va Natija.

Agar sizga Jarayon muhim bo`lsa, sizda doimo motivatsiya bo`ladi. Agar natija muhim bo`lsa, bu masala sal qiyinroq.

Yosh bolalar asosan jarayonga e`tibor qaratishadi. Agar dars jarayoni qiziqarli va maroqli bo`lsa, ular darsga qatnashishadi. Agar qiziq bo`lmasa, ularni urib bo`lsa ham o`qitolmaysiz.

Kattalar esa Natijaga asoslanishadi. Ularni jarayon bilan ishlari yo`q, muhimi natija, bo`ldi boshqa hech narsa kerak emas.

Bu yerda biroz ayyorlik ishlatishga to`g`ri keladi. Bolani motivatsiyasini qanday ko`tarish kerak? Avvalo unga birinchi darsdan qiyin vazifalar bermaslik kerak.

Yengil-yengil vazifalar bilan, asta-sekin qiyinlashtirib borish kerak. Nega? Javob juda oddiy. Tasavvur qiling, ikkimiz yana marafondamiz. Siz tekis yo`ldan meniki bilan bir xil benzinda ketyapsiz, men esa g`adir-budur yo`ldan ketyapman. Kimning benzini birinchi bo`lib tugaydi, siznikimi yo menikimi? Albatta, meniki-da!

Menimcha mohiyat tushunarli shunday emasmi? Bolani motivatsiyasi ham xuddi shunday. Agar bolani tezroq darsdan sovutmoqchi bo`lsangiz, unga ko`proq va qiyinroq vazifalar bering.

Endi kattalar motivatsiyasini ko`rib chiqamiz. Bu sal mushkul masala. Avval aytganimdek, ular natijaga asoslanishadi. Natijani ko`rsatmasangiz, ular uzoq vaqt o`qishmaydi. Endi qanday qilib natija ko`rsatish kerak? Ikki yo uch darsdan keyin imtihon o`tkazing, agar u imtihondan yaxshi o`tsa, o`z-o`zidan natijasini ko`rib, motivatsiyasi oshadi. Kattalarda xuddi shunday o`xshayaptimi, olg`a ketishadi, bitta o`xshamay qoldimi, motivatsiya darajasi tushib ketadi.

## Meta-ta`lim sohasi orqali o`rnatilgan rekordlar hamda natijalar

1) 19 yoshli Moskvalik Sergey ismli bola 8 sinf vaqtida ushbu kurslardan o`tgan va barcha texnikalarni o`rganib chiqqan. So`ng o`sha yiliyoq butun boshli maktab dasturini 11chi sinfgacha o`rganib tugatib qo`ydi va maktabni tamomladi. So`ng har yili bittadan Oliy ta`lim muassasasini yakunladi. Hozirda 19 yoshda, 4ta Oliy ma`lumoti bor hamda "Microsoft" kompaniyasida ishlaydi;
2) 23 yoshli Viktoriyas ismli qiz 2 yil oldin ushbu sohaga qiziqib, barcha dasturlarni muvaffaqiyatli tugatgan. Hozirda 2ta oliy ma`lumoti bor, 5ta

tilni biladi, qolaversa, ushbu texnikalar yordamida u Yaponiya menejment kompaniyasining samaradorligini 40%ga ko`tarib bergan, hozirda ushbu kompaniyada rahbar o`rinbosari bo`lib ishlaydi;

3) Evgeniya Alekseyenko 1 daqiqada 416 250ta so`z o`qib, ginnes rekordlariga kirgan;
4) Benedikt O`brayen 1 soatda 320ta so`z yodlash texnikasini ixtiro qilgan va ushbu rekord bilan ginnes rekordlari kitobiga kirgan. Ushbu texnika haqida xotira bo`limida to`liq ma`lumotga ega bo`lasiz;
5) Yevropada bir yil ichida 10 milliondan ortiq inson ushbu dasturdan o`tgan va turli xil rekord natijalarni qayd etishgan;
6) Moskvalik Mariya ismli 3 hafta ichida Matemtikani o`rganib Moskva Davlat universitetiga imtihon topshirgan va ilk bor ushbu universitet tarixida matemtikadan 99 ball olgan. Hali bu kabi natijani hech kim ko`rsatmagan edi;
7) Bir guruh nogironlarga ushbu dasturni o`rgatishgan vaqtda, ulardagi faol fikrlash kuchayishi hisobiga, miya potensiali oshib ketgan va shu tufayli ular yurib ketishgan;
8) 5-6 yoshli bolalar 1000dan ortiq ma`lumotlarni qisqa muddat ichida eslab qolib, barchani hayratlantirishgan.

Siz ham shu kabi rekordlarni istaysizmi? Unda marhamat! Texnikalarni to`liq o`rganib chiqing. Ularni amalda qo`llang. Ularni ko`nikmaga aylantiring. So`ng istagancha rekord o`rnating. U yog`i sizga havola! Natijalaringiz haqida birga yozishni unutmang!

# Xotira

Birinchi bo`lib miyyani ishlash tempini oz-moz o`rganib chiqamiz. Miyyamiz ikki qismdan iborat.




Chap va o`ng. Chap qism asosan mantiqqa, o`ng qism emotsiyalarga javob beradi.

Chap qism matnli xotira hisoblanadi: turli xil so`zlar, matnlar, raqamlar, faktlar, analizlar va h.k.

O`ng qism emotsional xotira hisoblanadi: beshta his tuyg`u – ko`rish, eshitish, hid sezish, ta`m bilish va taktil xotira.

Chap qism 10% eslab qolish potensialiga ega. O`ng qism 90% ma`lumotni saqlab qolish potensialiga ega.

Chunki, bir o`ylab ko`ring, siz tasavvurlar orqali o`ylaysizmi yoki miyyangizda matnlar paydo bo`ladimi? Albatta tasavvurlar.

Tasavvur – 80% eslab qolish kuchiga ega. Qolgan his-tuyg`ular qolgan 10% bo`lishib oladi.

Nega yoshlikda bog`cha bolalarini xotirasi kuchli bo`ladi, deymiz? Chunki ular matnli xotiraga o`tishmagan, ular barcha axborot tasavvuran

eslab qolishadi. Miyyani o`rtasi, ya`ni bog`lab turuvchi torgina yo`lakcha Corpus callosum deb nomlanadi. Miyyani ikki qismini bog`lash eng qiyin ish. Agar ikki qismdan foydalanib eslab qolish ko`nikmasiga ega bo`lsak, biz istagan ma`lumotimizni 100% eslab qolishimiz mumkin. Biz hozir aynan o`sha uxlab chang bosib yotgan xotirani tiriltirishimiz kerak.

Boshida qiyin bo`ladi albatta. Lekin har qanday inson uddalay oladi. Insonning o`ng qismini tiriltirish va xotirasini kuchaytirish uchun maxsus fan mavjud – Mnemonika fani. Bu sohani ko`pchilik biladi chamamda. Televizorlarda ikkita yigitlar chiqib o`z xotirasining kuchlarini ko`rsatadi, bu narsa hech kimga sir emas.Biz xotiramizni tiriltirish uchun 1tagina mashqning o`zi yetarli.

Mnemonika tarixdan barchamizga ma`lum. O`z davrida Siseron mnemonika haqida ko`plab ishlarni yozib qoldirib ketgan. Qadimgi Yunonistonda Mnemonika Xudosi bo`lgan. U xotira mabudi bo`lgan va shu sabab bu fanni uning nomiga atashgan.

Endilikda sizga vazifa. Xotirangizni sinab ko`ramiz. Quyidagi 20ta so`zni yodlab, ketma-ket, bexato aytib ko`rishga harakat qiling.

1. **Banan;**
2. **Ruchka;**
3. **O`rmon;**
4. **Muzlatgich;**
5. **Gilam;**
6. **Oshpaz;**
7. **Osmon;**
8. **Yog`;**
9. **Mashina;**
10. **Stadion;**
11. **Bodring;**
12. **Ayiq;**
13. **Bulut;**
14. **Qulupnay;**
15. **Kompyuter;**
16. **Non;**
17. **Maktab;**
18. **Televizor;**

19. **Piyoz;**
20. **O`rdak.**

Ko`rib turibsiz, yodlab olish bilan bu ish juda qiyin. Ammo assosiasiyalar yordamida bularni yodlab olish juda oson. Shunchaki bitta so`zni keyingisiga ulab, hikoya tuzish kerak.

Miyamiz kichik-kichik neyronchalardan tashkil topgan. Ma`lumot miyyaga kelishi bilan neyronlar biri-biriga sinaps ya`ni bog`lovchilar orqali biri-biriga ma`lumotni uzatadi. Mnemonika aynan shunga asoslangan. Ya`ni birinchi axborotni ikkinchisi bilan bog`lash.



Hozir sizga qanday bog`laganimni ko`rsatib beraman. Banan ruchkada xat yozyapti, so`ng ruchka katta qilib ruchkani rasmini chizdi. O`rmon ichi muzlatgichlarga to`la. Muzlatgichni ochyapmiz ichi muzlab qolgan gilamlarga to`la. Gilamlarni qoqib tashlanganda, u yerdan juda ko`p oshpazlar yog`ilishni boshladi. Va birdan oshpazlar osmonga uchib chiqib ketib qoldi. So`ng osmonda ovqat pishirishgandi, yog`lar yerga tushib, mashinalarni bosib qola boshladi. So`ng mashinalar qayerga qochishini bilmay, stadionga yopirilib kirib keta boshlashdi. O`sha paytda stadionda bodringlar ayiqlarga qarshi futbol o`ynashayotgandi. Birdan ayiqlarning ostidan bulutlar paydo bo`lib osmonga uchirib keta boshlashdi. Ayiqlar u yerda qulupnay topib olib, qulupnay yeya boshlashdi. Qulupnaylar kompyuter o`ynab o`tirishgandi. Kompyuter ichida bo`lsa katta nonni rasmi

bor edi. Birdan o`sha nonlarni maktablarga tarqata boshlashdi. Maktablar televizorda ko`rsatila boshlandi. Televizorni ko`rganlar, televizorga piyozlar ota boshlashdi. Piyoz televizorga tegishi bilan ichidan o`rdaklar otilib chiqa boshlashdi.

Ma`lumotlarni ulashni o`rgandik. Endi mustaqil ravishda o`zingiz shug`ullanib ko`rishingiz lozim. Demak, yana amaliyot. Men sizga yana 20ta so`z beraman. Siz shoshilmasdan ularni ulab ko`rasiz.

1. **Telefon;**
2. **Qovun;**
3. **Uy;**
4. **Quyon;**
5. **Olma;**
6. **Mars sayyorasi;**
7. **Tog`;**
8. **Robot;**
9. **Ko`zoynak;**
10. **Uzum;**
11. **Oyna;**
12. **Kondisioner;**
13. **Bo`ri;**
14. **Yo`lbars;**
15. **Tuxum;**
16. **Yer;**
17. **Dala;**
18. **Poyezd;**
19. **Qalam;**
20. **Limon.**

Muhim qoidalar:

1. Obrazlaringizni iloji boricha jonlantiring va katta hajmlarda tasavvur qiling;
2. Obrazlar harakatga kelsin;
3. Assosiatsiyalar fantastik va kulguli bo`lsin.

38. Televizor;
39. Piyoz;
40. O`rdak.

**30ta so`z:**

1. O`rik;
2. Sandiq;
3. Kosmonavt;
4. Tog`;
5. Poyezd;
6. Sigir;
7. Kalamush;
8. Ko`zoynak;
9. Qulupnay;
10. Televizor;
11. Raqamlar;
12. Shaftoli;
13. Rasm;
14. Baraban;
15. Stul;
16. Mars;
17. Xurmo;
18. Bozor;
19. Gullar;
20. Matematika;
21. Qatiq;
22. Yilpig`ich;
23. Ko`ylak;
24. Yulduzlar;
25. Samolyot;
26. Director;
27. Kasalxona;
28. Piyola;
29. Limon;
30. Musiqa.

**40ta so`z:**

## Mustaqil bajarish uchun mashqlar

1. **Telefon;**
2. **Qovun;**
3. **Uy;**
4. **Quyon;**
5. **Olma;**
6. **Mars sayyorasi;**
7. **Tog`;**
8. **Robot;**
9. **Ko`zoynak;**
10. **Uzum;**
11. **Oyna;**
12. **Kondisioner;**
13. **Bo`ri;**
14. **Yo`lbars;**
15. **Tuxum;**
16. **Yer;**
17. **Dala;**
18. **Poyezd;**
19. **Qalam;**
20. **Limon.**
21. **Banan;**
22. **Ruchka;**
23. **O`rmon;**
24. **Muzlatgich;**
25. **Gilam;**
26. **Oshpaz;**
27. **Osmon;**
28. **Yog`;**
29. **Mashina;**
30. **Stadion;**
31. **Bodring;**
32. **Ayiq;**
33. **Bulut;**
34. **Qulupnay;**
35. **Kompyuter;**
36. **Non;**
37. **Maktab;**

40. Kreslo.

**50ta so`z:**

1. Gips;
2. Kema;
3. Shlyapa;
4. Pistolet;
5. Pul;
6. Palto;
7. Bolg`a;
8. Qo`l;
9. Olma;
10. Restoran;
11. Osmon;
12. Qushlar;
13. Fil;
14. Sahro;
15. Cho`chqa;
16. Sharbat;
17. Banan;
18. Dollar;
19. Yo`lbars;
20. Hakker;
21. Kitob;
22. O`qituvchi;
23. Temir;
24. Palov;
25. Bedana;
26. Choyxona;
27. Texnologiya;
28. Kutubxona;
29. Orol;
30. Kosmos;
31. Miya;
32. Non;
33. Kalamush;
34. Pishloq;
35. Fotoapparat;

36. Ko`prik;
37. Til;
38. Qizlar;
39. Kabutar;
40. Gitara;
41. Universitet;
42. Pomidor;
43. Jarlik;
44. Eshak;
45. Devor;
46. Soch;
47. Qabr;
48. Yurak;
49. Dev;
50. Skripka.

## 2-chi tizim

Agar yoqqan bo`lsa, sizga yana bitta mashq o`rgatishim mumkin.
Birinchi bo`lib, birinchi o`ntalik bilan shug`ullanamiz. Har bir raqamni ma`lum bir obrazga aylantirishimiz lozim. Men sizlarga o`zimning misollarimni chizib ko`rsataman. Bu shunchaki meniki, siz o`zingizning shaxsiy obrazlaringizni yasashingiz mumkin.

1 – stolba;
2 – oq qush;
3 – lab yoki ikkitalik iyyak;
4 – kema;
5 – o`roq;
6 – olcha yoki gilosni osilib turgani;
7 – bumerang;
8 – ko`zoynak;
9 – sharni uchib ketayotgani;
10 – bita va to`p.



Endi har bir raqam obrazini so`z obrazi bilan ulab chiqamiz. Misol 1 – osmon bo`lsa. Stolbani tasavvur qilamiz va osmon stolbani qamrab olganini tasavvur qilamiz. 2 – maktab bo`lsa, oq qush maktabda o`qiyotganini tasavvur qilamiz; 3 – maymun bo`lsa, maymunlar

o`pishayotganini tasavvur qilamiz; 4 – sandiq bo`lsa, kemada sandiq suzib ketayotganini tasavvur qilamiz; 5 – kompyuter bo`lsa, o`roqda kompyuter osilib turganini tasavvur qilamiz; 6 – traktor bo`lsa, traktor atrofida olchalar osilib turganini tasavvur qilamiz; 7 – daraxt bo`lsa, boomerang daraxtni kesib ketayotganini tasavvur qilamiz; 8 – soat bo`lsa, ko`zoynakdan katta soat ko`rinib turganini tasavvur qilamiz; 9 – telefon bo`lsa, telefon sharga ilakishib qolib uchib ketayotganini tasavvur qilamiz; 10 – televizor bo`lsa, bita to`pni bir urib, televizorni sindirib tashlaganini tasavvur qilsak bo`ladi.

Endi navbatdagi 10talikka o`tsak ham bo`ladi. Bu yerda biz nafaqat obraz, balki tovushni ham ishlatib ko`ramiz. Har bir raqam uchun qofiyadosh so`z topamiz.

1 – kir;
2 – ikra, mikki;
3 – kuch;
4 – qurt;
5 – tesh;
6 – oltin;
7 – yetim;
8 – saksofon;
9 – to`ng`iz;
10 – to`n.

Hamma o`z obrazlarini yasaydi. Endi navbatdagi o`ntalik so`zni qanday eslab qolish mumkin. 11 – talaba bo`lsa, kir talabani tasavvur qilsak bo`ladi, 12 – stul bo`lsa, mikki maus stulda o`tirganini tasavvur qilib olamiz; 13 – shaftoli bo`lsa, bilakda shaftolini rasmini tasavvur qilishimiz mumkin, 14 – bolta bo`lsa, qurt katta boltani ko`tarib hamma yoqni chopayapti deymiz; 15 – pianino bo`lsa, drell bilan pianino teshib tashlab turganini tasavvur qilamiz; 16 – shkaf bo`lsa, shkaf oltinga aylanib qolganini tasavvur qilib olamiz; 17 – yer bo`lsa, butun Yer sayyorasini yetim bolalar bosib ketganini tasavvur qilsak bo`ladi; 18 – qush bo`lsa, qushlar saksofon chalib turganini tasavvur qilamiz; 19 – mashina bo`lsa, to`ng`iz mashina haydab ketib turganini tasavvur qilamiz; 20 – xona bo`lsa, butun xonaga to`nni qoqib qo`yishganini tasavvur qilamiz.

Quyidagi 20ta so`z bilan o`zingiz mustaqil ravishda mashq qilib ko`ring:

1. Ruchka;
2. Qalam;
3. Quyosh;
4. Sandiq;
5. Kompyuter;
6. Suv;
7. Uy;
8. Kitob;
9. Muz;
10. Tandir;
11. Hammom;
12. Stul;
13. Sevgi;
14. Mashina;
15. Samolyot;
16. Avtobus;
17. Qasr;
18. Magnitofon;
19. Go`sht;
20. Fil.

1. Sariyog`;
2. Olma;
3. Shirinlik;
4. Ustoz;
5. O`rgimchak;
6. Chigirtka;
7. Sho`r bodring;
8. Qatiq;
9. Non;
10. Koka kola;
11. Yostiq;
12. Ko`ylak;
13. O`rmon;
14. Chiroyli qiz;

15. Maymun;
16. Yo`lbars;
17. Oshpaz;
18. Qalpoq;
19. Kostyum;
20. Shox.

## 100talik tizim

Ana endi navbat uchinchi sistemaga. Ushbu Sistema oldingi sistemaning davomi. Deylik, siz 100ta ma`lumotni eslab qolishingiz kerak, bu xotira potensialini yanada katta hajmga keltiradi. Megamiyya bo`lishga tayyormisiz?

Demak, biz 20ta sonni bemalol aytib bera oladigan bo`ldik, endi yuztasini aytib bera olishimiz kerak, bu tryuk bilan bemalol boshqalarni hayratda qoldirishingiz mumkin. Tizimni tushuntirib beraman. Oldingi 20tada biz sonlarni obrazga aylantirdik, birinchi o`ntalikni shakli bo`yicha, keyingi o`ntalikni talaffuzi bo`yicha, endi quyidagi 21dan 100gacha bo`lgan raqamlarda yangicha taktika qo`llaymiz. Ularni obrazga aylantirishimiz uchun, bizga harflar yordamga keladi. Har bir sonni harflarga o`xshatib olamiz:

1 – t: Bittagina chiziq bo`lgani sabab, "T" harfini tanladik;
2 – n: Ikkita chiziq bo`lgani sabab, "N" harfini tanladik;
3 – m: Uchta chiziq bo`lgani sabab, "M" harfini tanladik;
4 – r: 4 – r harfiga o`xshab ketadi, yozilishi bo`yicha;
5 – b: Besh raqami "B" harfidan boshlanadi;
6 – j: "J" harfini yozib ko`ring, so`ng 6 raqami bilan taqqoslab ko`ring;
7 – k : "K" – e`tibor qiling, K harfida ikkita yetti bor, bittasi teppaga qarab yozilgan, bittasi pastga;
8 – s: Sakkiz raqami "S" harfi bilan boshlanadi;
9 – p: "P" harfini teskarilab qo`ying, 9 raqamiga o`xshaydi;
0 – o : 0 "O" harfiga o`xshab ketadi;

Xo`sh, o`xshatib ham oldik, endi ularni assosiasiyalashtirishimiz kerak. Misol uchun, 21 raqami, shifrovka qilamiz "NT" harfiga aylanadi, endi "NT"ga so`z o`ylab topamiz, misol uchun "NoTa, NoTiq, NosTradamus" va h.k. Kimga qaysi qulay bo`lsa. So`ng 21 yonida

yozilgan so`zga e`tibor qilamiz, misol uchun kraska. Demak, notalarni tasavvur qilamiz, hamda undan kraska oqib tushayotganini tasavvur qilib olamiz.

Bu yerda, ko`proq assosiasiya ishlaydi. 21 – NT – Nota – Kraska, roppa-rosa to`rtta jarayondan o`tishga to`g`ri keladi. Avval 21ni eslaysiz, so`ng uni harflarga ajratasiz, so`ng uni so`zini eslaysiz, ana undan keyin yonidagi assosiasiyani.

Ushbu mashq qiyin tuyulishi mumkin, lekin beshta-beshta qilib, yodlab chiqsangiz, umuman qiyin joyi qolmaydi. O`z xotirangiz uchun bir necha soat ajratsangiz hech narsa qilmaydi, qolaversa ushbu Sistema ko`nikmaga aylansa, sizga bir umrga yetadi.

Dangasalar uchun, maxsus shablon ham tayyorlab qo`ydik, o`zingizni qiynashingiz shart emas, quyida har bir raqamga assosiasiya yozib qo`yganmiz, bemalol foydalanavering.

21 – nt – NoTa;
22 – nn – NoN;
23 – nm – NaM;
24 – nr – NaRgiza;
25 – nb – Nbu;
26 – nj – saNJar;
27 – nk – NoK;
28 – ns – NoS;
29 – np – maNPar;
30 – mo – Mol;
31 – mt – MoTor;
32 – mn – MaNti;
33 – mm – MarMelad;
34 – mr – MaRat;
35 – mb – boMBa;
36 – mj – MarJon;
37 – mk – MaKaron;
38 – ms – MiS;
39 – mp – MaPet;
40 – ro – Rolik;

41 – rt – RoTa;
42 – rn – Ra`No;
43 – rm – RiM;
44 – rr – aRRa;
45 – rb – RoBot;
46 – rj – RaJ;
47 – rk – RaK;
48 – rs – RuStam;
49 – rp – ReP;
50 – bo – BOss;
51 – bt – BiTa;
52 – bn – BaNan;
53 – bm – BeMbi;
54 – br – BaR;
55 – bb – BoBo;
56 – bj – BoJa;
57 – bk – BaKal;
58 – bs – BaS;
59 – bp – BibiP;
60 – jo – JOn;
61 – jt – JeTli;
62 – jn – JiNni;
63 – jm – JaMol;
64 – jr – JaR;
65 – jb – JoBir;
66 – jj – JanJal;
67 – jk – JoKker;
68 – js – JaSur;
69 – jp – JiP;
70 – ko – KOka kola;
71 – kt – KiT;
72 – kn – KaNa;
73 – km – KoMbayn;
74 – kr – KaR;
75 – kb – KaBob;
76 – kj – KaJol;
77 – kk – KiyiK;
78 – ks – KaSal;
79 – kp – KamPir;

80 – so – SOsiska;
81 – st – STansiya;
82 – sn – SaN`at;
83 – sm – SoMsa;
84 – sr – SiR;
85 – sb – SaBr;
86 – sj – maSJid;
87 – sk – SoK;
88 – ss – SoSka;
89 – sp – Sport;
90 – po – PO;
91 – pt – PaT;
92 – pn – PaNa;
93 – pm – PuMa;
94 – pr – PaRrak;
95 – pb – PumBa;
96 – pj – PanJara;
97 – pk – PaKet;
98 – ps – PaSta;
99 – pp – PaPa;
100 – too - TOOrt

## 100ta so`z

Endi yodlagan sistemangizni quyidagi so`zlar bilan birlashtiring va natijadan rohatlaning. Birinchi yigirmattalikni 2chi tizim bilan ishlaymiz, qolganini uchinchi tizim bilan.

1. Maska;
2. Tort;
3. Taxta;
4. Tol;
5. Shim;
6. Damas;
7. Dum;
8. Limon;
9. Qulupnay;
10. Fonar;

11. Remen;
12. Oyna;
13. Eshik;
14. Pol;
15. Lampa;
16. Daraxt;
17. Stolba;
18. Xona;
19. Adyol;
20. Karavot; 2-TIZIM
21. Kraska; 3-TIZIM
22. Stakan;
23. Fanta;
24. Fil;
25. Bo`ri;
26. Hojatxona;
27. Ko`ylak;
28. Tom;
29. Yo`l;
30. Magazin;
31. Javon;
32. Kompyuter;
33. Ko`rpacha;
34. Yostiq;
35. Tuz;
36. Shakar;
37. Yog`;
38. Suv;
39. Guruch;
40. Sochiq;
41. Mosh;
42. Kartoshka;
43. Pomidor;
44. Musiqa;
45. Paypoq;
46. Ot;
47. Militsiya;
48. Kitob;
49. Raqam;

50. Ko`z;
51. Burun;
52. Qo`l;
53. Bosh;
54. Go`sht;
55. Yo`lbars;
56. Qisqichbaqa;
57. Ilon;
58. Televizor;
59. Kenguru;
60. Shrek;
61. Multfilm;
62. Pampers;
63. Chaqaloq;
64. Karton;
65. Daftar;
66. Yomg`ir;
67. Osmon;
68. Quyosh;
69. Mars sayyorasi;
70. Tufli;
71. Shirinlik;
72. Qaymoq;
73. Qasr;
74. Hasharot;
75. Jangchi;
76. Qilich;
77. Podshoh;
78. Choy;
79. Temir;
80. Tuxum;
81. Bodring;
82. Lift;
83. Passport;
84. Sim;
85. Ko`zoynak;
86. Gugurt;
87. Sigaret;
88. Ichimlik;

89. Shar;
90. Sumka;
91. Qor bobo;
92. Quloq;
93. Quyon;
94. Ayiq;
95. Asal;
96. Orkestr;
97. Andijon;
98. Qop;
99. Kolbasa;
100. Sirk.

## Amerika Qo`shma Shtatlari

Shtatlarni to`liq yodlashga harakat qilib ko`rganmisiz, bu ham xotirani yaxshigina rivojlantiradi. Gapni cho`zmaymizda, darrovda tizimni tushuntirishni boshlaymiz.

Har bir shtatni tartib raqami bilan birgalikda yodlashimiz kerak. 1dan 50gacha bo`lgan raqamni 2-3chi tizimlar bo`yicha ishlaymiz, shtatlarga bo`lsa yangicha Sistema ishlatamiz.

Shtatlar nomi sizga yangilik, shu bois, ularni o`zbekcha biron bir so`zga o`xshatib olamiz, so`ng yodlashda davom etamiz.

Misol: Aydaho – Ajdarho so`ziga o`xshab ketadi. Demak, raqami birinchi, 1 – stolba edi, demak stolba ustida Ajdarho o`tiribdi, xuddi shu misoldagidek yodlashni boshlaymiz. Bu tizimni ham beshta-beshta qilib yodlashni maslahat bergan bo`lardim.

1. **Aydaho**
2. **Ayova**
3. **Alabama**
4. **Alyaska**
5. **Arizona**
6. **Arkanzas**
7. **Vayoming**

8. Vashington
9. Vermont
10. Virginiya
11. Viskonsin
12. Gavayi
13. Delaver
14. Jorjiya
15. Garbiy Virginiya
16. Illinoys
17. Indiana
18. Kaliforniya
19. Kanzas
20. Kentukki
21. Kolorado
22. Konnektikut
23. Luiziana
24. Massachusets
25. Minnesota
26. Missisipi
27. Missuri
28. Michigan
29. Montana
30. Men
31. Merilend
32. Nebraska
33. Nevada
34. Nyu-Hempshir
35. Nyu-Jersi
36. Nyu-York
37. Nyu-Meksiko
38. Ogayo
39. Oklahoma
40. Oregon
41. Pensilvaniya
42. Rod-Aylend
43. Shimoliy Dakota

44. Shimoliy Karolina
45. Tennessi
46. Texas
47. Florida
48. Janubiy Dakota
49. Janubiy Karolina
50. Yuta

## Chet tilidagi so`zlarni yodlash texnikasi

Chet tilidagi so`zlarni yodlash texnikasi bir necha qadamdan iborat, agar siz ushbu texnikani to`liq egallasangiz, sizda hech qachon chet tilidagi so`zlarni yodlash bilan muammo bo`lmaydi. Agar ushbu texnikani ko`nikmaga aylantirib oladigan bo`lsangiz, soatiga 150 – 320ta so`z yodlab olish imkoniyatiga ega bo`lasiz.

Demak, so`zlarni eslab qolish bilan shug`ullanamiz.

Ushbu texnika bir necha qadamlardan iborat:

1) Avvalo, biz chet tilidagi so`zni o`zbek tilidagi biron so`zga o`xshatib olishimiz lozim. Misol uchun, Cat (ket) so`zi, bu Ingliz tilidan tarjimada mushuk degani. Endi "ket" so`zi qaysi o`zbekcha so`zga o`xshaydi, misol "kit" so`ziga o`xshatishimiz mumkin. Bu nima uchun kerak? Bizning miyamiz shunday tuzilganki, biron yangi ma`lumotni eslab qolish uchun, avvalo u eski ma`lumot bilan birikishi lozim. Agar sizda u haqidagi eski ma`lumot mavjud bo`lmasa, miyamiz buni tushunmaydi. Misol uchun, limon so`zini aytsam, siz tasavvur qila olasiz, shunday emasmi? Sababi, siz limonni ko`rgansiz, hatto-ki yeb ko`rgansiz, u haqida miyada ma`lum bir ma`lumotlar qolib ketgan. Ana endi Bengal yong`og`i desamchi? Sizda biron fantaziya paydo bo`ldimi? Siz oddiy yong`oqni tasavvur qilasiz yoki umuman tasavvur paydo bo`lmaydi. Sabab? Chunki, siz oldin bu so`zga duch kelmagansiz, sizda eski ma`lumot yo`q, shu sabab yangi ma`lumot qo`shila olmadi. Chet tilidagi so`zlar bilan ham xuddi shu holat. Ya`ni chet tilidagi so`zlar bizning miyamiz uchun yangilik va uni eslab qolishi uchun u eski ma`lumotga tayanishi kerak. Yaxshilab e`tibor bersangiz, standard uslubda yodlagan vaqtingizda, faqatgina oldin eshitgan, biron filmda ko`rib qolgan yoki

ko`p takrorlangan so`zlaringiz yodingizda qoladi. Shunday ekan, bu miyamizning tabiiy jarayoni hisoblanadi. Biz esa bunga yordam berib yuboramiz. Demak, bizdagi eski ma`lumot – bu biz biladigan o`zbek yoki boshqa tildagi so`z hisoblanadi, shu bois biz chet tilidagi so`zni o`zimiz bilgan biron so`zga o`xshatib olamiz. Buni biz assosiasiya deb ataymiz;

2) Tayyor bo`lgan assosiasiyani tarjima bilan birlashtiramiz. Misol uchun, Catni "kit"ga o`xshatgandik. Endi tarjima ya`ni mushukni olamiz, mushuk kitga minib olgan va birgalikda okeanlarni suzib yurishganini tasavvur qilasiz;
3) Assosiasiya tayyor bo`lgan bo`lsa, 3 marta inglizchadan o`zbekchaga, 3 marta o`zbekchadan inglizchaga tarjima qilib qaytarasiz;
4) Yana bir muhim qoida, bittada beshtadan ortiq so`z yodlamang. Ya`ni 10 – 20talab so`z yodlamang. Bizning miyamiz bittada 5tadan ortiq ma`lumotni ushlab tura olmaydi. Avval, beshta so`zni assosiasiya qilib olamiz, so`ng ularni 3 martadan tarjima qilamiz, so`ng keyingi beshta so`zga o`tamiz, ana shunda zo`riqish ham, charchash ham bo`lmaydi;
5) 96 soat qoidasi. Har bir yodlagan so`zingizni 4 kundan so`ng bir marta qaytarib chiqing. Bu nega kerak? Bizning miyamiz yangi olingan ma`lumotni 4 kun davomida o`zida ushlab turadi, agar u qayta ishlatilmasa, uni chetga chiqarib yuboradi. Shu bois, 4chi kuni so`zlarni bir marta qaytarib chiqing, ana shunda so`zlar bir umrga yodingizda qoladi. Misol, bugun 200ta so`z yodladingiz va bugun dushanba, payshanba kuni shu 200tani qaytarib chiqasiz;
6) Shahar metodi. O`zingiz yaxshi bilgan bitta shaharni tanlab olasiz. U shaharni butunlay bo`shatib tashlaysiz, ya`ni odamlarni shahardan olib tashlaysiz, albatta tasavvuringizda! So`ng, har bir yasagan assosiasiyangizni shahar bo`ylab joylashtirib chiqasiz. Misol uchun, kitda suzib ketayotgan mushukni oshxonangizga qo`yib qo`yasiz. Avvalo o`z uyingizdan boshlang, so`ng sekin boshqa joylarga qo`yib chiqishni boshlang. Bu nega kerak? Bu uslub yordamida, siz yasagan assosiasiyalar havoda uchib yurmaydi, ularning aniq bir makoni bo`ladi, makon bo`lgach, siz hatto-ki turgan joyigacha aytib bera olishingiz mumkin.

## Keling, birgalikda 100ta so`zni yodlab ko`ramiz.

1. Read (rid) – o`qimoq: (Rim) Tasavvur qiling Rim shahrida hamma kitob o`qiyapti, atrof to`la kitoblar va hamma faqat kitob o`qiyapti;

2. Holiday (holidey) – ta`til, bayram: (Holida) Tasavvur qiling, Holida ismli do`stingiz yo tanishingiz ta`tilga ketib yubordi, sizsiz ketdi-ya!!!! Yoki bayram uyushtirilyapti va u bayramda hammayog`I hol bosgan odamlar ishtirok etyapti;

3. Wash (uosh) – yuvmoq: (Yuvosh) Yuvosh odamni urib-urib, unga kir yuvdirishyapti;

4. Food (fud) – ovqat: (Sut) Qorningiz och, stol usti bo`lsa faqat sutga to`la yoki sud bo`lyapti, hamma sudda ovqatlanib o`tiribdi, hatto sudya ham;

5. Debt (debt) – qarz: (Tep, tep) Qarzdor qarzlarga botgan bitta odamni rosa tepishyapti. U ham bo`sh kelmay: "Tep, tep" deb baqiryapti;

Mana endi, uch marta inglizchadan o`zbekchaga tarjima qilamiz, albatta o`zbekchasini yopib olib, keyin uch marta o`zbekchadan inglizchaga, bo`ldi, ana shunda so`zlar 100% esda qoladi.

6. Fire (fayr) – o`t, olov: (Sayr) Bir to`da olomon qo`lida o`t bilan sayrga chiqishgan, baqir-chaqir qilishyapti;

7. Flame (fleym) – uchqun: (Flomaster) Flomasterni atrofidan uchqunni charchrab turgan holatda tasavvur qiling;

8. Fruit (frut) – meva: (Shrup) Juda ko`p mevalar, bittasini olib yesangiz, ichi to`la shrup ekan;

9. Condition (kandishin) – shart: (Qon idishi) Qaroqchilar shart qo`yishyapti, rozi bo`lmaganlarga qon idishini ko`rsatishyapti;

10. Fight (fayt) – urush: (Sayt) Urush bo`lyapti, bitta odam saytda o`tiribdi;

Yana qaytaramiz, qaytarib bo`lgach, navbatdagi porsiyalarga o`tamiz.

11. Bit (bit) – qism: (Bit) Mashinangizni qismlarida bitlar yuribdi;

12. Color (kale) – rang: (Kola) Kola idishiga rang qo`shishyapti, endi kola pushti rangda ham bor;

13. Air (cyr) – havo: (Aeroport) Aeroportni tasavvur qiling, umuman havo qolmaganidan samolyotlar qulayapti;

14. Art (art) – san`at: (Mard) Mard odamlar o`z san`atini ko`rsatyapti;

15. Chalk (chok) – bo`r: (Nok) Bo`r, ya`ni mel nok yeb o`tiribdi;

Dam olamiz, nafasni rostlaymiz, qaytaramiz, aytganimizdek 5-ta unaqasiga, 5-ta bunaqasiga, so`ng yana davom etamiz.

16. Doubt (dabt) – shubha: (Kaft) Osmondan qulagan inson kaftiga qarab tirikligiga shubhalanyapti, chunki kafti yedirilib ketibdi;

17. Glass (glass) – oyna, stakan: (Gilos) Uyingiz oynadan va hammayoqni giloslarga to`la stakanlar bosib yotibdi;

18. Ice (ays) – muz: (Aysberg) Muz ustida mayzlar to`kilib yotibdi, ayniqsa aysberg ustida;

19. Hole (houl) – teshik: (Xona) Katta xona, lekin eshigi yo`q, teshigi bor;

20. Horse (hors) – ot: (nos) Oppoq otlar nos chekib o`tirishibdi.

Qaytaramiz!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!

21. Lift (lift) – ko`tarilish: (lift) Bu oson. Liftda ko`tarilayotganingizni tasavvur qiling;

22. Law (lou) – qonun: (olov) Butun qonun lovingizga olovli harflar bilan yozib qo`yilgan;

23. Knee (ni) – tizza: (xina) Tasavvur qiling, tizzangizga xina surtyapsiz;

24. Memory (memori) – xotira: (bemor) Xotirasini yo`qotgan, hatto o`zini ham tanimayotgan bemorlarni tasavvur qilib oling;

25. Move (muv) – qimirlamoq: (muz) Muz ustida qotib qolgansiz, arang-arang qimirlayapsiz;

Qaytaramiz, azizlar, qaytaramiz. Tekshiramiz!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!

26. Nut (nat) – yong`oq: (notarius) Notariusda yong`oq sotishyapti;

27. Poison (poizon) – zahar: (poliz) Katta polizda faqat zaharli o`tlar o`syapti;

28. Sun (san) – quyosh: (saroy) Quyosh chiqyapti, saroylar erib ketyapti, chunki ular muzdan yasalgandi-da!

29. Ring (ring) – qo`ng`iroq, uzuk: (ring) Ringda boksyorlar boksga tushishyapti, shunda birdan qo`ng`iroq jiringladi va to`y boshlandi, boksyorlar bir-birlariga uzuk taqishyapti;

30. Rat (ret) – kalamush: (rediska) Rediskalarni kalamushlar bitta ham qoldirmay urib ketishgan.

Tekshiramiz, beshta inglizcha, beshta o`zbekcha, yaxshi-yaxshi, juda yaxshi, charchagan bo`lsangiz, biroz dam oling. So`ng yana davom ettiramiz.

31. Digestion (dijesshin) – hazm qilish: (dijey) Dijey oshqozoningizda musiqa qo`yish bilan shug`ullanyapti, siz ovqat yeyapsiz, u musiqaga aylantirib, hazm qildirib yuboryapti;

32. Discovery (diskaveri) – kashfiyot: (disko, vertolyot) Diskoga tushib turgan vertolyotlarni tasavvur qiling, barchalari yig`ilib olib, qandaydir kashfiyot ustida ishlashmoqda;

33. Error (eror) – xato: (eri robot) Tasavvur qiling, qo`shningizning eri robotga aylanib qolgan va juda xato ishlayapti;

34. Feel (fil) – his qilmoq: (fil) Katta filni yig`lab o`tirganini yoki Titanikni ko`rib, yig`lab o`tirganini tasavvur qiling. Kino unga ta`sir qilibdi, barchasini his qilib o`tiribdi;

35. Cry (kray) – yig`lamoq: (kiray) Yosh bolacha xonaga kiray, deb yig`layapti;

Qaytaramiz, qaytaramiz, tekshiramiz. Belgilangan tartibda takrorlashni unutmang!!!!!!!!!!!!!!!!!!

36. Pocket (poket) – cho`ntak: (poq etib) Birdan cho`ntagingiz poq etib yorilib ketganini tasavvur qiling;

37. Pump (pamp) – nasos: (puma) Yovvoyi puma velosipedini balonini nasos bilan shishirayotganini tasavvur qiling;

38. Prison (prizn) – qamoqxona: (priz) Qamoqxonada barchaga priz berishayotganini tasavvur qiling;

39. Ticket (tiket) – chipta: (tiq etib) Tushingizda sekin eshikni ochyapsizda, birdan eshikdan tiq etib chiptalar uchib kirib kelyapti;

40. Thumb (samb) – bosh barmoq: (sambo) Bosh barmoqchalar samboga tushayotganlarini tasavvur qiling;

Qaytarishga hojat yo`q, nima qilishni juda yaxshi bilasiz!!!!!!!!!!!!!

41. Toe (teu) – oyoq tirnog`i: (tuz) Tasavvur qiling, oyog`ingiz tirnoqlari tuzga botib qolgan;

42. Stocking (stoking) – paypoq: (sto king) Sto – bu ruscha yuz, king – bu inglizchasiga qirol, degani. Yuzta qirol bitta paypoq uchun urushayotganini tasavvur qiling;

43. Rod (rod) – shox (daraxt), qarmoq: (rot) Rot – bu ruscha og`iz. Daraxt og`zini katta qilib ochyapti, og`zida baliqlar suzib yurishibdi. Kimdir u yerga qarmoq tashlab, baliqlarni tutyapti;

44. Pot (pot) – tuvak: (pot) Pot – bu ruschasiga ter, degani. Tasavvur qiling, hojatxonada tuvak nimadir qilolmayotganidan terlab ketaypti. Chiranyapti, ammo terdan boshqa hech narsa chiqmayapti;

45. Power (pauer) – kuch: (pauk) Pauk so`zi o`rgimchakligini bilasiz. Mushagingizni ko`rsatyapsiz, u yerda o`rgimchakning tattusi bor;

O`sha!!!!!

46. Sheep (ship) – qo`y: (ship) Qo`y podangizni ship etib, kimdir birdaniga yo`q qilib ketdi, daxshat;

47. Pig (pig) – cho`chqa: (pingvin) Pingvinsimon cho`chqalarni tasavvur qiling;

48. Worm (uorm) – qurt: (vor) Vor – bu o`g`ri. Qurtlaringizga o`g`ri tushdi. Chunki ular juda qimmat-da! Fuuuu!!!!!!

49. Window (uindou) – oyna, deraza: (windows) Oynangizga qarayapsiz, birdan kompyuterga o`xshab, windows yozuvi chiqib kelyapti;

50. Wing (uing) – qanot: (Vinni) Vinni-Pux o`ziga qanot yasab olib, Marsga uchishni rejalashtiryapti;

Xullas, yana o`sha!!!!!!!!!!!!!!

51. Whip (uip) – tasma: (VIP) Tasma taqib kirgan kompyuterxonada o`tirish VIP ekanini tasavvur qiling;

52. Wheel (uil) – g`ildirak: (Villa) Villada g`ildira ustida uxlab yotibsiz;

53. Tooth (tus) – tish: (tuz) Tishingiz og`riyapti, bir stakan tuzni olib og`izga solyapsiz;

54. Tree (tri) – daraxt: (tirik) Daraxt qulab tushgan, daraxtni tomirini ushlab, pulsini tekshirishyapti, vrach "tirik" deb baqiryapti;

55. Tongue (tang) – til: (tank) Tilingiz ustida tank yuribdi;

Tanaffus e`lon qiling. So`ng qaytaring hamda ishga kirishing.

56. Town (taun) – shahar: (sovun) Katta shahar sovundan qurilgan, hammayoq sovun bosib yotibdi;

57. Train (treyn) – poyezd: (tre, eyon...) Otangiz poyezd oldiga kelib "Tre, eyon..." deb baqirgandi, poyezd birdan yurib ketdi;

58. Wire (uayr) – provod, telegraf: (xayr) Telegrafga kirganlarga xayr eshiklari ochiladi, deb provodlarga yozib qo`yishibdi;

59. Profit (profit) – foyda: (professional) Professionallar foyda olishni bilishadi;

60. Produce (prodyus) – ishlab chiqarmoq: (prodyusser) Prodyusserlar endi faqat o`zlari narsa ishlab chiqarishyapti, hech kim ularda ishlamayapti;

Qaytaramiz, tekshiramiz va h.k.

61. Pleasure (pleje) – rohat: (plyaj) Plyajda rohatlanib yotibsiz, qanchalar maza!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!

62. Paper (peype) – qog`oz: (paypoq) Qog`oz paypoqlaringiz borligini tasavvur qiling;

63. Orange (orenj) – apelsin: (orex) Rus sotuvchisi "orex, orex" deb sizga apelsin sotyapti;

64. Motion (moshn) – harakat: (moshina) Moshinangiz harakatlanmayapti, endi o`zingiz harakat qilasiz;

65. Mountain (maunteyn) – tog`: (maymun, teyini) Tog`ga chiqib, maymun qizini sevib qoldingiz, uyingizdagilar uni teyini surishtirishyapti;

Tekshiramiz, uchta-uchta uslubi orqali!!!

66. Market (market) – bozor: (markaz) Bozor markazida yelkangizda ketmon bilan yuripsiz, tfu-tfu-tfu, ko`z tegmasin, ilohim ☺

68. Neck (nek) – bo`yin: (neksiya) Bo`yningizda neksiya yuribdi;

69. Mark (mark) – belgi, belgilamoq: (park) Parkda hammani peshonasiga belgi qo`yib yuribsiz, xuddi hindlardek;

70. Milk (milk) – sut: (mulk) Xotiningiz bilan mulk talashyapsiz, o`sha mulk – yangi sog`ilgan sut, ahmoqlik to`g`rimi?

Teeeeeeeekshiraaaaaaaaaaamiiiiiiiiiiizzzzzzzz!

71. Mine (mayn) – manba, kon: (may) Konda maza qilib, may ichib yotibsiz;

72. Money (mani) – pul: (manti) Mantiga pul sotib olib yeyapsiz, iye adashib ketdim, pulga manti sotib olib yeyapsiz;

73. Head (hed) – bosh: (hid) Boshingizdan g`alati hidlar kelyapti;

74. Hammer (hemme) – bolg`a: (hammer) Hammer markali mashinani bolg`a bilan urib sindiryapsiz;

75. Hole (houl) – teshik: (xola) Yerdan teshik ochib, xolangizni tiqib qo`yyapsiz;

U tomon, bu tomon uslubi bilan tekshiramiz ☺

76. Fold (fold) – qayrilish: (ford) Ford mashinalari qayrilib, zavoddan chiqyapti;

77. Freeze (friz) – muzlatmoq: (grizli) Grizli ayig`ini muzlatgichga tiqib, muzlatyapsiz. Keyin u oqayiqqa aylanadi;

78. Kneel (nil) – cho`tkalab o`tirmoq: (Nil) Nil daryosi oldida tizzalab o`tirib, unga ta`zim qilyapsiz;

79. Rise (rayz) – ko`tarilmoq, o`smoq: (rays) Sizni rais ko`taryapti, o`ng qo`li bilan, h-mmm, hazil;

80. Keep (kip) – asramoq, saqlamoq, himoya qilmoq: (Kiprik) Kipriglingizda boyliklar bor, barcha sizga hujum qilyapti, siz kipriklaringizni himoya qilyapsiz;

Tekshiramiz!!!! Soddagina…

81. Take (teyk) – olmoq: (tiko) Tikoda ketayotib, qo`lingizni goh-gohida ruldan olib turibsiz;

82. Leave (liv) – tark etmoq: (lift) Liftga qamalib qoldingiz va uni tark etolmayapsiz;

83. Fall (fol) – qulamoq, yiqilmoq: (xol) Xolli-xolli odamlar ustingizga yiqilyapti;

84. Drive (drayv) – haydamoq: (drandulet) Drandulet mashinalarni haydab yurganingizni tasavvur qiling;

85. Cut (kat) – qirqmoq, kesmoq: (pat) Qushlarni patini qirqib, kesib yuripsiz. Qanchalara vahshiysiz!!!!!

Tekshiramiz, azizlar, tekshiramiz!!!!

86. Choose (chuz) – tanlamoq: (cho`zib-cho`zib) Siz qo`ylarni badanidan cho`zib-cho`zib tanlayapsiz;

87. Do (du) – qilmoq: (do`st) Do`stingiz bilan ish qilyapsiz;

88. Creep (krip) – o`rmalab yurmoq: (grip) Grip kasaliga uchrab, yerda o`rmalab yuribsiz;

89. Hit (hit) – urmoq, zarba bermoq: (hit) Hit bo`lgan ashullalar miyangizni urib pachog`ini chiqaradi;

90. Make (meyk) – qilmoq, ishlab chiqarmoq, tikmoq: (Mayk) Mayk Tayson bilan ish qilyapsiz, mahsulot ishlab chiqaryapsiz, narsa tikib o`tiribsiz;

Tekshiramiz, qaytaramiz!!!!!!!!!!!!!!

91. Set (set) – o`rnatmoq: (setka) Setkangizga antenna o`rnatyapsiz;

92. Shrink (shrink) – qisqarmoq: (Sherlok) Shirinliklaringiz kundan kunga qisqarib, kamayib ketyapti, demak kimdir yeb qo`yyapti, tezda Sherlok Xolmsni chaqirish kerak;

93. Lose (luz) – yo`qotmoq: (Luna) Luna – oy. Oyni o`g`irlab cho`ntagingizga solib olgansiz, keyin uni yo`qotib qo`ydingiz;

94. Lie (lay) – yotmoq, yolg`on gapirmoq: (Nay) Siz yotgan holatda kimnidir qulog`iga lapsha ilib, nay chalib yotibsiz;

95. Run (ran) – yugurmoq: (kana) Badaningizni kanalar bosgan, siz esa mingga qo`yib yuguryapsiz suvga qarab, albatta;

Tekshiramiz….

96. Receive (risiv) – olmoq: (retsept) Doktordan retsept olyapsiz;

97. Write (rayt) – yozmoq: (rais) Rais yozib o`tiribdi, birdan keyin uxlab qoldi, chunki nayt tushib qolgandi, ya`nit un;

98. Sweep (svip) – supurmoq: (shimib) Qurut shimib supurayotganingizni tasavvur qiling;

99. Tell (tell) – aytib bermoq: (mel) Qo`lingizga melni olib do`stlaringizga barchasini aytib beryapsiz, tol tagida bo`lgan ishlarni ham, kelmagan do`stlaringizga telefon qilib aytyapsiz;

100. Swim (svim) – suzmoq: (chivin) Basseynda suzyapsiz, chivinlar sizdan o`zib ketyapti, axir bu haqorat!!!!!!!!!!!!

## Inglizcha so`zlar

Endi quyidagi so`zlarni o`zingiz yodlab ko`ring.

1. Cat – mushuk;
2. Bat – ko`rshapalak;

3. Rat – kalamush;
4. Dog – it, kuchuk;
5. Jam – murabbo;
6. Gun – miltiq;
7. Man – erkak, odam;
8. Boy – o`g`il bola;
9. Guy – yigit;
10. Boss – xo`jayin;
11. Aunt – xola;
12. Job – ish;
13. Shop – magazine;
14. Wolf – bo`ri;
15. Goose – g`oz;
16. Cow – sigir;
17. Frog – qurbaqa;
18. Duck – o`rdak;
19. Pig – cho`chqa;
20. Roof – tom;
21. Home – uy;
22. Yard – xovli;
23. Land – yer;
24. Road – yo`l;
25. Field – dala;
26. Sea – dengiz;
27. Tree – daraxt;
28. Leaf – barg;
29. Room – xona;
30. Hall – koridor;
31. Door – eshik;
32. Bed – karavot;
33. Oil – neft, yog`;
34. Egg – tuxum;
35. Pea – nuxat;
36. Nut – yong`oq;
37. Bun – bulochka;
38. Pie – pirog;
39. Juice – sharbat;
40. Tea – choy;
41. Milk – sut;

42. Curd – tvorog;
43. Cup – piyola;
44. Mug – krujka;
45. Fork – sanchqi;
46. Pan – kastryula;
47. Car – mashina;
48. Bus – avtobus;
49. Ship – korabl;
50. Pen – ruchka;
51. Clock – soat;
52. Bag – sumka;
53. Ball – to`p;
54. Map – xarita;
55. Key – kalit;
1966—76 yillarda "madaniy inkilob" amalga oshirildi. Mao Szedun shaxsiga sig'inish avj oldi. Xavfsizlik organlari va armiya ishtirokida, shuningdek, siyosiy jihatdan chiniqmagan o'quvchi yoshlar va talabalardan tuzilgan xunveybinlar ("qizil qo'riqchilar") hamda szaofanlar ("g'alayonchilar") otryadlari yordamida Mao Szedun ko'rsatmasiga binoan minglarcha mas'ul partiya va davlat xodimlari va ziyolilar ishdan olinib, surgun qilindi yoki uy qamog'ida sakdandi. Provinsiya va uyezdlarda partiya qo'mitalari va xalq tomonidan saylangan hokimiyat organlari amalda tarqatib yuboriddi va tepadan tayinlanadigan, armiya vakillari asosiy rol o'ynagan "inqilobiy qo'mitalar" bilan almashtirildi, xalq xo'jaligidagi tanglik yanada chukurlashdi. Xitoy KPning bu siyosati (keyinchalik X.da keskin tankidga uchragan) Mao Szedun vafoti (1976)dan keyin qayta ko'rib chikildi. Bunda iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali 21 a. o'rtalariga kelib X.ni yuksak darajada rivojlangan davlatga aylantirish vazifasi qo'yildi. Korxonalarning xo'jalik yuritish faoliyatidagi mustaqilligi oshirildi, ko'p ukladli iktisodiyotga ruxsat berildi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish maqsadida X.da "ochiq iqshsodiy rnlar" va "maxsus iktisodiy hududlar" tashkil etildi. 1990-yillarning boshlaridan Xitoy KP tomonidan amalga oshirilayotgan "sotsialistik bozor xo'jaligi"ga o'tish shakllandi. X.ning Buyuk Britaniya bilan tuzgan bitimi (1989)ga muvofiq Syangan (Gonkong) X.ga o'tdi va XXRning maxsus ma'muriy rni makomini oldi. X. 1971 yildan BMT a'zosi (1945 y. SanFransisko konferensiyasida BMT ustaviga gomindan hukumati vakili imzo chekkan. XXR tuzilgach, uning BMT dagi o'rnini Tayvan noqonuniy ravishda egallab kelgan, XXR esa bu tashkilotda vakillikdan mahrum qilingan edi. 1971 y. 25 okt.da BMT ning Bosh Assambleyasi XXRning qonuniy huquklarini tiklash va BMT hamda uning barcha organlaridan Tayvan vakillarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qildi). X. 1991 y. 27 dek.da O'zR suverenitetini tan olgan va 1992 y. 2 yanv.da diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Milliy bayrami — 1 okt. — Respublika e'lon qilingan kun (1949).

Siyosiy partiya va tashkilotlari. X. xalq siyosiy maslahat kengashi, kasaba uyushmalari. X. Kommunistik partiyasi (XKP, 1921 y. tuzilgan; Bosh kotibi Xu Szintao. 50,3 mln. a'zosi bor); Gomindan inqilobiy qo'mitasi, 1948 y. asos solingan; X. Demokratik ligasi, 1941 y. tuzilgan; X. Demokratik milliy qurilish assotsiatsiyasi, 1945 y. tuzilgan; X. Demokratiya taraqqiyotiga ko'mak beruvchi assotsiatsiya, 1945 y. tashkil etilgan; X. dexkmishchilar demokratik partiyasi, 1947 y. asos solingan; Chjungo chjigun dan (X. adolatga intilish partiyasi), 1925 y. tuzilgan; Szyusan syuye she (3 sent. jamiyati), 1946 y. tuzilgan; Tayvan muxtoriyati demokratik ligasi, 1947 y. asos solingan; X. xalq siyosiy maslahat kengashi; 1949 y. tuzilgan. Umumxitoy kasaba uyushmalari federatsiyasi, 1925 y. tuzilgan.

**Xo'jaligi**

X. — industrialagrar mamlakat. 1949 y. xalq inqilobidan so'ng xalq xo'jaligini tiklashga kirishdi va dastlabki 5 y. ichida yuksak natijalarga erigdki. Ammo undan keyingi 20 yildan ortiq davr ichida iqtisodiyoti nihoyatda qiyin ahvolga tushib qoldi. 1978 yilda boshlangan iqtisodiy islohotlar mamlakat iqgisodiyotini rivojlanish yo'liga olib chiqsi. Iktisodiy o'sish sur'ati yiliga o'rta hisobda 8—10%, xususiy mulkchilikka asoslangan tarmoqlarda 30% ga oshdi. 1980-yillar oxirida yalpi ichki mahsulot hajmi 2 baravar ko'paydi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash

muammosi hal bo'ldi. 1990-yillar oxirqsa yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 49%, qishloq xo'jaliginiki 19%, xizmat ko'rsatish tarmog'iniki 32%ni tashkil etdi. Sanoatida ko'p tarmoqli mashinasozlik [stanoksozlik, qishloq xo'jaligi va transport mashinasozligi, traktorsozlik, avtomobilsozlik (2003 y. 4 mln. 443 ming 700 dona avtomobil ishlab chiqarildi), elektr energetikasi va boshqa sanoat jihozlari, elektron buyum va priborlar, shuningdek, velosiped, tikuv mashinalari, soat va boshqa ishlab chiqarish], kimyo, qora metallurgiya muhim mavqega ega. Sanoatning asosiy tarmoqlaridan — to'qimachilik [ipgazlama (1996 y. 22,1 mlrd. metr), shoyi, jun gazlama i.ch.], oziqovkat sanoati rivojlangan. Issiqlik energetika bazasining asosi — ko'mir. U, asosan, X.ning shim. va shim.sharqida qazib olinadi (1993 y. 1149 mln. tonna). Neft mamlakatshim.g'arbi va shim.sharqida qazib olinadi (142 mln. tonna). X. shim.sharqida yonuvchi slanets konlari, Sichuan soyligi va Saydam tekisligida gaz konlari bor. Yiliga o'rtacha 1654 mlrd. kVtsoat elektr energiyasi hosil qilinadi (asosan, issiqlik elektr styalarida). Po'lat (yiliga 86 mln. tonna), rangli metallar (alyuminiy, mis, rux, qo'rg'oshin, qalay, surma) eritiladi. Sement (490 mln. tonna), mineral o'g'it (27 mln. tonna) ishlab chiqariladi. Hunarmandchilik ham katta ahamiyatga ega [eng qad. tarmoqlari — yigiruvto'quv, keramika (chinni va fayans) va uyro'rg'or buyumlari i.ch.]. X. Badiiyhunarmandchilik buyumlari bilan ham mashhur.

Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i — dehqonchilik. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerning 93 mln. gektari (mamlakat hududining 10%) ishlanadi, 49% sug'oriladigan yerlar. Ekin maydonining 2/3 qismini sholi, bugdoy, batat, kartoshka egallaydi, 18% ga texnika ekinlari (paxta, soya, yer yong'oq, choy, tamaki, jut, shakarqamish, qand lavlagi va boshqalar) ekiladi. Shuningdek, tariq, arpa, grechixa ham yetishtiriladi. X.ning jan.dagi dengiz sohillari va Sichuan soyligida shakarqamish, sharqiy va markaziy rnlarida choy o'stiriladi. Tung va lak daraxtlari ham o'stiriladi. Tropik, subtropik va mo''tadil mintaqalarda ko'p tarmoqli bog'dorchilik (sitrus mevalar, ananas, banan, mango, olma, nok va b.k.) rivojlangan. Ayrim rnlarda tokchilik bilan shug'ullaniladi. 1992 y. 443 mln. tonna g'alla, 5 mln. tonnaga yaqin paxta yetishtirildi.

Chorvachilikda X.ning har bir yirik rni o'ziga xos yo'nalishga ega. Sharqiy X.da cho'chqachilik, parrandachilik rivojlangan, ish hayvonlari ko'paytiriladi. Ichki Mongoliya, SintszyanUyg'ur maxtor mining shim. qismi va Tibetda yaylov chorvachiligi (qo'ychilik, qoramolchilik, yilqichilik) asosiy o'rinda. 1996 y. 109 mln. qoramol, 452 mln. cho'chqa, 127 mln. qo'y bo'lgan. 1992 y. 29 mln. tonna go'sht, 5 mln. tonna sut tayyorlangan. Yanszi va Chjutszyan daryolari havzalarida tut ipak qurti, Shim.Sharqiy X.da va Shandunda dub ipak qurti boqiladi. X. dunyoda tabiiy shoyi yetishtiruvchi yirik davlatlardan biri. X. baliqva b. dengiz hayvonlarini ovlashda dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. Chuchuk suv havzalarida va sholipoyalarda baliqchilik ham keng tarqalgan. X.da yogoch tayyorlanadi, yovvoyi o'simlik mevalari va shifobaxsh o'tlar yig'iladi.

**Transporti**

Transport yo'li transportning asosiy turi. Ularning uz. 73 ming km. X.ning sharkiy portlari t.y. orqali Mongoliya, Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlari, Eron va Yevropa

X.ni tashlab shim.g'arbga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi (1934 y. okt. — 1936 y. noyab.) va Shensi hamda Gansu provinsiyalari chegarasiga chiqdi. 1936 y. Yaponiya agressiyasi xavfining kuchayishi va keng xalq ommasining noroziligi gomindan rahbarlarini X. Qizil Armiyasiga qarshi kurashni to'xtatishga majbur etdi. 1937 y. iyulda Yaponiya butun X.ni bosib olish rejasini amalga oshirishga kirishdi. Urushning birinchi oylaridayoq yaponlar X.ning katta qismini, jumladan, Beypin (Pekin), Tyantszin, Shanxay va boshqa shaharlarini bosib oldi. Xitoy xalkining yapon bosqinchilariga qarshi ozodlik urushi (1937—45) boshlandi. Xalqning tazyiqi ostida gomindan rahbarlari 1937 y. 23 sent.da XKP bilan gomindan o'rtasida hamkorlik o'rnatilganligini ma'lum qildi. Yapon qo'shinlari 1937 y. iyuldan 1938 y. okt.gacha Shimoliy X.ning barcha hududini, Markaziy X.ning bir qismini, shuningdek, Janubiy X.ning muhim dengiz bo'yi rnlarini bosib oldi. XKP yaponlar bosib olgan rnlarda partizanlik harakatini keng avj oldirdi.

Sovet Armiyasi o'tkazgan Manjuriya strategik operatsiyasi (1945) natijasida Shim.Sharqiy X. va Ichki Mongoliya yapon militaristlaridan ozod etildi. 1945 y. 2 sent.da Yaponiya so'zsiz taslim bo'ldi. 1945 y. 13 okt. da Chan Kayshi hukumati qo'shinlari ozod kilingan hududlarga hujum boshladi. Gomindan hukumati va XKP harbiy harakatlarni to'xtatishga kelishgan (1946 y. 10 yanv.) bo'lsa ham 1946 y. iyulda Chan Kayshi tarafdorlari butun mamlakat miqyosida fuqarolar urushini yana boshlab yubordi. AKSH chankayshichilarga har tomonlama yordam ko'rsata boshladi. Biroq X. Xalq ozodlik armiyasi gomindanchilarga karshi muvaffakiyatli janglar olib borib, 1948—49 y. yanv. butun Shim.Sharqiy X., Shimoliy X.ni, Shim.G'arbiy X.ning ko'p qismini, Markaziy X.ning Yanszi daryosigacha bo'lgan yerlarini ozod kildi. 1949 y. kuzga kelib X. Xalq ozodlik armiyasi hujumni davom ettirdi va Shim.G'arbiy X. va Markaziy X.ni, Jan. va Jan.G'arbiy X.ning katta qismini ozod qildi. Chan Kayshi to'dasi esa Tayvanga qochdi. 1949 y. 1 okt.da Pekinda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tuzilganligi e'lon qilindi. Sharqiy Turkiston, Ichki Mongoliya va Tibet ham ushbu respublikaga kiritildi. . XXR tuzilgach, davlatni boshqarishni o'z zimmasiga olgan Mao Szedun boshchiligidagi X. rahbariyati va XKP XXRning bosh yo'li — mamlakatda sotsialistik jamiyat qurish ekanligini e'lon qildi va xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish, qishloq xo'jaligini jamoalashtirish, sotsializmning sovet modeli negizini yaratish yo'lini tanladi. 1951 y. X. hududini gomindanchilardan ozod etish (Tayvan va Penxuledaodan tashqari) tugallandi. 1952 y. XXR hukumati joylarda xalq hokimiyati organlarini tuzish, gomindanchilarni yo'qotish, yirik kapitalni musodara qilish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirdi. 1953 y. agrar islohotlar o'tkazildi. 300 mln.ga yakin yersiz va kam yerli dehqonlar va ularning oilalariga sobiq zamindorlar yerlari bo'lib berildi. 1953—54 yillarda mahalliy va markaziy hokimiyat organlariga umumiy saylovlar bo'ldi. 1954 y. sent. da Umumxitoy xalq vakillari majlisining 1sessiyasi bo'lib, XXR konstitutsiyasi qabul qilindi.

50-yillarning 2-yarmida Mao Szedun boshchiligidagi XXR rahbarlari 1958— 60 yillarda "katta sakrash" (besh yil mobaynida sanoat i.ch.ini 6,5 marta, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini 2,5 marta ko'paytirish) yo'lini tutdilar. Barcha qishloq xo'jaligi kooperativlari "xalq kommunalari"ga aylantirildi.

1966—76 yillarda "madaniy inkilob" amalga oshirildi. Mao Szedun shaxsiga sig'inish avj oldi. Xavfsizlik organlari va armiya ishtirokida, shuningdek, siyosiy jihatdan chiniqmagan o'quvchi yoshlar va talabalardan tuzilgan xunveybinlar ("qizil qo'riqchilar") hamda szaofanlar ("g'alayonchilar") otryadlari yordamida Mao Szedun ko'rsatmasiga binoan minglarcha mas'ul partiya va davlat xodimlari va ziyolilar ishdan olinib, surgun qilindi yoki uy qamog'ida sakdandi. Provinsiya va uyezdlarda partiya qo'mitalari va xalq tomonidan saylangan hokimiyat organlari amalda tarkatib yuboriddi va tepadan tayinlanadigan, armiya vakillari asosiy rol o'ynagan "inqilobiy qo'mitalar" bilan almashtirildi, xalq xo'jaligidagi tanglik yanada chukurlashdi. Xitoy KPning bu siyosati (keyinchalik X.da keskin tankidga uchragan) Mao Szedun vafoti (1976)dan keyin qayta ko'rib chikildi. Bunda iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali 21-a. o'rtalariga kelib X.ni yuksak darajada rivojlangan davlatga aylantirish vazifasi qo'yildi. Korxonalarning xo'jalik yuritish faoliyatidagi mustaqilligi oshirildi, ko'p ukladli iktisodiyotga ruxsat berildi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish maqsadida X.da "ochiq iqshsodiy rnlar" va "maxsus iktisodiy hududlar" tashkil etildi. 1990-yillarning boshlaridan Xitoy KP tomonidan amalga oshirilayotgan "sotsialistik bozor xo'jaligi"ga o'tish shakllandi. X.ning Buyuk Britaniya bilan tuzgan bitimi (1989)ga muvofiq Syangan (Gonkong) X.ga o'tdi va XXRning maxsus ma'muriy rni maktmini oldi. X. 1971 yildan BMT a'zosi (1945 y. SanFransisko konferensiyasida BMT ustaviga gomindan hukumati vakili imzo chekkan. XXR tuzilgach, uning BMT dagi o'rnini Tayvan noqonuniy ravishda egallab kelgan, XXR esa bu tashkilotda vakillikdan mahrum qilingan edi. 1971 y. 25 okt.da BMT ning Bosh Assambleyasi XXRning qonuniy huquklarini tiklash va BMT hamda uning barcha organlaridan Tayvan vakillarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qildi). X. 1991 y. 27 dek.da O'zR suverenitetini tan olgan va 1992 y. 2 yanv.da diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Milliy bayrami — 1 okt. — Respublika e'lon qilingan kun (1949).

Siyosiy partiya va tashkilotlari, X. xalq siyosiy maslahat kengashi, kasaba uyushmalari. X. Kommunistik partiyasi (XKP, 1921 y. tuzilgan; Bosh kotibi Xi Szintao. 50,3 mln. a'zosi bor); Gomindan inqilobiy qo'mitasi, 1948 y. asos solingan; X. Demokratik ligasi, 1941 y. tuzilgan; X. Demokratik milliy qurilish assotsiatsiyasi, 1945 y. tuzilgan; X. Demokratiya taraqqiyotiga ko'mak beruvchi assotsiatsiya, 1945 y. tashkil etilgan; X. dexkmishchilar demokratik partiyasi, 1947 y. asos solingan; Chjungo chjigun dan (X. adolatga intilish partiyasi), 1925 y. tuzilgan; Szyusan syushe (3 sent. jamiyati), 1946 y. tuzilgan; Tayvan muxtoriyati demokratik ligasi, 1947 y. asos solingan; X. xalq siyosiy maslahat kengashi; 1949 y. tuzilgan. Umumxitoy kasaba uyushmalari federatsiyasi, 1925 y. tuzilgan.

**Xo'jaligi**

X. — industrialagrar mamlakat. 1949 y. xalq inqilobidan so'ng xalq xo'jaligini tiklashga kirishdi va dastlabki 5 y. ichida yuksak natijalarga erigddi. Ammo undan keyingi 20 yildan ortiq davr ichida iqtisodiyoti nihoyatda qiyin ahvolga tushib qoldi. 1978 yilda boshlangan iqtisodiy islohotlar mamlakat iqqisodiyotini rivojlanish yo'liga olib chiqsi. Iktisodiy o'sish sur'ati yiliga o'rta hisobda 8—10%, xususiy mulkchilikka asoslangan tarmoqlarda 30% ga oshdi. 1980-yillar oxirida yalpi ichki mahsulot hajmi 2 baravar ko'paydi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash

muammosi hal bo'ldi. 1990-yillar oxirqsa yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 49%, qishloq xo'jaliginiki 19%, xizmat ko'rsatish tarmog'iniki 32%ni tashkil etdi. Sanoatida ko'p tarmoqli mashinasozlik [stanoksozlik, qishloq xo'jaligi va transport mashinasozligi, traktorsozlik, avtomobilsozlik (2003 y. 4 mln. 443 ming 700 dona avtomobil ishlab chiqarildi), elektr energetikasi va boshqa sanoat jihozlari, elektron buyum va priborlar, shuningdek, velosiped, tikuv mashinalari, soat va boshqa ishlab chiqarish], kimyo, qora metallurgiya muhim mavqega ega. Sanoatning asosiy tarmoqlaridan — to'qimachilik [ipgazlama (1996 y. 22,1 mlrd. metr), shoyi, jun gazlama i.ch.], oziqovkat sanoati rivojlangan. Issiqlik energetika bazasining asosi — ko'mir. U, asosan, X.ning shim. va shim.sharqida qazib olinadi (1993 y. 1149 mln. tonna). Neft mamlakatshim.g'arbi va shim.sharqida qazib olinadi (142 mln. tonna). X. shim.sharqida yonuvchi slanets konlari, Sichuan soyligi va Saydam tekisligida gaz konlari bor. Yiliga o'rtacha 1654 mlrd. kVtsoat elektr energiyasi hosil qilinadi (asosan, issiqlik elektr styalarida). Po'lat (yiliga 86 mln. tonna), rangli metallar (alyuminiy, mis, rux, qo'rg'oshin, qalay, surma) eritiladi. Sement (490 mln. tonna), mineral o'g'it (27 mln. tonna) ishlab chiqariladi. Hunarmandchilik ham katta ahamiyatga ega [eng qad. tarmoqlari — yigiruvto'quv, keramika (chinni va fayans) va uyro'zg'or buyumlari i.ch.]. X. Badiiyhunarmandchilik buyumlari bilan ham mashhur.

Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i — dehqonchilik. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerning 93 mln. gektari (mamlakat hududining 10%) ishlanadi, 49% sug'oriladigan yerlar. Ekin maydonining 2/3 qismini sholi, bugdoy, batat, kartoshka egallaydi, 18% ga texnika ekinlari (paxta, soya, yer yong'oq, choy, tamaki, jut, shakarqamish, qand lavlagi va boshqalar) ekiladi. Shuningdek, tariq, arpa, grechixa ham yetishtiriladi. X.ning jan.dagi dengiz sohillari va Sichuan soyligida shakarqamish, sharqiy va markaziy rnlarida choy o'stiriladi. Tung va lak daraxtlari ham o'stiriladi. Tropik, subtropik va mo''tadil mintaqalarda ko'p tarmoqli bog'dorchilik (sitrus mevalar, ananas, banan, mango, olma, nok va h.k.) rivojlangan. Ayrim rnlarda tokchilik bilan shug'ullaniladi. 1992 y. 443 mln. tonna g'alla, 5 mln. tonnaga yaqin paxta yetishtirildi.

Chorvachilikda X.ning har bir yirik rni o'ziga xos yo'nalishga ega. Sharqiy X.da cho'chqachilik, parrandachilik rivojlangan, ish hayvonlari ko'paytiriladi. Ichki Mongoliya, SintszyanUyg'ur muxtor rnining shim. qismi va Tibetda yaylov chorvachiligi (qo'ychilik, qoramolchilik, yilqichilik) asosiy o'rinda. 1996 y. 109 mln. qoramol, 452 mln. cho'chqa, 127 mln. qo'y bo'lgan. 1992 y. 29 mln. tonna go'sht, 5 mln. tonna sut tayyorlangan. Yanszi va Chjutszyan daryolari havzalarida tut ipak qurti, Shim.Sharqiy X.da va Shandunda dub ipak qurti boqiladi. X. dunyoda tabiiy shoyi yetishtiruvchi yirik davlatlardan biri. X. baliqva b. dengiz hayvonlarini ovlashda dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. Chuchuk suv havzalarida va sholipoyalarda baliqchilik ham keng tarqalgan. X.da yogoch tayyorlanadi, yovvoyi o'simlik mevalari va shifobaxsh o'tlar yig'iladi.

**Transporti**

Transport yo'li transportning asosiy turi. Ularning uz. 73 ming km. X.ning sharkiy portlari t.y. orqali Mongoliya, Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlari, Eron va Yevropa

mamlakatlari bilan bog'langan. Avtomobil yo'llari uz. 1,278 mln. kilometr. So'nggi yillarda tez yurar avtomobil yo'llari qurish rivojlangan. Ularning uz. 8733 km. Ichki suv yo'llarining uz. 150 ming km dan ortiq. Yirik dengiz portlari: Shanxay, Dalyan, Sinxuandao, Sindao, Guanchjou (Xuanpu bilan), Tyantszin (Singan bilan). XXRning ko'p shaharlari jahondagi yirik shaharlar havo yo'llari bilan bog'langan.

**Tashqi savdosi**

X. chetga ko'mir, choy, baliq, to'qimachilik xom ashyosi, shoyi mahsulotlari, traktor va avtomobil, volfram rudasi, elektron, to'qimachilik va mashinasozlik sanoati mahsulotlari chiqaradi. Chetdan mashina va jihozlar, murakkab hisoblash texnikasi, neft, g'alla, kimyoviy o'g'it, yog'och va boshqa oladi. Tashqi savdoda Yaponiya, AQSH, Germaniya, Rossiya, Pokiston bilan hamkorlik qiladi. Pul birligi — yuan.

**Tibbiy xizmati**

X.da 1978 yildan boshlab o'tkazila boshlagan iktisodiy islohotlar natijasida tibbiy xizmat ko'rsatish tarmog'ida ham tub o'zgarishlar yuz berdi.

Ilgari yopilgan tibbiyot o'quv yurtlari va tibbiy muassasalar qayta tiklandi va yangilari ochildi. 1999 y. mamlakatda 310 ming kasalxona va boshqa davolash maskanlari faoliyat ko'rsatdi. Kasalxonalardagi o'rinlar soni 2,91 mln., tibbiy xizmatchilar soni 4,42 mln., jumladan, shifokorlar soni 1,41 mln.dan oshdi. Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan sanitariyaepidemiologiya styalar soni 5907 dan, ulardagi xizmatchilar soni 220 mingdan, tibbiyot muassasalari soni 2724 va ulardagi xizmatchilar soni 73 ming kishidan oshdi. XXRda xalq tabobati man etilmagan. Aksincha, unga e'tibor kuchaytirilgan. Ushbu sohada maxsus o'quv maskanlari, shifoxonalar, dorixonalar mavjud. Ko'p xitoy shifokorlari o'z faoliyatlarini garb, xalq tabobat uslubi asosida olib boradilar. Barcha dorixonalarda xalq tabobati negizida yaratilgan doridarmonlar sotiladigan bo'limlar mavjud. Xalq tabobatiga doyr maxsus qo'llanma va adabiyotlar ham teztez nashr qilinib turadi.

Xalq maorifi, madaniyma'rifiy va ilmiy muassasalari. XXR tashkil topgunga (1949) qadar aholining 80% savodsiz bo'lgan. Xalq hokimiyati o'rnatilgandan so'ng maorif tizimida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Lekin "madaniy inqilob" yillarida maorif tizimi ham tanglikka uchradi. Uni amalga oshirish vaqgida deyarli barcha o'quv yurtlari yopildi, savodsizlikni tugatish bo'yicha ishlar to'xtatildi. Xalq maorifi tizimida 1985 yildan boshlangan islohotlar asosida mamlakatda 9 y.lik majburiy ta'lim joriy etildi. U boshlang'ich (o'qish muddati 5 y.) va o'rta umumiy ta'lim maktabidan iborat. O'z navbatida o'rta umumiy ta'lim maktabi 1 va 2 bosqichli bo'lib, ularda o'qish muddati 5 yoki 6 y. O'rta maxsus o'quv yurtlari va kasb-hunartexnika bilim yurtlari mavjud. Oliy o'quv yurtlarida 4,13 mln. talaba ta'lim oladi (1999). Yirik oliy o'quv yurtlari: Pekin universiteti, Nankin universiteti, Shanxaydagi Tunszi va Fudan universitetlari, Pekindagi "Sinxua" politexnika instituti, Pekin aviatsiya, mashinasozlik intlari, o'lka va muxtor rn markazlaridagi universitetlar va boshqa Yirik kutubxonalari: Pekin milliy kutubxonasi (4,5 mln. asar), Xitoy FA ning markaziy kutubxonasi (2,6 mln. asar), Nankin kutubxonasi (2,4 mln. asar), Shanxay kutubxonasi (7,1 mln. asar) va boshqa Muzeylari: Pekindagi saroy muzeyi, Xitoy muzeyi, Xitoy tarixiy muzeyi, Tyantszin tarix muzeyi, Shanxaydagi tibbiyot tarix muzeyi, Shanxay muzeyi, Pekindagi geol. muzeyi, o'lka va muxtor rnlardagi muzeylar va boshqa

mamlakatlari bilan bog'langan. Avtomobil yo'llari uz. 1,278 mln. kilometr. So'nggi yillarda tez yurar avtomobil yo'llari qurish rivojlangan. Ularning uz. 8733 km. Ichki suv yo'llarining uz. 150 ming km dan ortiq. Yirik dengiz portlari: Shanxay, Dalyan, Sinxuandao, Sindao, Guanchjou (Xuanpu bilan), Tyantszin (Singan bilan). XXRning ko'p shaharlari jahondagi yirik shaharlar havo yo'llari bilan bog'langan.

**Tashqi savdosi**

X. chetga ko'mir, choy, baliq, to'qimachilik xom ashyosi, shoyi mahsulotlari, transp va avtomobil, volfram rudasi, elektron, to'qimachilik va mashinasozlik sanoati mahsulotlari chiqaradi. Chetdan mashina va jihozlar, murakkab hisoblash texnikasi, neft, g'alla, kimyoviy o'g'it, yog'och va boshqa oladi. Tashqi savdoda Yaponiya, AQSH, Germaniya, Rossiya, Pokiston bilan hamkorlik qiladi. Pul birligi — yuan.

**Tibbiy xizmati**

X.da 1978 yildan boshlab o'tkazila boshlagan iktisodiy islohotlar natijasida tibbiy xizmat ko'rsatish tarmog'ida ham tub o'zgarishlar yuz berdi.

Ilgari yopilgan tibbiyot o'quv yurtlari va tibbiy muassasalar qayta tiklandi va yangilari ochildi. 1999 y. mamlakatda 310 ming kasalxona va boshqa davolash maskanlari faoliyat ko'rsatdi. Kasalxonalardagi o'rinlar soni 2,91 mln., tibbiy xizmatchilar soni 4,42 mln., jumladan, shifokorlar soni 1,41 mln.dan oshdi. Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan sanitariyaepidemiologiya styalar soni 5907 dan, ulardagi xizmatchilar soni 220 mingdan, tibbiyot muassasalari soni 2724 va ulardagi xizmatchilar soni 73 ming kishidan oshdi. XXRda xalq tabobati man etilmagan. Aksincha, unga e'tibor kuchaytirilgan. Ushbu sohada maxsus o'quv maskanlari, shifoxonalar, dorixonalar mavjud. Ko'p xitoy shifokorlari o'z faoliyatlarini garb, xalq tabobat uslubi asosida olib boradilar. Barcha dorixonalarda xalq tabobati negizida yaratilgan doridarmonlar sotiladigan bo'limlar mavjud. Xalq tabobatiga doyr maxsus qo'llanma va adabiyotlar ham teztez nashr qilinib turadi.

Xalq maorifi, madaniyma'rifiy va ilmiy muassasalari. XXR tashkil topgunga (1949) qadar aholining 80% savodsiz bo'lgan. Xalq hokimiyati o'rnatilgandan so'ng maorif tizimida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Lekin "madaniy inqilob" yillarida maorif tizimi ham tanglikka uchradi. Uni amalga oshirish vaqgida deyarli barcha o'quv yurtlari yopildi, savodsizlikni tugatish bo'yicha ishlar to'xtatildi. Xalq maorifi tizimida 1985 yildan boshlangan islohotlar asosida mamlakatda 9 y.lik majburiy ta'lim joriy etildi. U boshlang'ich (o'qish muddati 5 y.) va o'rta umumiy ta'lim maktabidan iborat. O'z navbatida o'rta umumiy ta'lim maktabi 1 va 2 bosqichli bo'lib, ularda o'qish muddati 5 yoki 6 y. O'rta maxsus o'quv yurtlari va kasb-hunartexnika bilim yurtlari mavjud. Oliy o'quv yurtlarida 4,13 mln. talaba ta'lim oladi (1999). Yirik oliy o'quv yurtlari: Pekin universiteti, Nankin universiteti, Shanxaydagi Tunszi va Fudan universitetlari, Pekindagi "Sinxua" politexnika instituti, Pekin aviatsiya, mashinasozlik intlari, o'lka va muxtor rn markazlaridagi universitetlar va boshqa Yirik kutubxonalari: Pekin milliy kutubxonasi (4,5 mln. asar), Xitoy FA ning markaziy kutubxonasi (2,6 mln. asar), Nankin kutubxonasi (2,4 mln. asar), Shanxay kutubxonasi (7,1 mln. asar) va boshqa Muzeylari: Pekindagi saroy muzeyi, Xitoy muzeyi, Xitoy tarixiy muzeyi, Tyantszin tarix muzeyi, Shanxaydagi tibbiyot tarix muzeyi, Shanxay muzeyi, Pekindagi geol. muzeyi, o'lka va muxtor rnlardagi muzeylar va boshqa.

dunyoviy mavzudagi relyef hamda yozuvlar, odam, uy hayvonlari tasvirlangan sopol idishlar, oltin va kumush bilan bezatilgan jez buyumlar topilgan.
4-a.dan budda g'or ibodatxonalari haykal va devoriy rasmlar bilan bezatildi (Yungan, Lunmin, Mayszishan). Bu davrda rassom Gu Kaychji va xattot Van Sichji ijod qildilar. Tan (618907) va Sun (9601270) sulolasi davrida X. san'atining barcha turi ulkan yutuklarga erishdi. Bu davrda xalq hayotini haqqoniy aks ettiruvchi monumental rangtasvir paydo bo'ldi; rassomlikning shoyi matoga tush yoki bo'yoq bilan rayem solish turi shakllandi. U Daotszi, Van Vey, Yan Liben, Chjou Fan, Xan Gan va boshqa Tan davrining mashhur rassomlari bo'lgan. Amaliy bezak san'ati rivojlandi. Szindechjen chinni manufakturasida tayyorlangan mahsulotlar chet elga chiqarildi va jahonga mashhur bo'ldi. 16-a.dan badiiy kashtado'zlik va to'quvchilik rivojlandi. 19-a. 2-yarmida X.ning yarim mustamlakaga aylanishi ijtimoiy va madaniy hayotda qaramaqarshiliklar vujudga keltirdi, tasviriy san'atda turg'unlik ko'zga tashlandi. Shu davrda Yevropa san'ati ta'sirida moybo'yoq rassomligi paydo bo'ldi. 19-a. oxiridan rassomlar milliy klassikani ijodiy rivojlantirish yoki uni Yevropa uslubi yutuqlari bilan uyg'unlashtirishga intildilar. 20-a.ning 20—30-yillarida yog'och gravyurasi paydo bo'ldi. XXR tashkil bo'lgach (1949), Xitoy tasviriy san'ati jadal sur'atda rivojlana boshladi. Bu davrda Szyan Yan, Xuan Chjou, Ye Syanyuy, Yan Chjiguan va boshqa samarali ijod qildilar. "Madaniy inqilob" yillari X. rassomligi inqirozi davri bo'ldi. 1976 yildan so'ng qayta tiklana boshladi. Rassomlar o'z faoliyatlarini takomillashtirish yo'llarini qidira boshladilar. X.da Si Bayshi, Syuy Beyxun, Pan Tyanshou, Li Kuchat, Lyu Xaysu, Guan Shanyue va boshqa rassomlar mashhur. Zamonaviy tasviriy san'atida turli oqim va yo'nalishlar mavjud.

√ **Musiqasi**

X. musiqa madaniyati jahonning eng qad. musiqa madaniyatlaridan biri. Uning manbai mil. av. 2ming yillikdayoq muayyan darajada rivojlangan qad. qo'shiq va raqslarga borib taqaladi. "Shitszin" ("Qo'shiqlar kitobi", mil. av 11—6-a.lar) da 3000 xalq qo'shig'i, marosim madhiyalari to'plangan bo'lib, xalq qo'shiq san'atining muhim yodgorligidir. Xitoy xalq musiqasi bir ovozli bo'lib pentatonikaga asoslangan (mil. av. 7-a.da shakllangan). Keyinchalik 7 va 12 ovozli sistema paydo bo'ldi. Asosiy musiqa cholg'ulari (an'anaviy xitoy orkestri, odatda, 100 ga yaqin cholg'udan tashkil topadi): torli — se, sin, pipa, erxu, sixu, banxu; puflama — syao, paysyao, di, sona, shen; urma — gong, qo'ng'iroqcha, baraban, tarelkalar. Nota yozuvidagi (iyeroglif tizimi) birinchi professional asar — "Yulantsu" ("Tanho orxideya") pyesasidir (muallifi Syu Min, 6-a.). 8-a.da balet san'ati rivojlana boshladi. 12—13-a.larda dramatik dialog, orkestr jo'rligida kuylash, pantomima va raqsni o'zida mujassamlashtirgan xitoy operasi shakllandi. 17-a.ning o'rtalaridan Sharqiy X.da orkestr musiqasi rivojlandi. 19-a. bilan 20a oralig'ida Yevropa musiqasi ta'siri sezildi. 1927 y. konservatoriya ochildi. X. musiqasiga boshqa mamlakatlar musiqa san'ati yutukdarini olib kirishga intiluvchi "Yangi xitoy musiqasi" deb nomlangan ilg'or musiqa harakati paydo bo'ldi. Kompozitorlar Ne Er (1912 35; ommaviy vatanparvarlik qo'shiqlar muallifi), Si Sinxay (1905 — 45), Xuan Szi (1904—38), Chjanshu (1908—38) yangi musiqa asoschilaridir. 1953 y. X. kompozitorlar

uyushmasi tuzilgan. Pekin, Shanxay, Shenyan, Chendu, Tyantszin, Sian, Guanchjou sh.larida konservatoriyalar ishlaydi. X.da dirijyorlar Li Demun, Xuan Itszyun, Yan Lyankun, Xan Chjunsze, Chjen Syaoin, kompozitorlar Li Xuanchji, Lyu Chji, Syuy Sisyan, Syuy Vey, Chju Szyaner, Chjan Juy, Chjen Syufen, ijrochisolistlar Lu Chunlin, Lyu Dexay, Van Gotun, Shen Chjungo, vokalchilar Chjan Syuan, Vey Sisyan, Xu Sunxua, Van Kun, Li Guilar mashhur. So'nggi chorak asr davomida musiqa san'atida katta yuksalish yuz berdi. Ayniqsa, zamonaviy estrada janri tez rivojlandi. Yoshlar o'rtasida g'arb musiqasiga bo'lgan intilishning kuchayishi har xil yoshlar ansambllari tashkil topishiga olib keldi. Yevropa musiqa ohanglari bilan milliy musiqa ohanglarining qo'shilib ketishi kuzatildi. Musiqa ijro etishda zamonaviy musiqa cholg'ularidan foydalanish keng tarqaddi.

Teatr sarchashmalari xalqning qo'shiqraqs ijodi, turli marosim va o'yinlar bilan bog'liq tomoshalardan boshlanadi. Xandavri (mil. av. 3-a. — mil. 3-a.)da shaharlar va hunarmandchilikning rivoji teatr san'ati taraqqiyotiga ta'sir etdi. Tan davri (7—10-a.lar)da buddizm xitoy adabiyoti va san'atiga, xususan, raqs san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. 8-a. o'rtalarida imperator Syuantszun saroyida "Nokzor" ("Liyuan") teatr maktabi tashkil qilindi. 10—12-a.larda professional aktyorlar truppalari vujudga keldi. 13— 14-a.larda teatr san'ati takomillashdi. 17—19-a.larda muayyan xudud bilan bog'langan mahalliy teatr janrlari (banszi, sintsyan, yuetszyuy va boshqalar) paydo bo'ldi. 19-a. o'rtalarida mahalliy teatrlar negizida teatrning yangi shakli — Pekin musiqali dramasi shakllandi; u keyinchalik xitoy umummilliy klassik musikali dramasiga aylandi. 20-a. boshlarida zamonaviy drama teatri shakllandi (asosan, Yevropa drama san'ati ta'sirida). 1907 yilda birinchi drama truppasi — "Ko'klamgi majnuntol" ("Chunlyushe") tashkil qilindi. O'sha yili "Kuklam quyoshi" ("Chunyanshe") professional teatri ham tashkil topdi. 1927 y. Shanxayda ilg'or teatr arboblari, dramaturg va aktyorlar "Janubiy jamiyat" ("Nantoshe")ga birlashdilar. 1930—40 yillardagi yirik dramaturglar: Sao Yuy, Go Mojo, Xun Shen, Tyan Xan, Ouyan Yuysyan, Sya Yan va boshqa

1930 yilda Sud teatr arboblari ligasi tuzildi. 30ylarda zamonaviy drama teatr saxnalarida rus va G'arbiy Yevropa dramaturglarining pyesalari qo'yildi (N.V.Gogol, A. N. Ostrovskiy, M. Gorkiy, G. Ibsen va boshqalarning pyesalari). XXR tashkil etilgach (1949), teatr san'atida islohot o'tkazildi, klassik dramalar qayta ko'rib chiqildi. 1952 yilda 1Umumxitoy teatr va drama ko'rigida islohotga yakun yasaldi. 1963—64 yillarda teatrda inqilob o'tkazish, klassik pyesalarni "zamonaviy inqilobiy pyesalar" bilan almashtirish masalasi kun tartibiga qo'yildi, natijada professional jamoalar keskin kamayib ketdi. "Madaniy inkilob" davri teatr san'ati uchun ham tushkunlik davri bo'ldi. 1976 yildan so'ng teatr taraqqiyoti yangi bosqichga o'tdi. O'z asarlarida xayotni real aks ettiruvchi yosh iste'dodli dramaturglar yetishdi. Zamonaviy va tarixiy mavzularda ko'plab pyesalar yaratildi.

**Kinosi**

X.da birinchi film 1913 y. yaratilgan ("Soxta erxotinlar"). 1920—30-yillarda progressiv yo'nalishdagi filmlar ishlab chikarildi ("Baliqchi qo'shig'i", "Yo'l", "Chorraha" va boshqalar). 1940y.larda X. kinematografchilari ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan filmlarni suratga oldilar ("Sungari daryosida", "Bahorgi suvlar sharqqa

oqadi", "Sakkiz ming Ji, oy va bulutga yo'l" va boshqalar). 1950 y. ilgarida tuzilgan Yanan kinoguruhi ozod etilgan hududlarda "Yanan va Sarmiya", "Doktor Norman Betyun", "Nannivan" kabi hujjatli filmlar yaratdilar. 1946 y. X. shim.sharqining ozod etilgan rnlarida Dunbey (Shim.sharq) studiyasi (keyinchalik Chanchun) tashkil etildi. "Xitoy kizlari" (rej.lar Lin Szifen va Chjay Syan), "Po'lat askar" (rej. Chen In), "Oq sochli qiz" (rej.lar Van Bin va Chjan Shuyxua), "Partiya kizi" (rej. Lin Nun), "Tinchlik yo'lida" (rej. Xuan Szolin) filmlari 1950-yillardagi eng yaxshi filmlardir. 1950 y. Pekin shahrida kinematografiya instituti tashkil etilgan. 1960-yillarning o'rtalaridan filmlar i.ch. kamaydi. 1967—69 yillarda deyarli barcha studiyalar o'z faoliyatlarini to'xtatdi, faqat bir nechtagina hujjatli film chiqarildi. 1976 yildan keyin kino i.ch. astasekin tiklana boshladi. 1980-yillarda qishloq hayoti mavzuidagi "Yuelyan qishlog'idagi qahqaxa", "Syuy Mao va uning kizlari", "Qishloqqa muhabbat" va boshqa filmlar yaratildi. "Sian hodisasi", "Nanchan qo'zg'oloni" filmlarida inqilob tarixidan muhim lavhalar aks ettirildi. "Qon har doim qaynoq", "Ko'prik ostida" filmlari hozirgi zamon yoshlari, ularning muammolariga bag'ishlandi. Shuningdek, Lu Sin, Mao Dun, Lao She asarlari asosida ham filmlar yaratildi. "Bulutlar ortidagi tog'lar qissasi", "O'rtacha yosh", "Yilqichi" kabi filmlarda xitoy xalqining ma'naviy go'zalligi va mehnatsevarligi haqida hikoya qilinadi. X.da badiiy hamda hujjatli filmlar bilan bir qatorda multiplikatsion va ilmiyommabop filmlar ham ishlab chiqariladi.

**O'zbekiston — Xitoy Xalq Respublikasi munosabatlari**

Rasmiy nomi **Xitoy Xalq Respublikasi**. Poytaxti — Pekin shahri. BMT a'zosi. Xitoy G'arbiy Osiyoda joylashgan bo'lib, maydoni 9,6 mln. $km^2$ ni tashkil etadi. Osiyodagi yirik davlat hisoblanadi, jahonda esa maydoni jihatidan Kanada va Rossiyadan keyin 3-o'rinda turadi. Xitoy quruqlikda 14 davlat bilan chegaradosh,

ular: Afg'oniston, Butan, Myanma(Birma), Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Laos, Mo'g'uliston, Nepal, Pokiston (talash hudud bo'lgan Kashmir), KXDR, Rossiya, Tojikiston va Vyetnam. Chegaralarning umumiy uzunligi 22 117 km. Dengiz bo'ylab esa Shimoliy Koreyadan Vyetnamgacha, G'arbiy Xitoy dengizi, Koreya ko'rfazi, Sariq dengiz va Janubiy Xitoy dengizi, Tayvan oroli bilan Tayvan bo'g'ozi orqali 14 500 kilometr uzunlikda tutashgan. Xitoyni 1949-yildan Kommunistlar partiyasi boshqarib keladi. Xitoy faqat bir partiyali mamlakat hisoblanadi.

**Geografiyasi**

*Asosiy maqola: Xitoy tabiati.*

Bambukzorlar

Xitoyda bambukning 500 ga yaqin turlari mavjud, o'rmonlarining 3 foizi bambuklardan tashkil topgan. Qalin qamishzorlarni Xitoyning 18 provinsiyasida uchratish mumkin. Bambuklar asosan hayvonlarga ozuqa bo'ladi, shuningdek, sanoat korxonalarida ham ishlatiladi.

Xuanxe (Sariq daryo)

Xitoydagi ikkinchi buyuk daryo, uzunligi 5464 km. Xuanxe yoki Sariq daryo o'ta tezlik bilan oqadi. Bu daryoda 1642 yilda 300 ming kishi oqib halok bo'lgan

Lushan tog'lari Xitoy tamaddunining o'chog'i sanaladi. Maydoni 5 ming kvadrat kilometrga teng bu tog'lar mamlakat janubi, Tszyansi provinsiyasining Intan shahri yaqinida joylashgan. SHimolda Xitoyning eng uzun daryosi — Yantszi bilan chegaradosh. Janub tomondan mamlakatning eng katta chuchuk suvli daryosi — Poyaku suvlari bilan yuviladi. Lushan tog'lari 2000 yillik tarixga ega bo'lib, ular ilk bora xitoy solnomalarida tilga olingan. Qadimda bu erda sehr-jodu bilan shug'ullanishgan va shu bois Lushan tog'lari xudosizlar manzili xisoblangan. Daosizm va buddizm oqimlari vujudga kelgach, oqim asoschilari bu erga ilk maktab va akademiyalarni qura boshlagan. Qurilmalarning ayrimlari shu davrga qadar saqlanib qolgan. Qo'riqxona necha yuz yillardan buyon o'z go'zalligi bilan butun dunyoni o'ziga maftun qilib keladi. Uni madh etuvchi 4 mingdan ziyod she'r va dostonlar bitilgan.1996 yildan YUNYeSKOning jahon meroslarini saqlash qo'mitasi tomonidan unga quyidagicha baho berilgan: "Lushan tog'larining dunyoviy merosi shundaki, u xitoy millatining ma'naviy-madaniy qadryatlari bilan bevosita bog'liq. Xitoy xalqining qadriyatlari tabiat bilan uyg'unlashib ketganday go'yo. U yirik madaniy manzarani aks etdiradi. 2007yili Lushan tog'i Milliy bog' sifatida tan olinib, jahon meroslarining ro'yxatiga kiritilgan. 1998 yilda esa geologik park sifatida YUNYeSKO xalqaro tarmog'iga kiritilgan. Bu tarmoqqa 28 geoparklar kiritilgan bo'lib, ularning 7 tasi Xitoyda joylashgan.

**Itisodiyoti**

Xitoy Xalq Respublikasi aholisining soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. 2009 yil ma'lumotiga ko'ra, Xitoy Xalq Respublikasi aholisi 1,329 mlrd kishini (Syangan MAR va Tayvan provinsiyasi, Aomen rayonidan tashqari) tashkil etdi. U hozirda dunyo aholisining 21 % ni tashkil etmoqda. Xitoy aholisining o'rtacha zichligi 1 kv.km. ga 137 kishini tashkil etadi. Xitoy aholisi uning hududi bo'ylab bir tekisda joylashmagan bo'lib, Sharqiy Xitoyning dengiz oldi rayonlarida aholining zichligi 1 kv.km. ga 410 kishidan ortiq aholi to'g'ri kelsa, Markaziy Xitoyda aholining zichligi 1 kv.km. ga 200 kishidan ortiq to'g'ri kelsa, g'arbiy Xitoyning tog'li hududlarida bu ko'rsatkich 1 kv.km. ga 20 kishidan ham kam kishi to'g'ri keladi.

**Dini**

Xitoyning an'anaviy dini konfutsiylik, ko'pchilik daosizm va buddizm diniga sig'inishadi. Xitoyliklar orasida islom va xristian dinlariga ham e'tiqod qiluvchilari bor. Xuey, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, o'zbek, tojik, dunsyan, salar va baoan xalqlari musulmonlar hisoblanadi. Tibetliklar, mo'g'ullar, tai va yugurlar lamaizm diniga e'tiqod qilishadi. Vetveylar buddizmga e'tiqod kilishadi, myao va yaolar xristian diniga e'tiqod qilishadi, ko'pchilik daurlar, orochonlar va evenklar shamanizmga e'tiqod qilishadi.

## Atirgul

**Atirgul** (*Rosa*) — Ra'nodoshlar turkumining xushmanzara o'simlik sifatida ekiladigan bir qancha turiga xalq tomonidan qo'yilgan umumiy nom. Bu turkumning yovvoyi holda o'sadigan turlari xalqda ra'no, na'matak, qirq og'ayni va itburun

nomlari bilan ma'lum. Osiyo, Yevropa, Amerika mamlakatlarida keng tarqalgan. Atirgulning Yer yuzida 250 — ZOYU turi, 25 mingdan ortiq navi bor. O'zbekistonda 19 turi, 600 dan ortiq navi o'stiriladi. Bu navlar gulining katta-kichikligi, rangi, bir poyada o'rnashishi, gullash davri, poyaning tikka yoki ilashib o'sishi kabi xususiyatlari bilan farq qiladi; fasl bo'yi uzluksiz yoki takroriy gullab turadigan va poyasi ilashib o'sadigan xillari ko'proq ekiladi. Atirgul asosan, payvand qilib, parxishlab va qalamchasini ekib ko'paytiriladi. Payvand qilish yo'li bilan ko'paytirishda iyulda terilgan na'matak mevalaridan ajratib olingan urug'lar nam joyda saqlanib, noyab. oxiri — dekabr boshlarida ochiq dalaga sepiladi. Urug' unib chiqqanidan keyin kelasi yili aprel — avg. davomida 4 — 5 marta chopiq qilinadi, 8 — 10 marta sug'oriladi; avgust — sentabr oylarida Atirgul navi kurtaklari na'matakka payvand qilinadi. Kelasi yil erta bahorda payvandtag unga ulangan kurtak yuqorisidan kesib tashlanadi, payvandni bog'lagan chipta bo'shatiladi. Yoz davomida bachki shoxchalar 1 — 2 marta yulib tashlanadi, payvandi gul 15 — 20 sm o'sgach, uning bo'yiga cho'zilishiga va muddati-dan oldin gullashiga yo'l qo'yilmaydi. Buning uchun payvandi gulning uchi kesilib, vaqt-vaqti bilan yon shoxlari qisqartib turiladi. Atirgulni maxsus o'sishni faollashtiruvchi moddalar bilan ishlov berib qalamchalardan ham ko'paytirish mumkin. Atirgul ko'chatlari gulzorlarga kuzda va bahorda o'tqaziladi. Gulzor tuprog'i oldindan 30 — 35 sm chuqurlikda yumshatiladi, 1 m2 yerga 5–10 kg go'ng solinadi. Ko'chat 70 x 70 sm oraliqda o'tqaziladi. Ko'chat o'tqaziladigan chuqurning kengligi 30 — 40 sm, chuqurligi 40 — 50 sm qilinadi. Yoz davomida gulzor 20 martagacha sug'oriladi, 6 martagacha chopiladi, 2 marta (1m2 yerga 30 g selitra va 45 g ammoniy sulfat hisobidan) oziqlantiriladi, unshudring kasalligiga qarshi oltingugurt kukuni bilan dorilanad i, begona o'tlardan xoli tutiladi. Kech kuzda novdalar 1 — 2 kurtak qoldirib kesiladi. Ba'zi navlarning gulbarglaridan gulqand, murabbo qilinadi. O'zbekiston sharoitida Atirgul ochiq yerlarda apreldan noyabrning oxirigacha ochilib turadi, issikxonalarda yil bo'yi gul olish mumkin. Fransiya, Bolgariya, Turkiya, Italiya va boshqa mamlakatlarda ayrim turlari (damashq, fransuz va boshqalar) navlaridan qimmatbaho efir moyi olinadi.

Atirgul shaklidagi bezak, amaliy bezak san'atida keng qo'llanadi. Atirgul kashtachilik (jumladan, *do'ppi-do'zlik*)da milliy iroqi usuli bilan tikib, zargarlik (bilaguzuk yuziga), miskarlik (mis idishlar bezagi)da o'yib va boshqa usulda yaratiladi.

Atirgul navlari: 1—Montezuma; 2—Loriya Dey; 3—Marella; 4—Papa Meyyan[1].

## Ikkinchi jahon urushi

**Ikkinchi jahon urushi** (1939—45) — Olmoniya, Italiya va Yaponiyaning aybi bilan boshlangan jahon tarixidagi eng yirik urush. 20-a. fojiasi sifatida insoniyat tarixiga kirdi. Bu urushning kelib chiqishida asosiy rolni fashistlar Olmoniyasi o'ynadi. G'arb mamlakatlari (Angliya, Fransiya, AQSH) hukmron doiralarining "kelishtirish" siyosati Avstriyani (1939 y. mart), Chexoslovakiyani (1939 y. mart) Olmoniyaga qo'shib olinishiga va Myunxen bitimiga (1939 y. sent.) yo'l ochib berdi. I.j.u.ning

boshlanishida SSSRning ham aybi bor. 1939 y. 23 av-g .da SSSR bilan Olmoniya o'rtasida 10 yil muddatga hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu shartnomaning maxfiy qo'shimcha ahdnomasiga muvofiq, Olmoniya va SSSR Sharqiy Yevropada o'zlarining ta'sir doiralarini bo'lib oldilar. Har ikki mamlakat manfaatlari, avvalo, Polsha davlati bilan bog'liq edi. Sovet tomoni G'arbiy Ukraina, G'arbiy Belorussiya va Bessarabiya (1921 y.da boy berilgan) hududlarini qaytarib olmoqchi edi. Shuningdek, Olmoniya Boltiqbo'yi mamlakatlariga da'vo qilishdan qum voz kechdi.
Olmoniya bilan SSSR shartnomaga muvofik, Polilaga bir vaqtda qo'shin kiritishlari kerak edi. SSSR bu majburiyatni bajarmadi. 1939 y. 1 sent.da Olmoniyaning bir o'zi Polshaga bostirib kirdi va I.j.u.ni boshlab berdi. 3 sent.da Angliya va Fransiya Olmoniyaga qarshi urush e'lon qildi. SSSR 1939 i. 17 sent.da Polsha hudu-diga qo'shin kiritdi. Ko'p o'tmay Brestda olmon qo'mondoni T. Guderian va sovet generali S. M. Krivosheiy qo'mondonligida Polshaning bo'lib olinishi munosabati bilan qo'shma sovet-olmon paradi o'tkazildi.
SSSR I.j.u. bahonasida o'z hududlarini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlashga kirishdi. 1939 y. 30noyab.- 1940 y. martda SSSR bilan Finlyandiya o'rtasida harbiy to'qnashuv bo'ldi. Bundan SSSR manfaatdor edi. O'zaro urush natijasida SSSR Fin-lyandiyaning bir qator hududlarini (Leningradga chegaradosh yerlar) tortib olib, shim.g'arbiy chegaralarini mus-tahkamlab oldi. 1940 y. yozida SSSR ning rasmiy talabi bilan Ruminiya Bessarabiya va Shim. Bukovinani sovetlarga berishga majbur bo'ldi. 1940 y. iyunda Estoniya, Latviya va Litva sovet qo'shinlari tomonidan bosib olinib SSSRga kiritildi.
1940 y. apr.mayda nemisfashist qo'shinlari Daniya va Norvegiyani is-tilo qildi, 1940 y. 14 mayda — Niderlandiya, 28mayda — Belgiya taslim bo'ldi. Shundan so'ng fashist qo'shinlari Lyuksemburg va Gollandi-yani bosib olib, ular hududi orqali Fransiyaga (22 iyunda taslim bo'ldi) bostirib kirdi.
Sovet hukumati fashistlar Olmoni-yasini Yevropaning navbatdagi poytax-tini bosib olishi munosabati bilan tabriklab bordi. Internatsionalning di-rektivalarida fashizmga qarshi targ'ibotni to'xtatish haqidagi talablar paydo bo'ldi. 1940 y. 27 sent.da Olmoniya, Italiya va Yaponiya davlatlari Berlinda "uchlar ittifoqi"ni tuzish haqidagi shartnomaga imzo chekishdi. 1940 y. 28 okt.da fashistlar Italiyasi Gretsiyaga bostirib kirdi. 1940 y. 20—24 noyab.da Mojariston, Ruminiya va Slovakiya "uchlar ittifoqi"ga qo'shildi. 1941 y. martda esa Bolgariyaning monarxiyafashistik hukumati ham bu it-tifoq safiga ko'shilishga rozilik bildirdi.
1940 y. 18 dek.da Gitler SSSRga qarshi urush haqidagi 21sonli direkti-vasi "Barbarossa" rejasiga imzo chekdi. Fashistlar Olmoniyasi SSSRga qarshi urush boshlashdan oldin 1941 i. 6—17 apr.da Yugoslaviyani bosib oldi. Shu yilning 13 apr.da SSSR Yaponiya bilan betaraflik haqida kelishib oldi. 1941 y. 20 may — 1 iyunda fashistlar Olmoniyasi Krit o.ni egalladi. 18 iyunda esa hujum qilmaslik va hamkorlik haqida Olmoniya — Turkiya shartnomasi imzolandi.
1941 y. 22 iyunda fashistlar Olmoniyasi SSSRga qo'qqisdan hujum boshladi. Mojariston, Ruminiya, Finlyandiya, Italiya uning tomonida turib urushga kirdi. Shu kuni Angliya hukumati SSSRni Olmoniyaga qarshi urushda qo'llab-quvvatlashini

ma'lum qildi. 24 iyunda F. Ruzvelt AQSH xukumati SSSRga yordam berishga tayyor ekanligini bildirdi. SSSR Olmoniyaga qarshi urushning 1-davri (1941 y. iyun — 1942 y. noyab.) da, asosan, mudofaa harakteridagi janglar olib bordi.

Fashistlar Olmoniyasi va ittifoqchilarining tajovuzkorona harakatining tobora avj olishi jahon mamlakatlarini tashvishga soldi. 1941 y. yozida fashistlar Olmoniyasiga qarshi koalitsiya tuzish yo'lida dastlabki qadam qo'yildi. 1941 y. 12 iyulda SSSR va Buyuk Britaniya hukumatlari fashistlar Olmoniyasiga karshi urushda birgalikda harakat qilish haqida keli-shib olishdi. 1941 y. 24 sent.da Sh. ls Goll boshchiligida Ozod Fransiya (1942 y. iyuldan Kurashayotgan Fransiya) milliy qo'mitasi tuzilib, fashizmga karshi kurash boshladi. 1941 y. 5 dek.da nemisfashist qo'shinlarining Moskva jangitsagi mag'lubiyati Gitlerning "yashin tezligidagi urush" deb atalmish rejasini puchga chiqardi va natijada unga karshi urushga kirgan mamlakatlar soni ortdi.

1941 y. 7 dek.da Yaponiya PyorlHarborga hujum qilish bilan Buyuk Britaniya va AQShga qarshi urushni boshlab yubordi. 8 dek.da AQSH, Buyuk Britaniya va b. mamlakatlar Yaponiyaga, 11 dek.da esa Olmoniya va Italiya — AQSH ga, shu kuni AQSH fashistlar Olmoniyasi va Italiyaga qarshi urush e'lon qildi.

1941 y. oxiri — 1942 y. boshida Yaponiya Malayziya, Indoneziya, Filippin, Birmani bosib olib, Avstrali-yaga tavdid sola boshladi. Sharqiy frontda esa Olmonfashist qo'shinlari yozgi hujumlar natijasida Kavkaz bo'sag'asiga, Volga bo'yiga yetib keldi. 1942 y. 1 yanv.da Vashingtonda 26 davlat ishtirokida fashizmga karshi ku-rashuvchi davlatlarning harbiy itti-foqi tuzilib, Deklaratsiya qabul qilindi. 1942 y. 26 mayda SSSR va Buyuk Britaniya o'rtasida fashistlar Olmoniyasi va uning Yevropadagi tarafdorlariga qarshi urushda ittifoqchi bo'lish va urushdan keyin o'zaro yordam va hamkorlik qilish haqida shar-tnoma imzolandi. 1942 y. yoziga kelib antigitlerchi davlatlar soni yanada ortdi. 1 iyunda Meksika Olmoniya, Italiya va Yaponiyaga, 22 avg .da Braziliya Olmoniya va Italiyaga, 14 dek.da Efiopiya — Olmoniya, Italiya va Yaponiyaga qarshi urush e'lon qildi. Sharqda esa yapon militaristlari Gollandiya Hindistonini (12 mart), Filippin o.larini (9 iyun) qo'lga kiritdi.

Sovet qo'shinlari urushning 2-davri (1942 y. noyab.— 1943 y. oxiri) da Stalingrad jangi va Kursk jangilagm g'alabalari natijasida Olmoniya qo'-tpnlari qo'mondonligi strategik ta-shabbusnp butunlay qo'ldan chiqardi. SSSRda na b. hududlarda qarshilik ko'rsatish harakati avj oldi. 1943 y. 13 yanv.da Gitler urushda tashabbusni yana qo'lga olish maqsadida ommaviy safarbarlik e'lon qildi, lekin shunga qaramasdan 1943 y. may oyiga kelib Shim. Afrika (q. Shimoliy Afrika kom-paniyasi), Angliya—AQSH qo'shinlari tomonidan ozod qilindi. 1943 y. iyul-avg . oylarida Angliya—Amerika desant qo'shinlari Sitsiliya o.ga tushirildi. 1943 y. 25 iyulda Italiyada Mussolini osib o'ldiriddi va fashistlar rejimi tugatildi. 3 sent.da Italiya so'zsiz taslim bo'lganligi haqidagi hujjatga imzo chekdi.

1943 y.ga kelib fashizmga qarshi bo'lgan kuchlar tobora kuchayib bordi. 1943 y. 3 iyunda Jazoirda Fransiya milliy ozodlik qo'mitasi tuzildi. 12—13 iyulda Olmoniyada Ozod Olmoniya milliy qo'mitasi tashkil qilindi. Avg .— sent. oylarida Bolgariya vatanparvarlari frontining milliy qo'mitasi yuzaga keldi. 1943 y. sent.—okt. oylarida partizanlar bilan Kurashayotgan Fransiya harakati qismlari hamkorligida Korsika o.

ozod etildi. 1943 y. 16 yanv.da Iroq, 7 apr. da Boliviya Olmoniya, Italiya va Yaponiyaga qarshi urushga kirdi. 1943 y. 13 okt .da Italiya o'zining sobiq ittifoqchisi Olmoniyaga qarshi urush e'lon qildi. SSSR, Angliya va AQSH hukumatlari Italiyani "birgalikda uru-shayotgan mamlakat" deb tan oldi. 1943 y. 27 noyab.da Kolumbiya Olmoniyaga qarshi urushga qo'shildi. SSSR, AQSH va Angliya hukumat boshliqlari Tehron konferensiyasiyaa Angliya — Amerika qo'shinlarini Shim. Fransiyaga tushirish yo'li bilan Yevropada ikkinchi frontni ochish g'oyatda muhim ekanligini tan olishdi.

Fashizmga qarshi urushning 3-davri (1944 y. yanv.— 1945 y. may) boshlarida sovet qo'shinlari SSSR hududining deyarli hammasini ozod qildi. Ittifoqchilar 1944 y. 6 iyunga kelibgina Fransiyaga o'z qo'shinlarini tushirib, Yevropada ikkinchi frontni ochdilar va sent.da Fransiya qarshilik ko'rsatish harakati kuchlarining faol ishtirokida Fransiya hududining deyarli ham-masi fashist bosqinchilaridan ozod qilindi. 1944 y. 27 martda sovet qo'shinlari Ruminiya hududiga kirib bordi. 13 martda SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya hukumatlari Olmoniya tomonida turib urushayotgan Mojariston, Ruminiya, Bolgariya va Finlyandiyaga urushni to'xtatish haqida murojaat qildi. Natijada bu mamlakatlarda fashizmga qarshi bo'lgan kuchlar harakati faollashdi. 1944 y. mayda Ruminiyada fashizmga qarshi Birlashgan ishchilar fronti, Mojaristonda esa Vatanparvar kuchlar fronti, (2 dek.dan Milliy mustaqillik fronti) yuzaga keldi. 21 iyulda Polshada Milliy ozodlik qo'mitasi tashkil bo'ldi.

1944 y. 25 iyulda Gitler mamlakatda "uta ommaviy safarbarlik" e'lon qildi.

Gitlerning bu tadbiri ham yordam bermadi. U bosib olgan mamlakatlarda ozodlik harakatlari avj oldi. 1944 y.

I avg .—2 okt.da Varshavada, 19—25 avg . da Parijda, 23 avg .da Ruminiyada, 6—10 sent.da Bolgariyada fashist boskinchilariga qarshi qurolli qo'zg'olonlar bo'ldi. Natijada, jahon urushi maydonida kuchlar nisbati tubdan o'zgardi. Olmoniya ittifoqchilari o'rtasida parokandalik boshlandi. 1944 y. 26 yanv.da Liberiya, 24 avg .da Ruminiya, 15 sent.da Finlyandiya, 28 dek.da Mojariston, 1945 y. fev.da Peru, Urugvay, Venesuela, Turkiya, Misr, Livan, Su-riya, Saudiya Arabistoni, Paragvay, Ekvador, Chili kabi mamlakatlar, 27 martda esa Argentina fashistlar Olmoniyasi va Yaponiyaga qarshi urush e'lon qildilar.

Sovet qo'shinlari 1944 y. o'rtalarida Markaziy va Jan.sharqiy Yevropa mamlakatlarini vatanparvar kuchlar yordamida ozod qilishga kirishdi. Shu yili ittifoqchi qo'shinlar Shim. Italiyani va G'arbiy Olmoniyaning bir qator r-nlarini ozod qildi. 1945 y. 4—11 fev.da SSSR, AQSH va Angliya davlat rahbarlari ishtirokida bo'lgan Qrim (Yalta) konferensshsidz, Olmoniyani batamom tor-mor kilish rejalari, shuningdek, dunyoning urushdan keyingi siyosiy tuzilishi masalalari xususida kelishib olindi.

Amerika—Angliya kurolli kuchlari Tinch okeanidagi Marshall va Mariana o.larini (1944), Filippinni va Yaponiyaning Okinava o.ni (1945) egalladi. 1945 y. 25 apr.da sovet va Amerika kushinlari Elbada uchrashdi. 3 mayda Angliya qo'shinlari Birma qarshilik harakati kuchlari bilan hamkorlikda poytaxt — Rangunni ozod qildi. 1945 y. 2 mayda sovet qo'shinlari Berlinni ishg'ol qildi. A. Gitler o'zini o'ldirdi. 8 mayda Berlin yaqinidagi Karlsxorstda Olmoniya oliy qo'mondonligi vakillari

fashistlar Germa-niyasining 2-jahon urushida so'zsiz taslim bo'lganligi haqidagi hujjatga imzo chekdi. 9 mayda sovet qo'shinlari, chex qarshilik harakati kuchlari ishtirokida Chexoslovakiyaning poytaxti Pragani ozod qildi.
SSSR, AQSH va Angliya xukumatlari boshliklarining Berlin konferensiyasitsa, asosan, Olmoniya masalasi, uning keyingi taqdiri va taraqqiyot yo'li, uni demilitarizatsiyalash va de-mokratiyalash masalasi ko'rildi. Kon-ferensiyada SSSR hukumati Yaponiyaga qarshi ittifokchilar bilan birgalikda urushga kirishini yana bir bor ta'-kidladi. AQShning havo kuchlari harbiy zaruriyat yo'qligiga qaramay Yaponiyaning Xirosima (1945 y. 6 avg.) va Nagasaki (9 avg.) sh.lariga atom bom-balari tashladi. Buning natijasida har ikki shahar aholisidan 102 mingga yaqin kishi halok bo'ldi, 16 ming kishi bedarak ketdi, 61 ming kishi yarador va 324 ming kishi kuchli radiatsiya bilan zaharlandi.
1945 y. 8 avg.da SSSR olgan majburiyatiga binoan Yaponiyaga urush e'lon qildi va 9 avg.da unga qarshi harbiy harakatlarni boshladi. SSSR bilan birgalikda, 10 avg.da Mongoliya Xalq Respublikasi (MXR), 11 avg.da Xitoy xalq ozodlik armiyasi yapon bosqinchilariga qarshi urushga kirishdi.
Manjuriyadagi yapon qo'shinlari sovet armiyasi tomonidan tor-mor qilingach, Yaponiya 1945 y. 2 sent.da so'zsiz taslim bo'lganligi haqidagi hujjatga ko'l qo'ydi. Shu tariqa I. j. u.ga yakun yasaldi.
Nyurnberg sud jarayoni (1945 y. 20 noyab.— 1946 y. 1 okt.)da natsist harbiy jinoyatchilari ustidan xalqaro sud o'tkazilib, unda 20 kishi: G. Gering (u o'zini o'ldirdi), V. Keytel, E. Kaltenbrunner, I. Ribbentrop, G. Gess va b. adolatli jazolandi. Fashistik tashkilotlar: Natsional-sotsialistik partiya (natsistlar), Gestapo, SS, SD, butun insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatchi tashkilotlar deb e'lon qilindi. Nyurnbergda bo'lib o'tgan bu xalqaro sud I.j.u.ga so'nggi nuqtani qo'ydi.
I.j.u.ga 72 davlat jalb etildi. Urushda ishtirok qilgan mamlakatlarning 110 mln. aholisi unga safarbar etildi. Harbiy qarakatlar 40 davlat hu-dudida bo'lib o'tdi, barcha harajatlar 4 trillion dollarni tashkil etdi. Urush davomida 62 mln. kishi (shu jumladan 27 mln. SSSR fuqarosi) halok bo'ldi.
1941 y. 22 iyunda Olmoniya SSSRga hujum qilgach, SSSR tarkibida bo'lgan O'zbekiston xalqlari ham bu urush girdobiga majburan tortilgan edi. O'sha kuni mamlakatda harbiy holat joriy etildi.
Gitlerchilarning Sharqqa doir harbiy rejalarida SSSRni qisqa muddatli kompaniya jarayonida mag'lub qilish va urushni 1941 y. kuzida tamomlash mo'ljallangan edi. Yashin tezligida boshlangan urush sovet rahbariyatida sarosimani yuzaga keltirdi. 29 iyundagina Xalq Komissarlari Soveti (XKS) nomidan joylarga ko'rsatmalar yuboriddi. I. V. Stalin faqat 3 iyuldagina xalqqa murojaat bilan chikdi.
1941 y. 30 iyunda Davlat mudofaa qo'mitasi (DMQ) tuzildi. Uning raisi I. V. Stalin 8 avg.da SSSR Qurolli kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni lavo-zimini egalladi.
Urushning dastlabki kunlari mamlakatning barcha iqtisodiyma'naviy kuchlarini zudlik bilan mudofaa manfaatlariga bo'ysundirish, xalq xo'jaligini to'liq harbiy izga solish lozimligi xususida qarorlar, ko'rsatmalar qabul qilindi.
Urush davrining musibatlarini o'z boshidan kechirgan kishilarning xotiralaridan ma'lum bo'lishicha, odamlar o'sha vaqtda sovet rejimini himoya qilish zaruriyati

haqida kam o'ylar edilar. Xalqning aksariyat qismi mus-tabid tuzumni qoralar edi. Chunki, xa-lqning xotirasidan hali Turkiston Muxtoriyatinij qonga belanganligi, istitslolchilik harakatining zo'ravonlik bilan bostirilishi, diniy e'tiqod uchun ta'qib qilishlar esdan chiqmagandi. Jamoalashtirishning stalincha zo'ravonlik bilan amalga oshirilishi natijasida yuz bergan jinoyatlar xotiradan ko'tarilmagan edi. Mustabid tuzumning ommaviy qatag'onlaridan qolgan yaralar hali bitmagan edi. Birok., o'zbek xalqining fashizmga bo'lgan nafrati mustabid tuzum yetkazgan g'am-alamni orqa o'ringa surib qo'ydi va u dushmanga qarshi otlandi. Shuningdek, mustabid tuzumning "mafkura mashinasi" ham benuqson ishladi — u SSSR tarkibidagi barcha mustamlaka xalqlarni fashizmga qarshi kurashga safarbar qila oldi. O'zbek xalqining I.j.u.dagi ishtirokining axloqiy-ma'naviy jihatdan asosi shundaki, bu urushda o'zbek xalqi fashizmdan faqat SSSRnigina emas, eng avvalo, O'zbekistonni himoya qilishni, uni yana bir bosqinchidan saklab qolishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Sovet—olmon urushi boshlang'ich davrining eng murakkab vazifalaridan biri iqtisodiyotni harbiy izga solish edi. Bu mas'uliyatli vazifani SSSRning qariyb 40% aholisi istiqomat qiladigan, ko'mirning 63% qazib olinadigan, po'latning 50% ishlab chiqariladigan, donning 38% yetishtiriladigan, ayniqsa, ko'pgina mudofaa korxonalari joylashgan hududni fashistlar bosib olgan bir paytda hal qilish kerak edi. Front yaqinidagi hududlardan mamlakat ich-karisiga ko'chirilayotgan aholi, sano-at korxonalari, o'quv-yurtlari va b.ning ko'pchiligi O'zbekistonga yuborildi. Chunonchi, O'rta Osiyo va Qozo-g'istonga evakuatsiya qilingan 308 sa-noat korxonasining 104 tasi ("Len-tekstilmash", "Rostselmash", "Krasniy Aksay", Moskvadagi "Elektrokabel" va "Pod'yemnik", Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, "Krasniy put", Kiyev "Transsignal" z-dlari, Stalingrad kimyo kombinati va b.), 30 dan ortiq harbiy gospital, harbiy artilleriya (to'pchi) akademiya, bir necha harbiy bilim yurtlari ko'chib keldi.

Rossiya hududidan turli millatga mansub 200 ga yaqin yozuvchi va shoirlar (mas. A. Axmatova, A. Tolstoy, V. Yan, M. Shaginyan va b.) Toshkentga ko'chib kelib, shu yerda ijod qildilar. Rossiya, Ukraina va Belorussiyaning fashistlar bosib olgan hududlaridan 1 mln.dan ortiq kishi, jumladan 200 ming bola O'zbekistonga evakuatsiya qilinib, ularga 135 ming kv.m hajmda uy-joy ajratib berildi. Kupgina o'zbek oilalari ikkita va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalariga (jumladan, Sh. Shomahmudovlar oilasi — 14, H. Samadovlar oilasi — 12, M. Jo'rayeva va Ashurxo'jayevlar oilasi 8 tadan bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. 1943 y. oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloklarda esa 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olinib, ularga xaqiqiy insonparvarlik va mehr-shafqat namunasi ko'rsatildi. O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalari niqoyatda qisqa muddatda ishga tushirildi. 1941 y. dek.da evakuatsiya qilingan korxonalarning qariyb 50 tasi, 1942 y. 1 yanv.da esa barchasi qayta qurilib to'la quvvat bilan mahsulot bera boshladi. Bu harbiy korxonalarni ishga tushirishga shaharliklardan tashqari qariyb 500 ming kolxozchidehqonlar jalb qilindi. Korxonalarni harbiy izga o'tkazish harbiy kommunistik usulda amalga oshirildi: 1941 y. 26 iyundan boshlab mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish, katta yoshdagilar uchun xaftada 6 kunlik ish joriy etildi, ish vaqti 11 soatgacha uzaytirildi,

ta'-tilga chiqish bekor qilindi. Idora xizmatchilari, uy bekalari, o'quvchilar i.ch.ga jalb qilindi. Agar 1940 y.da sanoat ishchilari orasida xotin-qizlar salmog'i 34%ni tashkil qilgan bo'lsa, 1942 y.da bu ko'rsatkich 63,5% ga yetdi. Mehnat intizomini buzganlar uchun jazo choralari keskin qo'yildi. Korxonalardan o'zboshimchalik bilan ketib qolganlar 5 y.dan 8 y.gacha muddatga qamoqqa hukm qilindi. 1941 y.de-k.da O'zbekiston sanoat korxonalaridan 230 tasi (birgina Toshkentda 63 korxona) harbiy izga kuchirilib, front uchun qurol-yarog' i.ch.ga kirishdi.

O'zbekistonda harbiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoatning o'sishi va rivojlanishi bilan birga xom ashyo va yoqilg'i-energetika bazasini kengaytirish vazifasi ham keskin bo'lib turdi. Ayniqsa, rangli metallarga, neft va ko'mirga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. 1942 y.da Langar molibden koni zaminida molibden f-kasi barpo etildi. Qo'ytosh va Qoratepa rangli metallar konining quvvati keskin oshirildi. Olmaliqda mis va b. rangli metallarning boy konlari topildi. Angren ko'mir koni respublikaning birinchi ko'mir markaziga aylandi. 1942 y. boshlarida 1-Oqtepa va 2-Oqqovoq GESlari, shuningdek, Fa-rhod GES umumxalq hashari bilan bunyod etilishi respublikada front ehtiyojlari uchun ishlayotgan sanoat korxonalarini elektr energiyasi bilan ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

O'zbekistonda urush yillarida 280 ta yangi korxona barpo etildi. Respubli-kaning sanoat potensiali 1945 y.ga kelib 1940 y.dagiga nisbatan deyarli 2 barobar ko'paydi, neft kazib olish 4 barobardan ziyod, metall ishlash tarmoqlari mahsulotlari 4,8 barobar, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 barobar, ko'mir qazib chiqarish 30 barobardan kuproq, po'lat va prokat eritish 2 barobar, elektr energiyasi i.ch. 2,42 marta ortdi. Buning natijasida O'zbekiston urush yillarida front uchun 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo'q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, dala radiostansiyalari uchun 3 mln. radio lampa, 330 mingga parashyut, 18 ta harbiy-sanitariya va hammom kir yuvish poyezdi, 2200 ta Kuchma oshxona va kupgina harbiy anjomlar yetkazib berish imkoniga ega buldi. Respublika yengil sanoat komissarligi korxonalari 1941—45 y.lar mobaynida jangchilar uchun 7518,8 mingta gimnastyorka, 2636,7 mingta paxtali nimcha, 2861,5 mingta armiya etigi tayyorlab berdi.

I.j.u. yillarida fashizmga qarshi qulga qurol olib jang qilgan o'zbekistonlik jangchilarning umumiy tarkibidan 263000 dan ziyod kishi qalok bo'ldi, 132670 kishi bedarak yo'qoldi, 60452 vatandoshimiz urushdan nogiron bo'lib qaytdi. Shuningdek, un minglab o'zbekistonlik jangchilar asirlikda bo'ldi. Mustabid tuzum ular bilan "ochik,chasiga" gaplashdi. Demak, frontga safarbar qilinganlarning qar uchtasidan bittasi uyiga kaytmadi. Umuman, SSSR buyicha urush davrida fashistlar qo'lida 6,2 mln. kishi asirlikda bo'lgan. Urush oxiriga kelib ulardan 4 mln. kishi halok bo'lgan. Omon qolgan asirlar soni 1 mln.dan sal ko'proqedi. Ulardan 60% dan ko'prog'i GULAG qamokxonalariga tashlandi. Aybsiz sur-gun qilinib, sovet konslagerlariga jo'natilgan yoki otib tashlanganlar orasida o'zbekistonliklar ham oz emasdi. taxminan hisoblarga qaraganda, o'zbekistonlik harbiy asirlardan 15 mln-gdan ortig'i sovet konslagerlariga yuborilgan. I. j. u.dagi bu g'alaba millionlab begunoh kishilarning .

jumladan, O'zbekiston xalqining qoni, haddan ziyod mashaqqatli mehnati va uning buyuk insonparvarligi tufayli qo'lga kiritildi.
O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, 35 jildli Xotira ki-tobi tayyorlanib, nashr qilindi. Toshkentdagi Mustaqillik maydoni xiyobonida maxsus majmua qurildi (2000). 9 may — g'alaba kuni yurtimizda Xotira va Qadrlash kuni sifatida har yili nishonlanadigan bo'ldi[35].

**Qatnashchilar**

Ikkinchi jahon urushida 61 ta davlat qatnashgan (47 tasi akсihitler ittifoqining tarafida va 14 tasi O'q mamlakatlari tarafida). Ulardan ayrimlari faol harbiy harakatlarni olib borishardi, boshqalari o'z ittifoqdoshlariga oziq-ovqat yetkazib berardi, ko'pchilik esa urushda faqat nominal holda ishtirok ishtirok etardilar.
Aksihitler ittifoqiga quyidagilar kirardilar: SSSR (1941-yildan), AQSh (1941-yil, 7-dekabrdan), Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Polsha, Avstraliya, Kanada, Yugoslaviya, Niderlandlar, Norvegiya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Ittifoqi, Chexoslovakiya, Belgiya, Yunoniston, Efiopiya, Daniya, Braziliya, Meksika, Mo'g'uliston, Luksemburg, Nepal, Panama, Argentina, Chili, Kuba, Peru, Gvatemala, Kolumbiya, Kosta Rika, Dominika Respublikasi, Albaniya, Gonduras, Salvador, Gaiti, Paragvay, Ekvador, San Marino, Turkiya, Urugvay, Venesuela, Livan, Saudiya Arabistoni, Nikaragua, Liberiya, Boliviya. Urush davrida ularga fashist blokidan chiqqan bir necha davlat qo'shildi: Eron (1941-yildan), Iroq (1943-yildan), Italiya (1943-yildan), Ruminiya (1944-yildan), Bolgariya (1944-yildan), Mojariston (1945-yili), Finlandiya (1945-yili).
Boshqa tarafdan urushda O'q davlatlari: Olmoniya, Italiya (1943-yilgacha), Yaponiya, Finlandiya (1944-yilgacha), Bolgariya (1944-yilgacha), Ruminiya (1944-yilgacha), Mojariston(1945-yilgacha), Slovakiya, Tailand (Siam), Iroq (1941-yilgacha),Manchjou-Go, Xorvatiya, Serbiya. Bosib olingan mamlakatlar hududida fashist ittifoqiga qo'shilgan marionetkaviy davlatlar yaratilar edi: Vishi Fransiyasi, Salo respublikasi, Albaniya, Chernogoriya, Ichki Mo'g'uliston, Birma, Fillipinlar, Vyetnam, Kambodja, Laos. Shuningdek, Olmoniya va Yaponiya tarafida qarshilik ko'rsatayotgan tarafning fuqarolaridan yaratilgan ko'pgina kollaboratsion qo'shinlar jang qilardi: ROA, RONA, SSning xorijiy diviziyalari (rus, ukrain, eston, latish, dat, belgiyalik, fransuz, alban), "Ozod Hindiston". Shuningdek, O'q davlatlari qurolli kuchlari tarkibida rasman neytral qolayotgan davlatlarning ixtiyoriy kuchlari bor edi: Ispaniya (Havorang diviziya), Shvetsiya va Portugaliya.

**Hududlar**

Barcha harbiy harakatlarni 5ta harbiy harakatlar teatriga bo'lish mumkin

- G'arbiy Yevropa teatri: G'arbiy Olmoniya, Daniya, Norvegiya, Belgiya, Luksemburg, Niderlandlar, Fransiya, Buyuk Britaniya (aviabombardimonlar), Atlantika, AQSh va Kanadaning Atlantika qirg'og'idagi shaharlar (aviabombardimonlar).

SSSR (g'arbiy qismi), Polsha, Finlandiya,

- Sharqiy Yevropa teatri: Ruminiya, Mojariston, Bolgariya, Yugoslaviya
Shimoliy Norvegiya, Chexoslovakiya, Barensev dengizi, Boltiq dengizi, Qora
, Avstriya (sharqiy qismi), Sharqiy Olmoniya,
dengiz.
- O'rta Yer dengizi teatri: Yugoslaviya, Yunoniston, Albaniya, Italiya, O'rta Yer
dengizi orollari (Malta, Kipr va b.), Misr, Liviya, Fransiya Shimoliy
Afrikasi, Suriya, Livan, Iroq, Eron, O'rta Yer dengizi.
- Afrika teatri: Habashiston, Italiya Somalisi, Britaniya
Somalisi, Keniya, Sudan, Fransiya Shimoliy Afrikasi, Fransiya Ekvatorial
Afrikasi, Madagaskar.
- Tinch okeani teatri: Xitoy (sharqiy va shimoli-sharqiy qismi), Qoriya, Yaponiya,
Janubiy Saxalin, Kuril orollari, Aleut orollari, Mo'g'uliston, Gonkong, Fransiya
Hindixitoyi, Birma, Andaman orollari, Malayya, Singapur, Saravak, Gollandiya
Hindistoni, Sabax, Bruney, Yangi Gvineya, Papua, Sulaymon
orollari, Filippinlar, Avstraliya (aviabombardimonlar), Gavayi
orollari, Guam, Ueyk, Midusy, Marian orollari, Karolin orollari, Marshall
orollari, Gilbert orollari, Tinch okeanining ko'pgina mayda orollari, Tinch
okeanining kattagina qismi, Hind okeani.

**Urushning birinchi davri (sentabr 1939 — iyun 1941)**

1939-yil, 23-may kuni Hitler kabinetida yuqori lavozimli ofitserlar ishtirokida majlis bo'lib o'tadi. Bunda Polsha muammosi G'arb bilan ziddiyatga aylanishi mumkinligi qayd etiladi. Olmoniya tashqi siyosatining birinchi vazifasi sifatida Sharqqa qarab o'z hukmronlik doirasini yoyish, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishni kafolatlash va Sharq tomonidan tahdidni bartaraf etish qo'yiladi. Polsha qulay vaziyat tug'ilishi bilan bosib olinishi shart bo'ladi.

31-avgust kuni Olmoniya matbuoti „... payshanba kuni soat tahminan 20 larda Glayvitsdagi radiostansiya binosi polyaklar bilan bosib olindi." deya xabar beradi.

1-sentabr soat 4:45 da Danzigga do'stlik tashrifi bilan buyurgan „Shlezvig-Golshteyn" nemis o'quv kemasi Vesterplyattdagi Polsha harbiy tuzilmalariga qarata o'q ochadi. **Ikki jahon urushi boshlanadi.**[7]

1-sentabr kuni harbiylar formasini kiygan Hitler Reyxstagda nutq so'zladi. Polshaga bo'lgan bosqinni oqlash uchun Hitler Glayvitsdagi mojaroni sabab qiladi. Bunda u Polshaga ittifoqdosh bo'lgan Angliya va Fransiyaga bilan to'qnashuvga uchramaslik uchun iloji boricha „urush" atamasini ishlatmaslikka urinadi. U chiqargan buyruqda faqatgina Polsha zo'ravonligiga nisbatan ko'rilgan „faol himoya" haqida yozilgan edi.

Shu kunning o'zida Angliya va Fransiya urush e'lon qilish tahdidi ostida nemis qo'shinlarining Polsha hududidan zudlik bilan chiqarilishini talab qiladilar. Fashist Mussolini polyak muammosini tinchlik bilan hal etish uchun konferensiya chaqirishni taklif qiladi. Lekin Hitler buni rad etadi.[8].

1-sentabr kuni Sovet Ittifoqida umumhashar harbiy chaqiriq e'lon qilindi. Bunda chaqiriq yoshi 21 dan 19 yoshgacha, ayrim turkumlar uchun esa 18 yoshgacha tushiriladi. Ushbu qonun chiqarilishi bilan kuchga kiradi. Qisqa muddat ichida

armiyaning son jihatdan tarkibi 5 million kishiga yetadi, bu umumiy aholi sonining 3 % ini tashkil etadi.

1939-yil 1-sentabrda Olmoniya qurolli kuchlari Polshaga bostirib kiradilar. Jangda Olmoniya tarafida yana Slovakiya qo'shinlari ham ishtirok etadi.

3-sentabr soat 9 da Angliya, soat 12:20 da esa Fransiya hamda Avstraliya va Yangi Zelandiya Olmoniyaga qarshi urush e'lon qiladilar. Bir necha kun ichida ular qatoriga Kanada, Nyufaundlend, Janubiy Afrika Ittifoqi va Nepal qo'shiladi. Ikkinchi jahon urushi shu tariqa boshlanadi.

3-sentabr kuni Versal shartnomasiga ko'ra Polsha tarkibiga o'tgan Sharqiy Prussiya shahri Brombergda ushbu urush tarixidagi millat ko'rsatkichi bo'yicha eng dastlabki ommaviy qirg'in boshlanadi. Aholining 3/4 qismi nemislardan iborat bo'lgan shaharda 1100 kishi polyaklar tomonidan qirg'in qilinadi. Bu mojaro ushbu oy ichida davom etgan vayronagalarchiliklardan eng so'nggisi edi.[5]

Nemis qo'shinlarining hujumi reja asosida borayotgan edi. Polsha kuchlari nemis tanklari va luftvaffesiga nisbatan juda kuchsiz edi.

5-sentabr kuni AQSh va Yaponiya Yevropa urushida o'zining betaraf ekanligini e'lon qiladilar. [20]

G'arbiy frontda ittifoqdosh ingliz-fransuz qo'shinlari hech qanday faol harakat olib bormaydilar (G'alati urush maqolasini qarang). Dengizda esa urush jadal tus oladi: 3-sentabrni o'zidayoq nemis U-30 suvosti kemasi hech qanday ogohlantirishlarsiz ingliz yo'lovchi layneri "Atenya"ga hujum qiladi.

Polshada janglarning birinchi haftasida nemis qo'shinlari bir necha joydan polyaklar frontini kesib o'tib, Mazoviyaning bir qismini, g'arbiy Prussiyani, Yuqori-Silez sanoat tumanini hamda g'arbiy Galitsiyani egallaydilar. 9-sentabrga kelib nemislar butun front bo'ylab Polsha qarshiligini yengadilar va Varshavaga yetadilar.

10-sentabrda polyak bosh qo'mondoni Edward Rydz-Śmigły janubi-sharqiy Polsha tomon ortga chekinish haqida qaror beradi, ammo uning qo'shinlarining asosiy qismi Visla ortiga o'tishga ulgurmay, harbiy o'ramaga tushadi. Sentabr o'rtalariga kelib, g'arbdan madad olmagani sababli, Polsha qurolli kuchlari yagona birlik sifatida mavjudligini to'xtatadilar; faqatgina joylardagi qashi kuch markazlari saqlanib qoladi.

16-sentabrda Polshaning SSSRdagi elchisiga Polyak davlati endi mavjud emasligi sababli, Sovet Ittifoqi G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiya aholisini himoyasi ostiga olishi kerakligi haqida aytiladi. 17-sentabrda Hitler bilan kelishtirib olingan rejaga asosan ertalab soat 6 da sovet qo'shinlari ikki harbiy guruh tarkibida davlat chegarasini kesib o'tadilar. Vilno, Grodno va Belostokka hujum qilayotgan belorus frontini general Kovalyov boshqaradi. Ukraina frontini esa Lemberg (Lvov)ga bostirib kirayotgan marshal Timoshenkoboshqarar edi. O'sha kunning kechasi Polsha hukumati va bosh qo'mondonlik Ruminiyaga ko'chib o'tadi.

Sovet hukumati: „Polshaning sharqiy tumanlarida yashovchi ukrain va belorus xalqini nemis agressiyasidan himoya qilish uchun qo'shinlar yuborishi", — haqida e'lon qiladi. 19-sentabr kuni Qizil Armiya Vilnoni, 20-sentabrda Grodno va Lvovni egallaydi, 23-sentabrda Bug daryosiga yetib boradi.

SSSRning bostirib kirishidan oldin. Gudernaning [illegible]
Sharqiy Prussiya tarafidan kelib, Brestni ishg'ol qiladi. General Plisovskiy
boshchiligidagi polyak qurolli kuchlari yana bir necha kun davomida Brest
qal'asini himoya qiladilar. 17-sentabrga o'tar kechasi uning himoyachilari kelishilgan
ravishda fortlarni tark etib, Bug daryosi ortiga o'tadilar.
28-sentabr kuni nemislar Varshavani, 30-sentabrda Modlinni, 2-
oktabrda Xelni egallaydilar. 6-oktabr kuni Polsha armiyasining so'nggi kuchlari
kapitulyatsiya qiladi. Avvalgi Polsha hududida nemis va sovet qurolli kuchlari
o'rtasida chegara chizig'i aniqlaniladi.
G'arbiy Polsha yerlarining bir qismi Uchinchi reyx tarkibiga o'tadi. Bu yerlar
„olmonlashtirish"ga uchrashi kerak bo'ladi. Polyaklar va yahudiylar Polshaning
markaziy tumanlariga surgun qilinadilar. Qolgan hududlarda general-gubernatorlik
tashkil etilib, u yerda polyak xalqiga nisbatan ommaviy qirg'inlar
o'tkaziladi. Gettoga yig'ilgan yahudiylar og'ir holatga tushadi.
SSSRga o'tgan hududlar Ukraina SSRi, Belorussiya SSRi va Litva tarkibiga
kiritiladi. Bu yerda sovet hukumati o'rnatilib, sotsialistik o'zgartirishlar amalga
oshiriladi (sanoatning milliylashtirilishi, jamoaviy dehqonchilik), sobiq „hukmron
sinfi" — burjuaziya vakillari, pomeshchiklar, badavlat dehqonlar, ayrim ziyolilar
surgun qilinib, repressiyalarga uchraydi.
1939-yil 6-oktabrda Hitler kelishmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida barcha
yirik mamlakatlar ishtirokida tinchlik konferensiyasini o'tkazish taklifi bilan chiqadi.
Fransiya va Buyuk Britaniya nemislar zudlik bilan o'z askarlarini Polsha va
Chexiyadan chiqarib, mustaqilligini qaytarishsagina bu konferensiyada ishtirok etish
uchun rozilik berishi haqida aytadilar. Olmoniya bu talablarni rad qiladi va oqibatda
tinchlik konferensiyasi amalga oshmaydi. Nemis qo'mondonchiligi G'arbga qarab
yurishga tayyorlana boshlaydi.

**Atlantika uchun kurash**

Tinchlik konferensiyasida qatnashishdan bosh tortgan Buyuk
Britaniya va Fransiya 1939-yil sentabridan to 1940-yilning apreligacha passiv urushni
qo'llab, hech qanday hujum harakatlarini amalga oshirmaydilar. Faol janglar
faqatgina dengizda bo'lib o'tadi. Urushgacha bo'lgan paytda nemis
qo'mondonligi Atlantika okeaniga 2 ta zirhli katta harbiy kema va 18 ta suvosti
kemalarini yuboradi. Urush boshlanganidan so'ng ushbu kemalar Buyuk Britaniya va
unga ittifoqdosh bo'lgan davlatlarning savdo kemalariga hujum qila
boshlaydilar. 1939-yilning sentabridan dekabrgacha bo'lgan davr ichida Buyuk
Britaniya nemis suvosti kemalarining zarbalari natijasida 114 ta kemadan, 1940-yili
esa 471 ta kemadan ayriladi, nemislarning esa 1939-yildagi yo'qotishlari atigi 9
suvosti kemasini tashkil etadi. Buyuk Britaniyaning dengizdagi aloqalariga bo'lgan
zarbalar 1941-yilning yoziga kelib britan savdo flotining 1/3 qismini yo'qotilishiga
olib keladi va mamlakat iqtisodiyoti uchun jiddiy xavf tug'diradi.

**Sovet-fin urushi**

*Asosiy maqola: Sovet-fin urushi (1939—1940).*



SSSR egallagan hududlar

1938—1939-yillardagi sovet-fin muzokaralari davomida SSSR Kareliya bo'yinining bir qismiga ikki baravar hajmli hududni berishni hamda bir qancha orollar va Xanko (Gangut) yarimorolini harbiy baza sifatida ijaraga berishni taklif qiladi. Finlandiya o'z hududini boy berishni va harbiy majburiyatlar olishni istamay, savdo-sotiq bo'yicha kelishuvni imzolash va Aland orollarining remilitarizatsiyasi taklifini beradi.

Buyuk Britaniya, Fransiya va AQSH davlatlarining bosimi tufayli ushbu muzokaralar to'xtaydi va 1939-yilning 30-noyabrida SSSR Finlandiyaga bostirib kiradi. 1939-yil 14-dekabrda SSSR urush boshlagani sababli Millatlar ligasidan chetlashtiriladi. SSSRni Millatlar ligasi safidan chetlashtirish davomida Ligaga kirgan 52 davlatdan 12 tasi ushbu konferensiyaga o'z vakillarini umuman yubormaydilar, 11 tasi esa SSSR chetlashtirilishiga qarshi chiqadilar. Aytib o'tilgan 11 ta davlat ichida — Shvetsiya, Norvegiya va Daniya davlatlari ham bo'lgan.

Dekabrdan to fevral oyigacha sovet qo'shinlari Mannerheim chizig'ini yorib o'tishga harakat qiladilar, lekin muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Mannerheim chizig'ida Finlandiya piyoda askarlarining 15 diviziyasiga qarshi sovet mergan askarlarining 15 diviziyasi to'qnashadilar.

Buyuk Britaniya va Fransiya Skandinaviya yarimoroliga desant tushirishga qaror qiladilar. Bu qaror bilan ular shvedlarning temir ruda konini Olmoniya egallashiga yo'l qo'ymaslikni hamda Finlandiya himoyasi uchun askarlar yuborish yo'lini ko'zlaydilar. Ammo, Shvetsiyava Norvegiya betaraflikni saqlab qolish maqsadida o'z hududida ingliz va fransuz askarlarini qabul qilishga rozi bo'lmaydilar. 1940-yilning 16-fevralida Britaniya esminetslari Norvegiyaning suvdagi hududlarida „Altmark" nomli nemis kemasiga hujum qiladilar. 1-mart kuni Skandinaviya davlatlarining betarafligida manfaatdor bo'lgan Hitler Daniya va Norvegiyani bosib olish (Weserübung operatsiyasi) haqidagi ko'rsatmani imzolaydi.

1940-yil mart oyining boshida sovet qo'shinlari Mannerheim chizig'ini yorishga muvaffaq bo'lib, Viborg shahrini egallaydilar. 1940-yil 13-martida Moskvada Finlandiya va SSSR o'rtasida tinchlik haqidagi kelishuv imzolanadi. Bu kelishuvga muvofiq SSSRning barcha talablari qondiriladi: Kareliya bo'yinidagi chegara shimoli-g'arbiy tomon 150 km ga suriladi va Fin bo'g'ozidagi

bir nechta orollar SSSR tasarrufiga o'tadi. Finlandiya Ikkinchi jahon urushida o'z betarafligini saqlaydi.[11]

Urushning tugatilishiga qaramay ingliz-fransuz qo'mondonligi Norvegiyada harbiy operatsiya rejasini ishlab chiqishda davom etadi, ammo nemislar ulardan ilgarilab ketadilar.

Sovet-fin urushi mobaynida finlar tarafidan Molotov aralashmasi kashf etiladi.

**Yevropa blitskrigi**

1940-yil 9-aprelda Olmoniya Daniya va Norvegiyaga bostirib kiradi.

Nemislar dengiz va havodagi kuchlari vositasida Daniyaning eng muhim shaharlarini hech qanday qarshiliklarsiz egallaydilar va bir necha soat davomida butun dat aviatsiyasini yo'q qiladilar. Tinch aholini bombardimon qilish tahdidi ostida Daniya qiroli Christian Xtaslim bo'ladi va armiyasini ortga suradi.

Norvegiyada nemislar 9-10-aprel kunlari Oslo, Tronxeym, Bergen, Narvik kabi eng asosiy portlarini egallaydilar. 14-aprelda ingliz-fransuz desanti Narvik shahri ostida, 16-aprelda Namsusda, 17-aprelda Ondalsneda tushiriladi. 19-aprelda ittifoqdoshlar armiyasi Tronxeymtomon yuradi, ammo muvaffaqqiyatsizlikka uchrab, may oyining boshlarida markaziy Norvegiyadan ortga chekinishga majbur bo'ladilar. Iyun boshlaridagi Narvik uchun qator janglardan so'ng ular shimoldan ham chekinadilar. 1940-yilning 10-iyunida Norvegiya armiyasining so'nggi kuchlari taslim bo'ladi. Endi mamlakat nemis okkupatsion boshchiligi (reyxskomissariat) qo'li ostiga o'tadi; bu vaqtda Daniya nemis protektorchiligi etib e'lon qilinib, qisman mustaqilligini saqlab qoladi.

Olmoniya bilan bir payt o'zida Daniyaga britan va amerika qo'shinlari hujum qiladi va uning dengizorti hududlari — Farer orollari, Islandiya, Grenlandiyani bosib oladilar.

1940-yilning 10-mayida Olmoniya 135 ta diviziya kuchi bilan Belgiya, Niderlandlar va Lyuksemburgga bostirib kiradi. ittifoqdosh armiyalarning 1-guruhi Belgiya hududi tomon yo'l oladi, ammo gollandlarga yordam berishga ulgurmaydi, chunki nemislarning "B" guruh armiyalari janubiy Gollandiyaga keskin tashlanadi va 12-mayning o'zida Rotterdamni egallaydi. 15-mayda Niderlandlar o'z kapitulyatsiyasi haqida e'lon qiladi.

10-may kuni nemis desantchilari Belgiyada Alberta kanali ustidagi ko'priklarni egallaydilar, bu nemis tank kuchlariga Belgiya tekisligi tomon o'tishga imkon beradi. 17-mayda Brussel taslim bo'ladi.

Ammo, eng katta zarbani "A" guruh armiyalari beradi. Guderianning uchta tank diviziyasi 10-mayda Lyuksemburgni egallab, janubiy Ardenlarni kesib o'tadi va 14-may kuni Maas daryosidan o'tadilar. Shu paytning o'zida Hermann Hothning tankli korpusi shimoliy Ardenlardan o'tadi va 13-mayda Maas daryosiga yetib keladi. Nemis tanklar armadasi g'arbga qarab yo'l oladi. Fransuzlarning kechikkan hujumi ularga qarshi chiqa olmaydi. 16-mayda Guderianning qo'shinlari Uazaga yetib boradi, 20-mayda ular Pa-de-Kalesohiliga chiqadilar va ittifoqdosh armiyalar tomon shimolga buriladilar. 28 ta ingliz-fransuz-belgiyalik diviziya nemislarning qarshovi ostida qoladi.

21-23-mayda fransuz qo'mondonligining Arras yonida kontrzarba berish urinishi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin edi, ammo Guderian butun bir tank batalyoni hayoti evaziga bu harakatni to'xtata oladi. 22-may kuni Guderian ittifoqdoshlarning Bulonga, 23-mayda Kalega qaytish yo'lini berkitadi va Dunkerkdan 10 km uzoqlikda bo'lgan Gravlinga chiqadi, ammo 24-may kuni u Hitlerning shaxsiy buyrug'iga ko'ra ikki kunga o'z yurishini to'xtatadi. Ushbu to'xtam ittifoqdoshlarga Dunkerk himoyasini kuchaytirishga va o'z kuchlarini dengiz orqali evakuatsiya qilish bo'yicha "Dinamo" operatsiyasini boshlashga imkon beradi. 26-mayda nemis qo'shinlari G'arbiy Flandriyadagi Belgiya frontini yoradilar va 28-may kuni Belgiya ittifoqdoshlarning talablariga qaramay kapitulyatsiyaga uchrashga majbur bo'ladi. O'sha kuniyoq Lill tumanida nemislar katta fransuz guruhini o'rab oladilar va 31-mayda bu guruh taslim bo'ladi. Fransuz qo'shinlarining bir qismi (114 ming kishi) va inglizlarning deyarli butun armiyasi (224 ming kishi) Dunkerk orqali britan kemalarida olib chiqiladi. Nemislar ingliz va fransuzlar ortga qaytishda tashlab ketgan artilleriya, bronetexnika, transport vositalarini egallaydilar. Dunkerkdan so'ng Buyuk Britaniya armiyasini saqlab qolganiga qaramay, deyarli qurolsiz bo'lib qoladi.

5-iyunda nemis qo'shinlar Lan — Abvil hududida bosim o'tkaza boshlaydilar. Fransuz qo'mondonligining himoyadagi harakatlari zoye ketadi. Fransuzlar ketma-ket janglarda mag'lub bo'ladilar. Fransuz himoya chizig'i parchalanib ketadi va qo'mondonlik o'z qo'shinlarini janubga qarata tezda olib ketadi.

10-iyunda Italiya Buyuk Britaniya va Fransiyaga qarshi urush e'lon qiladi. Italyan qo'shinlari Fransiyaning janubiy tumanlariga bostirib kiradi, ammo uzoqroqqa surila olmaydi. O'sha kuniyoq Fransiya hokimiyati Parijdan evakuatsiya qilinadi. 11-iyunda nemislar Shato-Tyerri oldida Marna daryosidan o'tadilar. 14-iyunda hech qanday kurashsiz Parijga kiradilar, ikki kundan so'ng esa Rona vodiysiga chiqadilar. 16-iyunda marshal Pétain Fransiyaning yangi hokimiyatini tashkil qilib, 17-iyunda Olmoniyaga sulh tuzish iltimosi bilan chiqadi. 18-iyunda Londonga qochgan fransuz generali Charles de Gaulle fransuzlarni kurashda davom etishlariga chaqiradi. 21-iyunda nemislar endilikda hech qanday qarshilikka uchramay, Nant — Tur hududidagi Luaraga yetadilar, o'sha kuniyoq ularning tanklari Lionni egallaydi.

22-iyunda 1918-yili Olmoniya o'z kapitulyatsiyasi haqida e'lon qilgan xuddi o'sha vagonda fransuz-nemis sulhi tuziladi. Bunga ko'ra Fransiya o'z hududining asosiy qismini okkupatsiyasiga, yerdagi armiyasining demobilizatsiyasiga hamda harbiy-dengiz floti va aviatsiyasining internirlanishiga rozi bo'ladi. Mamlakatning erkin qismida 10-iyulda bo'lib o'tgan davlat to'ntarilishi natijasida Pétainning avtoritar tartibi (Vichy tartibi) o'rnatiladi. Bu rejim Olmoniya bilan yaqin hamkorlik qilishga qaratilgan edi (kollaboratsionizm). Fransiyaning harbiy jihatdan zaifligiga qaramay, bu mamlakatning mag'lubiyati kutilmagan edi va hech qanday ratsional tushunchalarga to'gri kelmagan.

Vichy qo'shinlarining bosh qo'mondoni François Darlan butun fransuz flotining Fransuz Shimoliy Afrikasining sohillari yoniga olib ketilishi haqida buyruq beradi. Fransuz floti Olmoniya va Italiya nazorati ostiga o'tishidan hayiqib, britan

harbiy-dengiz kuchlari va aviatsiyasi 1940-yilning 3-iyulida Mers-el-Kebirda fransuz kemalariga qarata zarba berishadi. Iyulning oxirlariga kelib britaniyaliklar butun fransuz flotini yo'q qiladilar yoki neytrallaydilar.

**Pribaltika, Bessarabiya va Shimoliy Bukovinaning SSSRga qo'shilishi**

1939-yilning kuzida Estoniya, Latviya va Litva SSSR bilan majburan qabul qildirilgan o'zaro yordam haqidagi kelishuvlarni imzolashadi. Bu kelishuvlarga ko'ra, yuqorida sanab o'tildan davlatlar hududida sovet harbiy bazalari joylashtiriladi.

## Maymunlar

**Maymunlar** (Simia) - primapiar turkumiga mansub yuksak rivojlangan sut emizuvchilar ksnja turkumi. Odam ham shu kenja turkumga kiradi. M. keng va tor burunli M. guruhiga bulinali. Keng burunli M. Markaziy va Jan. Amerikada, tor burunli M. Osiyo va Afrikada tarqalgan. Tor burunli M. martishkalar va odamsimon M. oilasiga bo'linali. Olamsimon M.ga shimpanze, gorilla, orangutan, gibbon kiradi. M. gavdasining uz. 16 sm dan (o'ynoqi maymunlar) 2 m gacha (gorilla). Vazii 400 g dan 200 kg gacha. Daraxtda va yerda xayot kechiradi. Ko'pchilik M. qo'l va oyog'ining bosh barmogi boshqa barmoqlariga qaramaqarshi joylashgan bo'lib, daraxtlar shoxiga osilishga va buyumlarni ushlashga moslashgan. Barmoqlarida tirnoqlari bor; o'mrov su-yagi rivojlangan. M.ning ko'rish, eshitish va tuygu organlari yaxshi rivojlangan, hidni yaxshi sezmaydi. Bosh miyasi nisbatan yirik, bosh miya katta yarim sharlari yuzasida burmalar ko'p. Kalla qutisi skeleti yuz skeletiga nisbatan yirik. Mimika muskullari yaxshi rivojlangan. Tishlarining tuzilishi, soni, joylashishi odamnikiga o'xshash. Lekin kurak tishlarining birmuncha yirik uzunroq va liastemasi (tish oralig'i) bo'lishi bilan odamnikidan farq qiladi. Dumlari uzun (koat) yoki rudiment holatda (odamsimon maymunlar). Keng burunli maymunlar dumi gajaksimon shaklda. Urgochilarining sut bezlari bir juft, ko'kragila joylashgan. M. gala bo'lib yashayli. Bo'gozlik davri 3—9 oy. 1—2 ta bola tugadi. Tutqinlikda ham ko'payadi. M., asosan, o'simlik va mevalar bilan oziqlanadi.

## Amerika Qo'shma Shtatlari

**Amerika Qo'shma Shtatlari** (AQSh, ingl. *United States of America*) — Shimoliy Amerikadagi mamlakat. Poytaxti — Vashingtonshahri, BMT a'zosi. Amerika Qo'shma Shtatlari Sharqdan Atlantika, g'arbdan Tinch okeani, janubi-sharqdan Meksika qo'ltig'i bilan o'ralgan. Ma'muriy jihatdan 50 shtat va Kolumbiya federal okrugiga bo'linadi. Alyaska va Gavayi shtatlari mamlakat asosiy hududidan tashqarida joylashgan. Puerto-Riko Hamdo'stligi, Shimoliy Mariana orollari Hamdo'stligi, Guam, Virginiya orollari, Sharqiy Samoa ham AQShga qarashli. Maydoni 9373000 km², aholisi 320,061 mln. kishi (2014).

**Davlat tuzumi**

AQSh — federativ respublika. Amaldagi konstitutsiyasi 1787 yilda qabul qilingan. Davlat va hukumat boshlig'i, qurolli kuchlar bosh qo'mondoni — prezident, uning vakolatlari juda katta. Vitse-prezident bilan birga bavosita, ikki bosqichli saylov yo'li bilan (saylovchilar hay'ati orqali) 4 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni senat va vakillar palatasidan iborat ikki palatali kongress amalga oshiradi. Senatda 100 senator bor (ular 6 y. muddatga, har shtatdan 2 tadan saylanadi va 1/3 qismi har 2 yilda yangilab turiladi). Vakillar palatasiga 435 deputat 2 yilga saylanadi. Ijrochi hokimiyat organi — AQSh hukumati prezident tomonidan senatning roziligi bilan tayinlanadi; 13 vazirdan iborat bo'ladi. Hukumat kongress oldida mas'ul emas. Har bir shtatning o'z konstitutsiyasi bor. Shtatdagi qonun chiqaruvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi majlis, ijrochi hokimiyatni esa gubernator amalga oshiradi. AQSh davlatining konstitutsiyaviy tizimiga uch siyosiy-huquqiy qoida asos qilib olingan, bu qoidalar — hokimiyatning bo'linishi, federalizm va sudning konstitutsiyaviy nazoratidan iborat. Hokimiyatning bo'linish qoidasi davlat hokimiyatining uch tarmog'i — qonun chiqaruvchilik, ijroiya va sud hokimiyatlarining mustaqilligini va ular o'rtasida vazifalarning chegaralab qo'yilishini nazarda tutadi. Federal darajadagi uch tarmoq — Kongress, Prezident va Oliy suddir.

**Tabiati**

Atlantika okeanining AQSh qirg'og'ida ko'rfaz va qo'ltiqlar juda ko'p, sohillari asosan pasttekislikdan iborat; eng katta ya.o.— Florida. Mamlakat relyefi uch turga bo'linadi. G'arbdagi Kordilyera tog' tizmasi AQSh hududining uchdan bir qismini egallaydi. Tinch okean sohili baland tog'lar (Alyaska tizmasida AQSh va butun — 6194 m balandlikdagi Mak-Kinli cho'qqisi joylashgan; bundan tashqari Qirg'oqbo'yi tizmalari va Kaskadli tog'lar, SyerraNevada tog'lari bor). Sharqiy mintaqani Qoyali tog' tizmalari egallagan. Mazkur ikkala tog'li mintaqa oralig'ida Kolumbiya va Kolorado platolari bor. Katta Havza cho'l yassi tog'liklarini chuqur daralar bir-biridan ajratib turadi. Sharqda uncha baland bo'lmagan Appalachi tog'lari (bal. 2037 m gacha, Mitchell tog'i) bo'lib, uni torgina Atlantika bo'yi pasttekisligi okeandan ajratib turadi. Kordilyera bilan Appalachi o'rtasida Markaziy tekisliklar, Buyuk tekisliklar (yoki Preriy platosi) va Meksikabo'yi tekisliklarini o'z ichiga olgan ichki tekisliklar joylashgan. Shim.da suv-muz shaklidagi relyefli Lavrentiy tepaligining bir qismi joylashgan. AQSh — foydali qazilma zaxiralari va xilma-xilligi jihatidan dunyoning eng boy mamlakatlaridan biri. Ko'mir, neft, gaz, mis, qo'rg'oshin, rux, uran, temir, titan rudalari, simob, oltin, molibden, volfram, fosforit konlari mavjud. Tosh va kaliy tuzlari, oltingugurt va boshqa minerallar ham bor. AQSh hududining deyarli hammasi mo''tadil va subtropik mintakalarda, Alyaska — subarktika, Floridaning jan. qismi tropik mintaqalarda joylashgan. Mamlakatning shim.-sharqiy va sharqiy qismlari iqlimiga iliq Golfstrim oqimi, Tinch okean sohili iqlimiga sovuq Kaliforniya oqimi anchagina ta'sir o'tkazadi. Hudud yuzasining tuzilish xususiyatlariga ko'ra shim. va jan. mintaqalar o'rtasida havoning faol almashinuvi munosabati bilan ob-havo tez-tez o'zgarib turadi. AQSh ichki mintaqalarining iqlimi — kontinental, Kordilyera ichki hududlarida keskin kontinental. Bismark

**Davlat tuzumi**

AQSh — federativ respublika. Amaldagi konstitutsiyasi 1787 yilda qabul qilingan. Davlat va hukumat boshlig'i, qurolli kuchlar bosh qo'mondoni — prezident, uning vakolatlari juda katta. Vitse-prezident bilan birga bavosita, ikki bosqichli saylov yo'li bilan (saylovchilar hay'ati orqali) 4 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni senat va vakillar palatasidan iborat ikki palatali kongress amalga oshiradi. Senatda 100 senator bor (ular 6 y. muddatga, har shtatdan 2 tadan saylanadi va 1/3 qismi har 2 yilda yangilab turiladi). Vakillar palatasiga 435 deputat 2 yilga saylanadi. Ijrochi hokimiyat organi — AQSh hukumati prezident tomonidan senatning roziligi bilan tayinlanadi; 13 vazirdan iborat bo'ladi. Hukumat kongress oldida mas'ul emas. Har bir shtatning o'z konstitutsiyasi bor. Shtatdagi qonun chiqaruvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi majlis, ijrochi hokimiyatni esa gubernator amalga oshiradi. AQSh davlatining konstitutsiyaviy tizimiga uch siyosiy-huquqiy qoida asos qilib olingan, bu qoidalar — hokimiyatning bo'linishi, federalizm va sudning konstitutsiyaviy nazoratidan iborat. Hokimiyatning bo'linish qoidasi davlat hokimiyatining uch tarmog'i — qonun chiqaruvchilik, ijroiya va sud hokimiyatlarining mustaqilligini va ular o'rtasida vazifalarning chegaralab qo'yilishini nazarda tutadi. Federal darajadagi uch tarmoq — Kongress, Prezident va Oliy suddir.

**Tabiati**

Atlantika okeanining AQSh qirg'og'ida ko'rfaz va qo'ltiqlar juda ko'p, sohillari asosan pasttekislikdan iborat; eng katta ya.o. — Florida. Mamlakat relyefi uch turga bo'linadi. G'arbdagi Kordilyera tog' tizmasi AQSh hududining uchdan bir qismini egallaydi. Tinch okean sohili baland tog'lar (Alyaska tizmasida AQSh va butun — 6194 m balandlikdagi Mak-Kinli cho'qqisi joylashgan; bundan tashqari Qirg'oqbo'yi tizmalari va Kaskadli tog'lar, SyerraNevada tog'lari bor). Sharqiy mintaqani Qoyali tog' tizmalari egallagan. Mazkur ikkala tog'li mintaqa oralig'ida Kolumbiya va Kolorado platolari bor. Katta Havza cho'l yassi tog'liklarini chuqur daralar bir-biridan ajratib turadi. Sharqda uncha baland bo'lmagan Appalachi tog'lari (bal. 2037 m gacha, Mitchell tog'i) bo'lib, uni torgina Atlantika bo'yi pasttekisligi okeandan ajratib turadi. Kordilyera bilan Appalachi o'rtasida Markaziy tekisliklar, Buyuk tekisliklar (yoki Preriy platosi) va Meksikabo'yi tekisliklarini o'z ichiga olgan ichki tekisliklar joylashgan. Shim.da suv-muz shaklidagi relyefli Lavrentiy tepaligining bir qismi joylashgan. AQSh — foydali qazilma zaxiralari va xilma-xilligi jihatidan dunyoning eng boy mamlakatlaridan biri. Ko'mir, nefl, gaz, mis, qo'rg'oshin, pyx, uran, temir, titan rudalari, simob, oltin, molibden, volfram, fosforit konlari mavjud. Tosh va kaliy tuzlari, oltingugurt va boshqa minerallar ham bor. AQSh hududining deyarli hammasi mo''tadil va subtropik mintakalarda, Alyaska — subarktika, Floridaning jan. qismi tropik mintaqalarda joylashgan. Mamlakatning shim.-sharqiy va sharqiy qismlari iqdimiga iliq Golfstrim oqimi, Tinch okean sohili iqlimiga sovuq Kaliforniya oqimi anchagina ta'sir o'tkazadi. Hudud yuzasining tuzilish xususiyatlariga ko'ra shim. va jan. mintaqalar o'rtasida havoning faol almashinuvi munosabati bilan ob-havo tez-tez o'zgarib turadi. AQSh ichki mintaqalarining iqlimi — kontinental, Kordilyera ichki hududlarida keskin kontinental. Bismark

shahrida (Shim. Dakota shtati) yanvarning o'rtacha harorati —19°, iyulda 21°, Chikago shahrida yanvarda —3,7° va iyulda 32, G. Meksikabo'yi pasttekisligi va Atlantika bo'yi pasttekisligining jan. qismida subtropik iqlim. Yangi Orlean shahrida yanvarning o'rtacha harorati 12°, iyulda 27,4°. Atlantika bo'yi sohilining shim.-sharqiy qismi va Tinch okean bo'yi sohilining shim. qismida — dengiz iqlimi. NyuYorkda yanvar ning o'rtacha harorati —0,8°, iyulda 23°. Tinch okean sohilining janubida O'rta dengizga o'xshash iqlim, Kordilyera janubiy qismining ichki tumanlarida juda issiq va qurg'oqchil. Havoning eng past harorati (—64° gacha) Yukon yassi tog'ligi (Alyaska)da, eng yuqori harorati esa (50°) Ajal vodiysi (Kaliforniya)da kuzatilgan.

O'rtacha yillik yog'in Alyaskaning janubi-sharqida va Vashington shtatining g'arbida — 3000-4000 mm, mamlakatning janubi-sharqida — 1500-2000 mm, ichki tekisliklarda — sharqda 1500 mmdan g'arbda 3000 mm gacha. AQShning ko'p daryolari Atlantika okeani havzasiga quyiladi. Mamlakat hududidan dunyoning eng yirik daryo tizimlaridan biri — Missuri bilan Missisipi daryosi oqib o'tadi. Appalachidan oqib kelib Atlantika okeaniga quyiladigan daryolar (Gudzon, Potomak va boshqalar) — qisqa, tez va sersuv. Kordilyeraning daryo tarmog'i siyrakroq. Bu yerdagi Kolumbiya, Kolorado kabi soylar chuqur daralardan oqib o'tadi. Mamlakat shim.da, Kanada chegarasida Buyuk ko'llar (Yuqori ko'l, Guron, Michigan, Eri, Ontario) bor. Katta Havza tog'ida Katta Sho'r ko'l, Floridada ko'pdan-ko'p sayoz ko'l va qo'ltiqlar, Alyaskada muzliklardan hosil bo'lgan tektonik ko'llar, jumladan, Iliamna ko'li bor. Ichki suvlardan sanoat va kommunal suv ta'minoti, kema qatnovi, sug'orish va gidroenergiya manbai sifatida barakali foydalaniladi. Tuproq qoplami xilma-xil. Shim.-sharqda serajriq podzol (kulrang) va qo'ng'ir o'rmon tuproq, jan.-sharqda qizg'ish va sarg'ish tuproq, Ichki tekisliklarda qoramtir preriy, qoratuproq va to'q sur, Kordilyeraning tog' oralig'i platosida quruq dashtlarning kulrang va och sur tuproqlari. Mamlakat shim.-sharqida aralash va qarag'ay o'rmonlari, jan.da keng bargli, Tinch okean sohili va Kordilyera yon bag'irlarida igna bargli o'rmonlar ustun. Markaziy tekisliklarning g'arbidagi ayrim joylarda o'tsimon preriy o'simlikzorlari, Buyuk tekisliklar, Kordilyera platosi va vodiylarida quruq dashtlarning o'simliklari saqlanib qolgan. Kordilyera yassi tog'ligining qurg'oqchil qismini yarim cho'l va cho'llar egallaydi. Muhofazaga olingan yirik tabiat ob'yektlari orasida Iyellouston milliy bog'i, Yosemit milliy bog'i, Sekvoyya, Grand-Kanon milliy bog'lari, Mamont va Karlsbad g'orlari bor.

**Aholisi**

AQShning hozirgi aholisi uch asosiy etnik tarkibiy qismdan: AQSh amerikaliklari, muhojirlar va tub joy aholisidan iborat. AQSh aholisining 82,8 % ni asli kelib chiqishi yevropaliklar, 12,6 % ni afrikaliklar, 3,6 % ni osiyoliklar, 1 % ni hindular, eskimoslar, aleutlar tashkil etadi. Aholining 80 % shaharlarda yashaydi. AQSh amerikaliklari millat sifatida asosan 18-a.ning 2-yarmida Yevropaning turli mamlakatlaridan kelgan muhojirlarning aralashib ketishi natijasida tarkib topgan. Afroamerikaliklar („qoralar" deb ata-luvchi negrlar) AQSh amerikaliklarining irqiy-etnografik guruhi bo'lib, ular 17—19-a.larda mamlakatga keltirilgan afrikalik qullarning avlodlaridir. Afroamerikaliklar ko'p asrlar davomida ayirmachilik va

kamsituvga duchor qilinishiga qaramay, afrikaliklarning oq tanlilar bilan jismoniy aralashuvi sodir bo'ldi. Duragaylar afroamerikaliklar umumiy sonining anchagina qismini tashkil etadi. AQShda meksikanlar, italyanlar, nemislar, fransuzlar, shvedlar, norveglar, gollandlar, yaponlar, po-lyaklar, xitoylar va boshqaxalqlar ham yashaydi. AQShda 5 mingga yaqin o'zbek istiqomat qiladi. Ular asosan NyuYork, Vashington, Nyu-Jersi shtatlarida, Filadelfiya shahrida hamda mamlakatning boshqa shtat va shaharlarida yashaydi. Ular turli kasb hamda tijorat ishlari bilan shug'ullanadilar. Hozirgi amerikalik o'zbeklarning ota-bobolari 1917 y.gi oktyabr to'ntarishidan keyin bolsheviklar tazyiqidan qochib, avval Afg'oniston va Xitoyga o'tib ketganlar. 1950-yillarda esa, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Turkiya orqali AQShga borib qolishgan. 2-jahon urushi davrida turli yo'llar bilan u yerga borib qolgan o'zbeklar ham uchraydi. AQSh aholisining zichligi — 1 $km^2$ ga 27,2 kishi. Rasmiy tili — ingliz tili. Dindorlar asosan protestantlar va katoliklardir. Yirik shaharlari: Nyu-York, Chikago, Los Anjeles, Filadelfiya, Xyuston, Detroyt, San Fransisko, Vashington, Boston, Dallas, Klivlend, Baltimor (yana q. Amerikaliklar).

**Tarixi**

Qadim zamonlarda hozirgi AQSh hududida indeys va eskimoslar yashagan. Amerika 1492 yilda X. Kolumb tomonidan kashf etilgandan keyin 16-a.da Ispaniya, Fransiya, Angliya, Gollandiya, Shvetsiya Shim. Amerikadagi bo'sh yerlarni egallashga kirishdi. Angliya 18-a. o'rtalarida asosiy raqiblarini surib chiqarib, qit'aning sharqiy qismida o'zining mustamlakachilik hukmronligini o'rnatdi. Yerlarni egallash va o'rnashib olish bilan ayni bir vaqtda mahalliy aholi qirg'in qilindi va Afrikadan qul negrlar ommaviy ravishda olib kelindi. 1775—83 ylardagi Shim. Amerikada mustaqillik uchun urush davomida 1776 y. 4 iyulda federal davlat — AQShga asos solindi va u respublika deb e'lon qilindi. J. Vashington AQShning birinchi prezidenta etib saylandi. Mamlakat shim.da sanoat va fermerlik, jan. da quldorlikka asoslangan dehqonchilik rivojlandi. G'arbdagi indeys qabilalarini haydab yuborish va yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga AQSh hududi tez kengaya bordi. 1803 yilda Fransiyadan G'arbiy Luiziana „sotib olindi", 1819 yilda Ispaniya Floridaning bahridan o'tdi, 1836 yilda Meksikadan Texas tortib olindi. 19-a. mobaynida hozirgi Kaliforniya, Arizona, Nyu-Meksiko, Nevada shtatlarining hududlari, Kolorado va Vayoming shtatlarining bir qismi qo'shib olindi. 19a. o'rtalarida AQShda „ikki partiyali tizim" tarkib topdi. Endi hokimiyatni Demokratik partiya bilan Respublikachilar partiyasi galmagal boshqaradigan bo'ldi. Shim. burjuaziyasi bilan janub plantatorlari o'rtasidagi ziddiyat AQShda 1861—65 yillar fuqarolar urushiga olib keldi, unda prezident A. Linkoln boshchiligidagi shim. shtatlar g'alaba qozondi. Urush davomida yer ulushlari haqida (1862), quldorlikni bekor qilish to'g'risida (1865) qonunlar qabul qilindi. Fuqarolar urushidan so'ng mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlana boshladi. 1867 yilda AQSh chor Rossiyasidan Alyaska va Aleut orollarini sotib oldi; 19-a. oxirida Filippin, Gavayi, Puerto-Riko va boshqalarni, 1903 yilda Panama kanali zonasini qo'lga kiritdi. Ikki asr bo'sag'asida AQShga ko'chib kelishning yangi to'lqini boshlandi. Muhojirlarning aksariyati jan.-sharqiy Yevropadan edi. Birinchi jahon urushi davri (1914—18)da AQSh avvaliga betaraflik mavqeida turdi, 1917 y.apr.da Antanta tomonida turib harakat qildi. Urushdan keyin

AQSh iqtisodiy yuksalish davriga kirdi. Ammo tez orada iqtisodiy inqiroz (1929—33) boshlanib, ishsizlik kuchaydi (1933 y. 17 mln. ishsiz bor edi), korxonalar sindi, i.ch. keskin pasaydi. Inqiroz sharoitida F. Ruzvelt (1933—45 yillarda AQSh prezidenta) boshchiligidagi Demokratik partiya ma'muriyati hokimiyat tepasiga keldi. Uning tashabbusi bilan bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar amalga oshirildi, „yangi yo'l" deb atalgan bu yo'l AQShni inqirozdan olib chiqish maqsadini ko'zlar edi. 1941 yilda Yaponiya Amerikaning PyorlXarbor harbiy-dengiz bazasiga hujum qilganidan keyin AQSh 2-jahon urushiga qo'shildi va Gitlerga qarshi koalitsiya tomoniga o'tdi. Amerika qurolli kuchlari asosan Tinch okeanda Yaponiyaga qarshi jangovar harakatlarda qatnashdi. 1943 yilda Italiyaga qo'shin tushirdi. AQSh ittifoqchilarning xalqaro anjumanlarida (1943 y. Texron, 1945 y. Qrim, 1945 y. Potsdam konferensiyalarida) qatnashdi. Nihoyat, 1944 y. 6 iyunda AQSh bilan Buyuk Britaniya ikkinchi frontni ochdi. 1945 y.avg .da G. Trumen (1945—53 ylarda AQSh prezidenta) buyrug'i bilan Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shlariga atom bombalari tashlandi; o'n minglab tinch aholining qirilishiga sabab bo'ldi. 1950-53 yillarda AQSh Koreya urushida qatnashdi, 1956—75 yillarda Vyetnamda urush olib bordi. 1945 yildan AQSh — BMT, shuningdek Amerika davlatlari tashkiloti, NATO a'zosi. O'zR bilan diplomatiya munosabatlarini 1992 y. 12 fevralda o'rnatgan. Milliy bayrami — Mustaqillik kuni — 4 iyul (1776).

**Siyosiy partiyalari, kasaba uyushmalari**

Respublikachilar partiyasi, 1854 yilda tuzilgan; Demokratik partiya, 1828 yilda tuzilgan; Kommunistik partiya, 1919 yilda tuzilgan; Amerika Mehnat Federatsiyasi — i.ch. kasaba uyushmalari Kongressi, 1955 y. tashkil etilgan. AQShda salkam 40 mustaqil kasaba uyushmalari ham bor, ularga 4,5 mln. ishchi va xizmatchi a'zo bo'lib kirgan.

**Xo'jaligi**

AQSh — dunyoda iqtisodiy jihatdan eng yuksak darajada rivojlangan mamlakat. Yalpi milliy mahsulot, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi, tovar va kapital eksport qilish, i.ch.ning tuplanish va markazlashuvi, ilmiy tadqiqotlarga sarf-xarajat va sh.k. bo'yicha 1-o'rinda turadi. Butun dunyodagi sanoat i.ch.ning uchdan bir qismi AQSh ulushiga to'g'ri keladi. Xalqaro boshqaruv taraqqiyoti in-ti o'tkazgan tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, 1994—96 yillarda iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan yetakchi davlatlar o'rtasida ham AQSh birinchi o'rinda turibdi.

**Sanoati**

1933-yil 16-iyunda kuchga kirgan sanoatni qayta tiklash haqidagi qonun "Yangi yo'nalish" doirasidagi yana bir muhim tadbir bo'ldi .Bu qonun sanoatning davlat tomonidan joriy qildi. Birinchi jahon urushi natijasida AQSh Dunyodagi etakchi davlatga aylanadi. Amerika kompaniyalari evropa mamlakatlariga ulkan miqdorda va yuqori narxlarda harbiy jihozlar, qurol –yaroq va oziq ovqat etkazib berdi. Ko'plab evropa mamlakatlari AQShdan urush olib borish uchun kredid oldilar va urushdan so'ng AQSh oldida qarzdor bo'lib qoldilar amerika kompaniyalari urush davrida jami 35 mlrd. dollordan, Muvaffaq bo'ldi. 1933 yil 12 mayda fermerlarga yordam haqidagi qonnnnnnun qabul qilindi. Ularning mahsulotlariga bo'lgan narxlarni oshirish zarur edi. Fermerlarga ekinzorlar maydonini va chorva turini qisqartirish

haqida davlat bilan kontrakt tuzish taklif etildi. Buning uchun ularga mukofotlar berildi. Fermerlarning qarzlari davlat hisobiga qabul qilindi va noma'lum muddatga to'xtatib qo'yildi. Davlat yuzminglab fermerlarga kredit berdi. Norentabel fermalar tugatildi. "Yangi yo'nalish" AQShdagi ijtimoiy munosabatlarni liberallashtirish uchun ijtimoiy qonnunchilik sohasida muhim siljishni amalga oshirildi. 1935 yili AQSh Kongressi "Vagner qonuni " ni qabul qildi.Mazkur qonun bo'yicha ishchilar jamoaviy shartnomalar tuzish huquqiga va ish tashlash huquqiga ega bo'lishdi.Kasaba uyushmalari huquqlarining va ish tashlash huquqining tan olinganligi ishchilar sinfining o'z saflari birligi uchun kurashiga yangi turtki berdi. Kasaba uyushmalari soni ko'payib ketaboshladi. Tan olingan markaz – Amerika mehnat federatsiyasi bilan birga yangi kasaba uyushma tashkiloti – Ishlab chiqarish kasaba uyushmalari komiteti paydo bo'ldi. Bu tashkilot 1938 yilda Ishlab chiqarish kasaba uyushmalari kongressi deb nomlandi. Ruzvelt Prezidentligi davrida ichki siyosatning liberallashtirilganligi tashqi siyosatda ham aks etdi. AQShning tashqi siyosati yanada moslashuvchan va haqqoniyroq bo'lib qoldi. Yangi ma'muriyatning tashqi siyosatdagi birinchi yirik ishi – 1933 yil noyabrida Sovet Ittifoqi bbilan diplomatic munosabatlar o'rnatilganligidir. Ikki mamlakat o'rtasida munosabatlar me'yorlashganligi ularning iqtisodiy aloqalarini faollashtirildi. 1935 va 1937 yillarda AQSh bilan SSSR o'rtasida ikki mamlakatning o'zaro foydali iqtisodiy munosabatlari rivojlanishiga imkon beruvchi savdo bitimlati tuzildi.Ruzvelt 1937 yil 5 oktabr kuni Chikagoda so'zlagan nutqida agressorlar atrofida karantin o'rnatishga chaqirdi. U fashistik davlatlarning bosqinchilik harakatlarini ham keskin qoraladi. 1939 yil 26 iyul kuni AQSh Yaponiya bilan savdo shartnomasini bekor qildi. 1939 yil 4 noyabrda Ikkinchi jahon urushi boshlangandan so'ng betaraflik haqidagi qonun qayta ko'rib chiqildi va bu Angliya hamda Fransiyaga AQShdan qurol-yarog' sotib olish imkonini berdi.

AQSh milliy daromadining 66,3 % sanoatda hosil qilinadi. Sanoat i.ch.ning yarmiga yaqini sanoat korporatsiyalari qo'lida. Ular orasida: „Ekson", „Mobil", „Teksako", „Shevron", „Standard oyl of Kaliforniya", „Standard oyl of Indiana", „Galf oyl" neft, „Jeneral motore", „Ford motor", „Kraysler" avtomobil, „IBM", „Jeneral elektrik", „ITT" elektr mashinasozligi, „YU. S. Stil" po'lat quyish, „Dyupon de Nemur" kimyo va boshqa korporatsiyalar bor. Harbiy sanoat korporatsiyalari orasida „Jeneral daynemiks", „Lokxid", „Makdonnel Duglas", „Grumman", „Xyuz eyrkraft" yetakchi o'rinni egallaydi. Avia-raketa-kosmik, energomashinasozlik, elektron, shuningdek neft kimyosi, atom va energetika sanoati g'oyat tez suratlar bilan taraqqiy etmoqda. Elektr energiyaning 74 % issiqlik elektr stansiyalarida, 12,1 % GESlarda, 14,1 % AESlarda hosil qilinadi. Neft (Meksika qo'ltig'i sohilidagi Galf, Kaliforniya, Alyaska), tabiiy gaz va oltingugurt (Galf), kumir (Appalachi va Markaziy havzalar), temir ruda (Yuqori ko'l atrofi), fosforit (Florida), uran, rangli metallar, kaliy tuzlari va sh.k. qazib olinadi. Qora metallurgiyaning asosiy markazlari — Chikago, Pittsburg , Detroyt, Klivlend, Buffalo, Baltimor, Filadelfiya. Alyuminiy sanoati Galf atrofida hamda Kolumbiya va Tennessi daryolari havzalarida joylashgan. Sanoatning yetakchi tarmog'i — mashinasozlik va metallsozlik. Sanoat va energetika asbob-uskunalari, qurilish va qishloq xo'jaligi mashinalari i.ch. asosan shim.-sharqiy shtatlarda,

elektrotexnika va aloqa vositalari i.ch. shim.-sharq va Kaliforniyada Yo'lga qo'yilgan. Avtomobilsozlikning bosh markazi Detroyt sh. Samolyotlar, raketa va kosmik texnika ishlab chiqaruvchi zavodlar asosan Los-Anjeles, San-Diyego, Boston, Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Buffalo, Dallas, Atlanta va boshqa shaharlarda joylashgan. Kemasozlik (asosan harbiy kemasozlik) AQSh shim.sharqiy sohili portlarida rivojlangan. Atom sanoatining asosiy markazlari — Ok-Rij, Padyuka, Portsmut, Eyken, Xanford. Kimyo sanoati ximikatlar, plastmassalar, kimyoviy tola, sintetik kauchuk, loklar, kir yuvish vositalari, bo'yoqlar, ma'danli o'g'itlar va sh.k.ni ishlab chiqaradi. Mazkur tarmoq korxonalari asosan shim.-sharqiy shtatlarda, Meksika qo'ltig'i sohilidagi shaharlarda joylashgan. Harbiy sanoat asosan Kaliforniya, Nyu-York, Texas, Konnektikut, Missuri, Massachusets, Virginiya shtatlarida. Yengil sanoat tarmoqlaridan eng salmoklisi to'qimachilik (ko'proq Shim. Karolina, Jan. Karolina va Jorjiya shtatlarida) va tikuvchilik (Nyu-York va jan. shtatlar). Charm-poyabzal sanoati yaxshi rivojlangan. Oziq-ovqat sanoati o'z xom ashyosi bilan yaxshi ta'minlangan. Uning yetakchi tarmoqlari — go'sht, sut, un, yog', qand-shakar, konserva, alkogolli, alkogolsiz ichimliklar, tamaki.

**Qishloq xo'jaligi**

AQSh milliy daromadining 8 % dan ko'prog'i qishloq xo'jaligida hosil qilinadi. Yirik fermalar yetakchi rol o'ynaydi. Umuman qishloq xo'jaligi sermahsul va sertovar bo'lib, muayyan hududlar ayrim mahsulot turlariga ixtisoslashgan va markazlashgan. Mamlakatda 2 mln.ga yaqin fermer xo'jaligi bor, bir fermer xo'jaligi o'rta hisobda 190 ga yerda dehqonchilik qiladi. Mehnatga yaroqli aholining 2,5 % qishloq xo'jaligida band. AQShda asosan makkajo'xori, soya, paxta, tamaki, sholi, kartoshka, kungaboqar, qand lavlagi, shakarqamish va boshqa ekiladi. Bug'doyzorlar („bug'doy mintaqasi") Buyuk tekisliklar va Kolumbiya platosida (asosan Kanzas va Shim. Dakota shtatlari), makkajo'xori („makkajo'xori mintaqasi") Buyuk ko'llarning jan. va g'arbida (Ayova, Illinoys shtatlari) ustunlik qiladi, paxtazorlar faqat Missisipi daryosi vodiysi hamda Texas, Arizona va Kaliforniya shtatlarida uchraydi. Qand lavlagi, shakarqamish Missisipi daryosi etaklarida va Gavayi orollarida, tamaki Shim. Karolina, Virginiya va Kentukki shtatlarida yetishtiriladi. Bog'dorchilik va polizchilik Kaliforniya, Floridada, Atlantika okeani va Buyuk ko'llar sohillarida ko'proq. Keng cho'llar va „makkajo'xori mintaqasi" shtatlarida go'shtbop chorvachilik, shim.sharqda va Kaliforniyada sut chorvachiligi rivojlangan. Minnesota va Viskonsin shtatlarida sutning ko'p qismi qayta ishlanib, pishloq va sariyog' ishlab chiqariladi. Qo'ychilik asosan qurg'oqchil tog'li shtatlarda rivojlangan. Go'shtbop jo'ja (broyler), tovuq, kurka yetishtirishga katta ahamiyat beriladi. Tuxum ko'proq jan.-sharqiy shtatlardagi yirik parrandachilik fab-rikalarida yetishtiriladi. AQShda 102 mln. bosh qoramol, 51 mln. bosh cho'chqa, 10 mln. bosh qo'y bor. Baliq ovlash rivojlangan. Hamma turdagi yog'och tayyorlanadi.

**Transporti**

Ichki yuk tashishda t.y., avtomobil transporti, ichki suv transporti, dengiz transporti, havo transporti, gaz va neft quvurlari muhim ahamiyatga ega. Asosiy dengiz portlari: Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Yangi Orlean, Xyuston, San-Fransisko, Buyuk

ko'llarda — Chikago, Dulut. Aviatsiya qatnovi asosiy uzel-lari — Nyu York, Chikago, Atlanta, Los Anjeles, Mayami, Dallas.

**Tashqi savdosi**

Dunyoning turli mamlakatlariga bevosita mablag' sarflash ko'payib bormoqda. Eksportda ham, importda ham tayyor mahsulot ustun. AQShdan sanoat va energetika mashina-uskunalari, transport vositalari, kimyo tovarlari, to'qimachilik va qog'oz mahsulotlari, ko'mir, oziq-ovqat va yembop don, soya, paxta, tamaki va boshqa mahsulotlar chiqariladi; neft va neft mahsulotlari, ruda va metall, sanoat mashina-uskunalari, uzoq muddat foydalaniladigan ro'zg'or anjomlari, kiyim-kechak, poyabzal, yog'och, qog'oz, baliq, go'sht, qand-shakar, kofe va boshqa keltiriladi. Savdo-sotiqdagi asosiy mijozlari — Kanada, Yaponiya, Meksika, G'arbiy Yevropa mamlakatlari. Pul birligi — Amerika dollari.

**Tibbiy xizmati**

Mamlakat kasalxona muassasalarining 70 % — xususiy. Shifokorlarni tibbiyot maktablari tayyorlaydi. Saratoga-Springs, Kliften, Trenchlik, Xot-Springsda balneologiya, Atlantiksitida dengiz bo'yi, Santa-Klaus, Monterey, Santa Barbarada dengiz kurortlari bor. Atlantika va Tinch okeanlari sohillari va orollarida, shuningdek tog' va cho'l joylarda iqlimiy st-yalar joylashgan.

**Maorifi va madaniy-ma'rifiy muassasalari**

Milliy maorif tizimi mustaqillik uchun urush (1775—83)dan keyin qaror topa boshladi. 1852 yilda Massachusets shtati AQShda birinchi bo'lib majburiy boshlang'ich ta'lim to'g'risida qonun qabul qildi. AQShdagi ko'pchilik shtatlarda 7—16 yoshdagi bolalar uchun o'qish majburiy. O'rta maktabning turlari ko'p: 3 y.lik kichik o'rta maktab, 6 y.lik birlashgan kichik va o'rta, 4 y.lik o'rta maktab. Barcha variantdagi o'rta maktablarda o'qish muddati — 12 y. Oliy ta'lim tizimi universitetlarni, 4 y.lik kollejlarni bundan tashqari to'liq oliy ma'lumot bermaydigan 2 y.lik kichik kollejlarni, hunar va texnika in-tlarini o'z ichiga oladi. Barcha oliy o'quv yurtlarida ta'lim pulli. Eng yirik oliy o'quv yurtlari: Garvard, Kaliforniya (Berkli shahrida), Viskonsin, Michigan, Illinoys, Kornell (Itaka shahrida), Kolumbiya, Prinston, Chikago, Pensilvaniya universitetlari, Kaliforniya, Stenford va Massachusets texnologiya intlari. Yirik kutubxonalari: Kongress kutubxonasi (1800 y. tashkil etilgan), Nodir kitoblar va qo'lyozmalar kutubxonasi, Milliy arxiv kutubxonasi, Milliy tibbiyot kutubxonasi, universitetlarning kutubxonalari, Los-Anjeles (1872 y. tashkil etilgan), Chikago (1872 y. tashkil etilgan), Boston (1852 y tashkil etilgan), Nyu-York (1895 y. tashkil etilgan) xalq kutubxonalari va boshqa Mashhur muzeylari: AQSh Milliy muzeyi, Havoda uchish va kosmonavtika milliy muzeyi, Nafis san'at asarlari milliy kolleksiyasi, Milliy san'at galereyasi, Tarix va texnika milliy muzeyi, Milliy portret galereyasi (hammasi Vashingtonda), Hozirgi zamon san'at muzeyi, Metropoliten muzey, Amerika tabiatshunoslik tarixi muzeyi (Nyu-Yorkda), Boston nafis san'at muzeyi va boshqa

**Ilmiy muassasalari**

AQShda ilmiy muassasalarga rahbarlik qiladigan yagona markaz yo'q. Vashingtondagi AQSh Milliy FA (1863 yilda tashkil bo'lgan) fan va texnika masalalari bo'yicha federal hukumatning maslahatchisi hisoblanadi. 1964 yilda

alohida Milliy texnika akademiyasi tuzilgan; Kaliforniya FA (1853), Chikago FA (1857) mavjud. Barcha i.t.larning anchagina qismi universitetlarda olib boriladi. 1965 yilda tashkil etilgan Milliy ta'lim akademiyasi maorif va ped. masalalari bilan shug'ullanadi. Mamlakatda birtalay ixtisoslashgan ilmiy tashkilot va jamiyatlar bor. 10 mingdan ortiq, asosan, xususiy sanoat firmalari, 700 ga yaqin federal hukumat muassasasi i.t. va tadqiqot-konstruktorlik ishlarini amalga oshiradi. Kongressning ijozati bilan federal hukumat barcha i.t. va konstruktorlik ishlarining yarmini pul bilan ta'minlaydi. 1950 yilda Millim ilmiy fond tashki l etildi. Bu muassasa zimmasiga i.t.larning yo'nalishini belgilash, ularni muvofiqlashtirish va pul bilan ta'minlash, ilmiy kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Fan va texnika masalalari bo'yicha federal kengash prezidentning maxsus yordamchisi boshchiligida hukumat muassasalari bajaradigan tadqiqot ishlarini nazorat qiladi. Davlat muassasalari orasidagi eng yirik fondlar Mudofaa vazirligiga qarashlidir. Bu vazirlik ixtiyorida 100 dan ortiq i.t. va tajriba ilmiy markazlari bor.

**Matbuoti, radioeshittirish va teleko'rsatuvi**

AQShdagi yirik kundalik gazetalar: „Nyu-York tayms" („Nyu-York vaqti", 1851 yildan), „NyuYork deyli nyus" („Nyu-York kundalik yangiliklari", 1919 yildan), „Nyu-York post" („Nyu-York pochtasi", 1801 yildan), „Vashington post" („Vashington pochtasi", 1877 yildan), „Vashington tayms" („Vashington vaqti", 1982 yildan), „Uollstrit djornel" („Uollstrit gazetasi", 1889 yildan), „Chikago tribyun" („Chikago minbari", 1847 yildan), „Los-Anjeles tayms" („Los-Anjeles vaqti", 1881 ydan), jurnallar: „Taym" („Vaqt", 1923 yildan), „Nyusuik" („Hafta yangiliklari", 1933 yildan), „Yunayted steyts nyus end uorld riport" („Qo'shma shtatlar yangiliklari va jahonga nazar", 1933 ydan), „Biznes uik" („Biznes hafta mobaynida", 1929 yildan), „Neyshn" („Xalq", 1865 ydan), „Demokrat" (1961 ydan), „Layf" („Hayot"). Yetakchi axborot agentliklari: Assoshieyted Press (AP; 1848 yilda tashkil etilgan) va YUPI (1958 yilda tashkil etilgan). Birinchi tijorat radiost-yasi 1920 yilda tashkil etilgan. AQShda 9 mingdan ko'proq radio va 1ZO telest-ya mavjud. Tajriba teleko'rsatuvi — 1928 yildan, muntazam teleko'rsatuv 1941 yildan ishlaydi.

**Adabiyoti**

17-a.dan rivojlana boshladi. 1775—83 yillar mustaqillik uchun urush davridagi ma'rifatparvarlar, xususan, „Uchinchi tabaka" oliy maqsadlarining targ'ibotchisi B. Franklin va atoqli publitsist, „Somom aql" (1776) va „Inson huquqlari" (1791—92) manifestining muallifi T. Peyn faoliyati milliy adabiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. T. Jeffersonning „Mustaqillikdeklaratsi-yasi" (1776)da ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalari aks etdi. Yevropa romantizm i ta'sirida 19-a.ning 1-yarmida Amerika romantizmi yuzaga keldi va milliy o'ziga xoslik xususiyatlarini ifodalab berdi. Romantizmning dastlabki davri 1810— 30-yillarga to'g'ri keladi. Uning eng salmoqli vakillaridan V. Irving , U. K. Brayant, J. F. Kuper asarlarida Amerika xalqining farovon turmush haqidagi orzu-umidlari aks etgan. 19-a.ning 40—60-yillarida adabiyotda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat bilan bog'liq yo'nalish yuzaga keldi. J. G. Uityer, X. U. Longfello, J. R. Louell, G. Bicher-Stou („Tom toganing kulbasi"), R. Xildret kabi shoir va yozuvchilar asarlari, U. L. Xarrison, U. Filips, A. Linkoln, mutafakkir negr F. Duglaslarning publitsistikasi

davom ettirib, AQSh adabiyoti tarixida yangi saxifa ochdilar. J. Londonning asarlarida insonning alohida toifasi, mard, kuchli, halol, ayni vaqtda o'z hayotiy kurashida yolg'iz inson gavdalantirilgan. T. Drayzerning romanlarida ijtimoiy hodisalar chuqur tahlil etilgan, zamon qaxramonlarining taqdiri keng miqyosda tasvirlangan, tarixga donishmandlarcha nazar tashlangan. 20-a.ning 20-yillarida „Yo'qotilgan avlod" deb atalgan adabiy guruh (E. Xeminguey, U. Folkner, J. Dos-Passos, F. S. Fitsjerald) tashkil topdi. Uning vakillari mavjud tartibqoidalarni tanqid qildilar, ishonchsizlikni, bosqinchilik urushlariga qarshi harakatni, yosh avlod fojiasini tasvirladilar. 2-jahon urushi arafasida T. Drayzer fashizm mohiyatini fosh etdi va unga qarshi kurashchi obrazini yaratdi. Urushdan keyin J. D. Selinjer, J. Chiver, J. Apdayk, U. Stayron, J. Outs prozasining bosh qahramoni — ma'naviyatsiz jamiyatda o'z qobiliyatini ro'yobga chiqara olmaydigan shaxs. Bu yozuvchilarning ko'pgina asarlari o'rta sinf deb atalgan toifadagi odamlarga, yoshlarga bag'ishlangan. 20-a. Amerika she'riyatida xilma-xil g'oyaviy-badiiy yechimlarni ko'ramiz. AQShning ilmiy-sarguzasht va hajv adabiyoti (A. Azimov, A. Klark va boshqalar) o'ziga xos mavzularning boyligi bilan ajralib turadi. Badiiy-hujjatli roman janri ayniqsa rivoj topdi. Amerika adabiyotining eng yaxshi namunalari „Tom tog'aning kulbasi" (G. BicherStou), „Tom Soyerning sarguzashtlari", „Geklberri Fin sarguzashtlari" (M. Tven), „Ko'mir qiroli" (E. Sinkler) romanlari, J. London, O. Genri, T. Drayzer, O. Karlson, P. Bak, R. Konnel, E. Xeminguey hikoyalari, L. Xyuz she'rlari va boshqa asarlar o'zbek tiliga tarjima qilib nashr etilgan.

**Me'morligi**

Yevropaliklar Shim. Amerikaga kelmaslaridan oldin indeyslarning o'ziga xos me'morligi bo'lgan. Irokezlar „uzun uylar" deb atalgan turar joylar yaratgan bo'lsalar, Pueblo indeyslari „pueblo" qishloq uylarini qurganlar. Ingliz, golland va fransuz mustamlakachilari AQShga Yevropa an'analarini keltirdilar. Dastlabki binolar barokko uslubida qurilgan. Ular sodda bo'lib, nAQShlar kam ishlatilgan. 18—19-a.larda AQSh me'morligida klassitsizm uslubi hukm surdi. Bu uslubda davlat va jamoat binolari (Vashingtondagi Oq uy, Nyu-Yorkdagi Eski ratusha — shahar idorasi), ibodatxona va boshqa qurildi. Keyinroq quramalik va dabdabalilik kuchaydi [Vashingtondagi Kapitoliy (kongress) binosi]. Fuqarolar urushidan so'ng AQSh me'morligi yuksalish yuliga o'tdi. AQShning bir qancha iste'dodli me'morlari T. Richardson, J. O. Ryoblin, U. O. Reblinglar qurilish texnikasi rivojiga katta hissa qo'shdilar (Bruklin ko'prigi). 20-a. AQSh me'morligi, asosan, texnika va iqtisod

so'ng „Po'lat va alyuminiy" me'morligi rag'batlantirildi, me'moriy inshootlarning „universal uslubi" taraqqiy etdi (L. Mis van der Roe asarlari). 50-yillarning oxirida yangi klassitsizmning yangicha nusxasi paydo bo'ldi (E. D. Stoun, M. Yamasaki kabi me'morlar). 60—80-yillar inshootlari hajmining kattaligi, geometrik miqyoslarining salmoqliligi, me'moriy yunalishlarning betartibligi bilan ajralib turadi (Nyu-Yorkdagi Xalqaro savdo markazining 412 m balandlikdagi 110 kavatli minorasi, 1971—73, me'morlar M. Yamasaki, E. Rot; Chikagodagi „Sire va Robak" savdo konsernining 442 m balandlikdagi minorasi, 1972—75, „SOM" firmasi me'morlari; Minneapolisdagi bank binosi, 1969—73, me'mor G. Birkerts va boshqa; San-Fransiskodagi „Xayat Rijensi" mehmonxonasi, 1973, „Jon Portmen va boshqa" firmasi hamda Los-Anjelesdagi „Bonavantyur", 1978, me'mor J. Portmen).

**Tasviriy san'ati**

AQShning yerli xalqi — indeyslarning AQShga boshqa mamlakatlardan kelgan xalqlar san'atidan farklanuvchi o'ziga xos qadimiy san'ati bor. Indeyslar san'ati diniy xarakterdagi yog'och haykallar, nAQShli sopol idishlar, guldor matolar, bizon terisiga tushirilgan nAQSh va rasmlar, zebziynatlardan iborat. AQSh yerlari yevropaliklar tomonidan mustamlakaga aylantirilgan davrdan 18-a. o'rtalarigacha mahalliy tasviriy san'-atda (yevropaliklar san'ati) barokko uslubining soddalashtirilgan shakllari bilan yaratilgan taqlidiy asarlar tarqalgan. 18-a. oxiri va 19-a. boshlarida AQShda rassomlar — G. Styuart, J. Trammbal, T. Salli ijod qildilar. AQSh tasviriy san'ati rivojida Filadelfiyada tashkil topgan Badiiy akademiyaning (1805) ahamiyati katta bo'ldi. 18-a. oxiri va 19-a. boshlarida rivojlangan AQSh tasviriy san'ati 19-a.ning 20—50-yillarida tushkunlik davrini boshdan kechirib, 19-a. 2-yarmidan yana yuksaldi. Biron Uoldo, U. Maunt kabi realist rassomlar ijodida xalq turmushini jonli va haqqoniy ifodalashga intilish seziladi. 19-a.ning 2-yarmida ijod qilgan va Amerika san'atini yuksak darajaga kutargan rassomlar orasida U. Gomer, T. Itkins, J. Uistlerlar alohida o'rin tutadi. Rassomlik san'atining tarkib topishiga T. Nast, haykaltaroshlikka esa O. Sent-Godens hissa qo'shgan. 19-a. oxiri va 20-a. boshlarida AQSh tasviriy san'atida impressionizm, simvolizm, modernizm (Ch. Xessem, M. Preidergast) oqimlari paydo bo'ldi. 20-a. boshlarida haykaltarosh J. Bernard, rassomlardan J. Pensell, J. Sloan va J. Bellouz kabilar ijod qildilar. AQSh tasviriy san'atida rassom R. Kent alohida o'rin tutadi. R. Kent shim. manzaralari va kitob suratkashligining mohir ustasi sifatida jahonga tanilgan. Portretchi I. Olinskiy, amerika xalqi turmushini haqqoniy tasvirlovchi aka-uka R. va M. Soyerlar

shtatlarida bolalar teatrlari ishlaydi. 50— 80-yillardagi AQShning yetakchi dramaturglari — A. Miller, T. Uilyams, E. Olbi, J. Gelber, L. Xensberi, I. Boldan, D. Reyb va b; tanikli rej.lar — J. Papp, E. Kazan, J. Bek, J. Chaykin, P. Shuman, D. Makbet, E. Sherin, D. O'Nil, J. Uord; aktyorlar — R. Stayger, L. Kobb, J. Fonda, J. Xarris, M. Stepplton, S. Puatye, D. Din, D. Jons va boshqa Turli millatlarning ishchi tashkilotlari huzurida havaskorlik to'garaklari mavjud. Teatr kadrlari unilarning maxsus f-tlarida, xususiy drama studiyalarida tayyorlanadi.

**Kinosi**

AQShda kino san'ati rivojlana boshlashi arafasida, 1893 yilda T. A. Edison „kinetoskop"ni ixtiro qildi. Mamlakatda uch yildan keyin kino i.ch. boshlandi. 1908 yildan Gollivud (LosAnjeles yaqinida) AQSh kinematografiyasi markazi bo'lib qoldi. Iste'dodli rej. D. U. Griffit yaratgan „Millatning tug'ilishi" (1915), „Chidab bo'lmaslik" (1916), „Sindirilgan novdalar" (1919) kabi tarixiy filmlar mustaqil san'at sifatida kinoga asos soldi. L. Gish, R. Bartelmes, M. Pikford, K. Marsh, T. Ins, S de Mill va boshqa kino san'ati namoyandalari kinematografiya tarixida o'chmas iz qoldirdi. 20-yillarda „Shimoldan kelgan Nanuk" (rej. R. Flaerti, 1922), „Janubiy dengizlarning Moanasi" (rej. R. Flaerti, 1926), „Ochko'zlik" (rej. E. Shtrogeym, 1924), „Ulug' namoyish" (rej. K. Vidor, 1925) kabi filmlar yaratildi. Ovozsiz kino san'atida Ch. Chaplin, G. Lloyd, B. Kiton, R. Arbekl, Ch. Konklin kabi kino qiziqchilari yetishib chiqdi. 20-yillarda kino i.ch. „Metro-Goldvin-Mayer", „Kolumbiya", „Paramaunt", „Uorner Brazers" degan asosiy kinokompaniyalar ixtiyorida bo'ldi. „Rizqi-ro'zimiz" (rej. K. Vidor, 1934), „Men surgundan qochganman" (rej. Le Roy, 1932), „G'azab" (rej. F. Lang, 1935), „Jin ko'cha" (1937) 30-yillarning eng yaxshi filmlaridandir. 2-jahon urushi yillarida „Yettinchi xoch" (rej. F. Sinneman, 1943), „Shimol yulduzi" (rej. L. Maylstoun, 1943), „Moskvaga safar" (rej. J. Uorner, 1943) kabi filmlar paydo bo'ldi. 50-yillarda Gollivud ko'p seri yal i filmlar chiqara boshladi: „Ben-Gur", „Spartak", „Kleopatra" va boshqa „Nyu-York maktabi" deb atalgan ilg'or maktab ki-nematografchilari „Bauerida" (1956), „Qayt, Afrika" (1959), „O'qraygan ko'z", „Soyalar", „Aloqachi" kabi filmlarni yaratdilar. 60-yillardagi AQSh kinofilmlarining eng yaxshilari qatoriga „Bonni va Klayd" (A. Penn, 1966), „Favqulodda hodisa" (S. Lyumet, 1967), „Janubning diqqinafas tunida" (M. Nikols, 1967), „Bitiruvchi" (1968) kabilar kiradi. 70—80-yillarda ko'ngilochar va sarguzasht filmlar, „dahshat" va „falokat" filmlari chiqarishga kirishib ketildi. AQSh kinoshu...

**O'zbekiston—Amerika munosabatlari**

*Asosiy maqola: O'zbekiston–AQSh munosabatlari*

O'zR bilan AQSh o'rtasidagi ikki tomonlama siyosiy va iqtisodiy munosabatlar bir nechta hukumatlararo shartnoma va bitim asosida tartibga solib turiladi. Hamjihatlik haqidagi memorandum, Investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish haqidagi shartnoma, Savdo bitami, Maslahatlashuvlar o'tkazish to'g'risidagi qo'shma bayonot, Konsullik munosabatlariga oid qo'shma axborot asosiy hujjatlardir.

O'zR prezidenti I. A. Karimovning 1996 y. iyunida AQShga qilgan tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirishga ko'maklashgan muhim voqea bo'ldi. Tashrif chog'ida ikki tomonlama huj-jatlar majmui imzolandi. Buxoro viloyatidagi gaz konlarini o'zlashtirish loyihasini mablag' bilan ta'minlash, surkov materiallari ishlab chiqaruvchi qo'shma korxona barpo etish, qishloq xo'jaligi korxonalariga lizing xizmati ko'rsatuvchi qo'shma korxona tashkil qilish to'g'risidagi bayonnomalar, O'zR Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) Milliy banki bilan AQSh Savdo va taraqqiyot agentligi o'rtasida Toshkent aviatsiya i.ch. birlashmasida birgalikda aviatexnika i.ch. loyihasining texnik-iqtisodiy asoslamasini tayyorlash uchun Amerika tomonidan grant ajratish to'g'risidagi bitim, O'zbekiston TIF Milliy banki bilan „Bank of Amerika" o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum, O'zR Davlat geol. va mineral resurslar qo'mitasi bilan „Nyumont-Mayning" kompaniyasi o'rtasida hamjihatlik to'g'risidagi memorandum, O'zR Davlat geol. va mineral resurslar qo'mitasi bilan „Nyumont-Mayning" va „Mitsui" korporatsiyalari o'rtasida „Qizilolmasoy" va „Ko'chbuloq" ruda konlarini birgalikda o'zlashtirish to'g'risidagi bitim shular jumlasidandir.

1999 yilda O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi tovar aylanmasi 282 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. O'zbekiston AQShdan bug'doy, xalq iste'mol mollari, asbob-uskunalar sotib oladi. Eksport asosan paxta tolasidan iborat. AQShdagi turli firma va kompaniyalarning O'zbekiston bilan muvaffaqiyatli hamkorligi, delegatsiyalar almashu-vi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga imkon beradi.

O'zbekistonda bir qancha O'zbekistonAmerika qo'shma loyihalarini amalga oshirishga kirishildi. Ular orasida eng yiriklari „Nyumont-Mayning" kompaniyasi tomonidan Zarafshon shahrida oltin ruda konidan foydalanish, „Interneshnl Telset, Ink." kompaniyasi tomonidan Toshkent shahrida kabel televideniyesi tarmogini yaratish va boshqarish loyihalaridir.

Amerikaning firma va kompaniyalaridan „Barents grupp" kimyo sanoati sohasida, „Kellog" Ko'qdumaloq koni uchun kompressor st-yasi qurish, „AIG", „Emsi-Ay" turli sohalarda o'zbekistonlik sheriklari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilmoqda. „Zarafshon-Nyumont" O'zbekistonAmerika qo'shma korxonasi Qizilqum cho'lida qisqa muddatda zamonaviy korxona barpo etdi.

MDH mamlakatlaridagi katta loyihalarni ro'yobga chiqaruvchi Amerika firmalarining tadqiqotlarini mablag' bilan ta'minlovchi AQShning yirik nohukumat tashkiloti — Savdo va taraqqiyot agentligi oltin qazib chiqaruvchi modulli yangi zavod loyihasining texnik-iqtisodiy asoslamasini mablag' bilan ta'minlash uchun Navoiy kon-metallurgiya k-tiga grant ajratishga qaror qildi.

O'zbekiston — Amerika hamkorligiga xususiy biznes namoyandalari ham salmoqli hissa qo'shdi. Jumladan 1997 yilda Amerikaning „Keys interneyshnl" kompaniyasi yordamida Toshkent traktor zavodi qayta qurilib, shu firmaning zamonaviy traktorlarini i.ch. yo'lga qo'yildi. „Boing" kompaniyasi esa o'zaro manfaatli shartlar (lizing) asosida yo'lovchi tashiydigan samolyotlar yetkazib berdi. „Boing" qulayligi jihatidan ham, uchish xavfsizligi jihatidan ham Rossiyaning shu toifadagi samolyotlaridan katta farq qiladi.

Dunyodagi eng kuchli kompyuter kompaniyasi IBM esa O'zbekiston bank tizimini kompyuterlash sohasida katta amaliy yordam berdi. Amerikaning IREX, ACCELS, Soros jamg'armasi kabi muassasalari esa AQSh va Yevropaning ilmiy markazlarida O'zbekiston uchun mutaxassislar taiyerlashga oid dasturlarni amalga oshirmoqda. O'tish davrining qiyinchiliklarini bartaraf etishda AQSh hukumati va xayriya jamg'armalari insonparvarlik yordami berib, O'zbekistonga bolalar va davolash muassasalari uchun doridarmon, tibbiyot asbob-uskunalari, kiyimkechak, oziq-ovqat mahsulotlari yuborib turibdi. 1997 y. noyabrda AQSh prezidenti rafiqasi Xillari Klintonning O'zbekistonga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi samarali aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1997 y. 9—11 iyunda O'zbekistonAmerika qo'shma komissiyasining tuzilishi AQSh bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarning yanada mustahkamlanib va rivojlanib borayotganligini ko'rsatdi. Qo'shma komissiya mintaqaviy siyosiy muammolarni o'z ichiga olgan o'zaro manfaatli masalalar, O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy islohotlardagi siljishi, harbiy sohada hamkorlik qilish hamda O'zbekistonda xo-rijiy investitsiyalar uchun sharoitlarni muhokama etadi. 1998 y. 26—27 fevral Vashington shahrida qo'shma komissiyaning birinchi, 1999 y. 24—25 may Toshkent shahrida ikkinchi majlisi bo'lib o'tdi.

## Olma

**Olma** (Malus) — ra'nodoshlar oilasiga mansub, barg to'kuvchi daraxtlar yoki butalar turkumi; urug'li meva daraxti. Shim. va jan. yarim sharning mo''tadil mintaqalarida O.ning 25— 30 turi, jumladan, O'rta va Sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo va Kavkazda 10 turi tarqalgan. Ekiladigan mevali daraxtlar orasida maydoni jihatidan birinchi o'rinda turadi. Yalpi olma hosili bo'yicha AQSH (4,8 mln. t), Xitoy (22,01 mln. t) oldingi o'rinlarda turadi (1999). Jahon bo'yicha yalpi hosili 60,2 mln. t ni tashkil etadi (1999). O'zbekistonda —0,4 mln.

t. AQSH, Chili, Xitoy, Rossiya, Eron, Turkiya, Fransiya, Italiya mamlakatlarida olmazorlar katta maydonlarni egallaydi. O'zbekistonda 8 turi yovvoyi holda uchraydi (q. Yovvoyi olma). Dunyo bo'yicha yetishtiriladigan navlarining asosiy qismi xonaki O. (M.domestica) turiga kiradi. Past bo'yli O. (M.pymila) turiga kiradigan dusen va paradizkadan mevachilikda payvandtag sifatida foydalaniladi. O. sovuqqa chidamli, yorug'sevar va namsevar, tuproq tanlamaydi, lekin unumdor tuproqlarda yuqori hosil beradi. O. daraxti bo'yi 15 m gacha boradi. O'zbekistonda O. apr. oyida gullaydi. Guli 5 bo'lakli, gultojibargi oq, pushti, ayrimlari kizil. Mevasi, naviga qarab, iyun—okt.da pishadi. Bir dona mevasi vazmi 15 g dan 400 g gacha boradi. Tarkibida (%)

ta'siriga bog'liq. Q.ning uya qurish joyi va uya qurish usuli xilma-xil. Q. 1 tadan 20—25 tagacha tuxum qo'yib, ularni 12 kundan 80 kungacha bosib yotadi. Tuxumdan chiqqan jo'jalarning holatiga binoan Q. jish jo'ja ochuvchi qushlar va jo'ja ochuvchi qushlarga ajratiladi. Jish jo'ja ochuvchi qushlarning tuxumdan chiqqan bolasining ko'zi yumuq, patlari siyrak; jo'ja ochuvchi Q.ning tuxumdan chiqqan jo'jasi onasi orqasidan ergashadigan va mustaqil oziqlana oladigan bo'ladi. Q.ning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati xilma-xil bo'lib, o'simliklarni changlantirish, ular urug'larini tarqatish, zararkunanda hasharotlar va kemiruvchilarni qirish (ular sonini boshqarish)dan iborat. AyrimQ. bog'lar va donli ekinlarga ziyon yetkazadi, yuqumli kasalliklar tarqatadi. Q. ovlanadi; bir qancha turlari xonakilashtirilgan. Q.ning tabiatdagi estetik ahamiyati ayniqsa katta: ularning sayrashi bog' va xiyobonlarni jonlantiradi; insonda zavqlanish hissini uyg'otadi. Q.ning turlari soni tobora kamayib bormoqda. 17-asr boshlaridan buyon 100 ga yaqin Q. turi qirilib ketgan, bir qancha turlari yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Q.ni muhofaza qilishga qadimdan harakat qilib kelinadi. Qad. Hindistonda miloddan 200 yil avval Q. muhofazasi to'g'risida qonun mavjud bo'lgan. Hozirgi hamma mamlakatlarda Q. muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Noyob va qirilib ketish xavfi ostidagi turlarni saqlab qolish maqsadida xalqaro mamlakatlar va regional Qizil kitoblar yaratilgan. Xalqaro konvensiya, bitim, memorandumlar tuzilgan. Maxsus fondlar tashkil etilgan. 1885 yil birinchi bo'lib Q.ni muhofaza qilish Odyubonov jamiyati tuzilgan. 1872 yil Yellouston milliy bog'i (AQSH), 1910 yil Shveysariyada tabi-atni muhofaza qilish jamiyati ish boshlagan. 1913 yil tabiatni muhofaza qilish bo'yicha birinchi xalqaro anjuman o'tkazilgan.
20-asrning 2-yarmidan boshlab Q.ning yashash joylarini saqlab qolishga e'tibor kuchaytirildi. muhofaza qilish hududlari (milliy bog'lar, qo'riqxonalar) tashkil etila boshlandi. 1971 yil suv va botqoqlik hududlari muhofazasi bo'yicha xalqaro konvensiya ishlab chiqildi. Q. muhofazasi bo'yicha xalqaro hamkorlik tobora rivojlanib bormoqda.
O'zbekiston Respublikasi 1995 yilda "Biologik xilma-xillik to'g'risida" gi, 1997 yilda "Yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risida"gi, 1998 yilda "Ko'chib yuruvchi hayvonlar turlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi, 2001 yilda "Xalqaro ahamiyatga ega, ayniqsa, suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari bo'lgan suv botqoqlik joylar to'g'risida"gi konvensiyalarga qo'shildi. "Ingichka tumshuqli balchiqchi, Sibir turnasi (oq turna), Afrika — Yevrosiyoning suvda suzuvchi ko'chmanchi qushlarini muhofaza qilish tad-birlari yuzasidagi hamfikrlik mele-orandumlari" kabi xalqaro bitimlar O'zbekiston Respublikasi tomonidan imzolangan.

# O'zbekiston

**O'zbekiston (rasman: O'zbekiston Respublikasi)** — O'rta Osiyoning markaziy qismidagi mamlakat. O'zbekistonning poytaxti - Toshkent shahri. Davlat tili - O'zbek

- 8 Dekabr — „Konstitutsiya kuni"
- 31 Dekabr — „Yangi–Yil rasman"
- * Ramazon Hayit (Iyd-al-Fitr) bayrami
- Qurbon Hayit (Iyd-al-Adha) bayrami

**Xalqaro Munosabatlar**

O'zbekiston 37 ta xalqaro tashkilotlar a'zosi [1]. Quyidagi tashkilotlar O'zbekistonda o'z vakolatxonalariga ega:

- BMT
- Narkotiklar nazorati va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha BMT dasturining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi
- BMTning milliyxalqlar Fondi
- Qochoqlar bo'yicha BMTning Oliy Komissariat boshqarmasi
- BMTning bolalar fondi vakolatxonasi — UNICEF
- BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha vakolatxonasi
- Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining vakolatxonasi JSST/WHO
- Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Tashkiloti- EXHT /OSCE
- Xalqaro qizil xoch qo'mitasining vakolatxonasi — ICRC
- Xalqaro qizil xoch va qizil yarim oy jamiyatlari federatsiyasining vakolatxonasi — Red Cross

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar:

- Jahon banki vakolatxonasi — JB/World Bank
- Xalqaro valyuta fondi vakolatxonasi — HVH/IMF
- Evropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki vakolatxonasi
- Xalqaro Moliya korporatsiyasi vakolatxonasi
- Osiyo taraqqiyot banki vakolatxonasi

**Viloyatlar**



O'zbekiston 12 ta viloyat ,
(Sirdaryo, Navoiy, Jizzax, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo, Namangan, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona, Toshkent), Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi dan iborat.

| Bo'linishi | Markazi | Maydoni (kv.km) | Aholisi | Raqam |
|---|---|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | Andijon | 4,200 | 2,805,000 | 2 |
| **Buxoro viloyati** | Buxoro | 39,400 | 1,384,700 | 3 |
| **Farg'ona viloyati** | Farg'ona | 6,800 | 3,096,000 | 4 |
| **Jizzax viloyati** | Jizzax | 20,500 | 910,500 | 5 |



Buxoro

**Transport**



Toshkent shimoliy vokzali

- Toshkent xalqaro aeroporti
- Toshkent mahalliy aeroporti
- Toshkent metropoliteni
- O'zbekiston temir yo'llari

**Qurolli kuchlari**

O'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari 2015-yilga kelib O'zbekiston armiyasi jahonning 106 mamlakati qurolli kuchlari o'rin olgan jahon armiyalari reytingida 48-o'rinni egallaydi.[7] Bu haqda yangilangan Global Firepower reytingida axborot berilgan.[8]

Global Fire Power (GFP) ma'lumotlariga ko'ra (ular 2014 yil martiga doir), O'zbekiston ixtiyorida hozirgi vaqtda 420ta tank, 715ta BTR (zirhli transport vositasi), 109ta raketa tizimlari, 69ta qiruvchi samolyot, 65ta vertolyot, xususan, 25ta hujumkor vertolyot va boshqa ko'plab qurol-aslahaga ega, qurol ko'tarib, armiyada xizmat qilishi mumkin bo'lgan aholisi soni esa 15,7 milliondan oshadi.[9]

GFP O'zbekiston haqidagi ma'lumotlarni Markaziy razvedka boshqarmasi sayti, MRBning World Factbook to'plami ma'lumotlari, „Vikipediya" va ochiq manbalardagi boshqa ma'lumotlarga asoslanib tuzib chiqqan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O'zbekistondan tashqari Qozog'iston ham reytingdan o'rin olgan bo'lib, GFP uni 80-o'ringa joylashtirgan. O'zbekistonga hududiy jihatdan yaqin mamlakatlar orasida Afg'oniston 76-o'rinni egallagan, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston reytingga kiritilmagan.

MDH, Boltiqbo'yi mamlakatlari va Gruziya orasida O'zbekiston Rossiya (2-o'rin) va Ukraina (21-o'rin)dan keyingi 3-o'rinni band etgan. Ozarbayjon (50-o'rin), Belarus (52), Gruziya(64), Qozog'iston (80), Estoniya (96), Litva (103) o'rin olgan. Armaniston, Moldova, Latviya kabi mamlakatlar reytingga kiritilmagan.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Xorazm viloyati | Urganch | 6,300 | 1,200,000 | 13 |
| Namangan viloyati | Namangan | 7,900 | 2,000,123 | 6 |
| Navoiy viloyati | Navoiy shahri | 110,800 | 767,500 | 7 |
| Qashqadaryo viloyati | Qarshi | 28,400 | 2,029,000 | 8 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | Nukus | 160,000 | 1,200,000 | 14 |
| Samarqand viloyati | Samarqand | 16,400 | 3,144,800 | 9 |
| Sirdaryo viloyati | Guliston | 5,100 | 648,100 | 10 |
| Surxondaryo viloyati | Termiz | 20,800 | 1,676,000 | 11 |
| Toshkent shahri | Toshkent shahri | 3,338 | 2,340,900 | 1 |
| Toshkent viloyati | Toshkent shahri | 15,300 | 4,450,000 | 12 |

**Tabiiy resurslar**

O'zbekiston Respublikasida juda katta ishlab chiqarish va mineral xom-ashyo boyligi, noyob qishloq xo'jaligi xom-ashyosi, qayta ishlash jarayonida olinadigan juda katta yarim fabrikatlar, boy tabiiy resurslar, ravnaq topgan infratuzilma bor. Foydali qazilmalar razvedkasining zamonaviy darajasi juda boy nodir, rangli va noyob metall konlarini, organik yonilg'ining barcha turlari — neft, tabiiy gaz, gaz kondensati, qo'ng'ir va yarim kokslanadigan ko'mir, yonuvchi slaneslar, uran, qurilish materiallari uchun xom ashyoning ko'p turlarini o'zlashtirish bilan bog'liqdir.

O'zbekiston hududida 100 xildan ortiq mineral xom ashyolarning keng tarmog'i aniqlangan bo'lib, hozir ularning 60 dan ortig'i xalq xo'jaligining tarmoqlarida ishlatilmoqda.

Oltin, uran, mis, tabiy gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosforit, kaolin singari foydali qazilmalarning tasdiqlangan zahiralariga ko'ra O'zbekiston MDH emas, butun jahonda yetakchi o'rinni egallaydi.

Masalan, oltin zahiralari bo'yicha respublika jahonda to'rtinchi o'rinda, uni qazib olish bo'yicha oltinchi o'rinda, mis zahiralar bo'yicha 10-11 o'rinda, uran bo'yicha yettinchi-sakkizinchi o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 11-12 o'rinda turibdi.

Mavjud bo'lgan mineral xom-ashyo zahiralarining aksariyati hozir ishlab turgan kon qazish komplyekslarini istiqboldagi uzoq muddat mobaynida xom-ashyo bilan ta'minlaydi, ayni vaqtda, oltin, uran mis, qo'rg'oshin, kumush, litiy, fosforitlar, kaliy tuzlari, dala shpati, vollastonit, agrokimyo ma'danlari va shu kabi juda muhim foydali qazilmalarni qazib olishni tashkil etish, quvvatlarni ko'paytirishga imkon beradi.

Aholining asosiy qismi — o'zbeklar bo'lib, ular aholining 81,7 %[4] ni tashkil qiladi. O'zbekiston ko'p millatli respublika bo'lib, 130 ga yaqin millat va elatlarning vakillari istiqomat qilishadi.
Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar singari O'zbekiston Respublikasining ham aholisi nisbatan „yosh" bo'lib, uning katta qismi mehnatga layoqatli yoshdadir. Aholi umumiy miqdorining 39 %ini mehnatga layoqatli davrgacha bo'lgan yoshlar, 54 %i mehnatga layoqatli va 7 % mehnatga layoqatli davrdan katta yoshlilar tashkil etadi.[4]

**Etnik tarkibi**

Ma'lumot 2000-yilga tegishli.

| Millat | Soni |
|---|---|
| O'zbeklar | 22 mln. 959 ming kishi (Jami aholining 78 %) |
| Ruslar | 1 mln. 199 ming kishi |
| Tojiklar | 1 mln. 166 ming kishi |
| Qozoqlar | 990 ming kishi |
| Qoraqalpoqlar | 504 ming kishi |
| Tatarlar | 324 ming kishi (boshqa ma'lumotlarga ko'ra — 700 mingga yaqin) |
| Qirg'izlar | 232 ming kishi |
| Koreyslar | 164 ming kishi |
| Turkmanlar | 152 ming kishi |
| Ukrainlar | 105 ming kishi |
| Armanlar | 42 ming kishi |
| Ozarbayjonlar | 36 ming kishi |
| Forslar | 30 ming atrofida |
| Uyg'urlar | 20 ming atrofida |
| Beloruslar | 20 ming atrofida |
| Qrim tatarlari | 10 ming atrofida (boshqa ma'lumotlarga ko'ra — 90 mingga yaqin) |
| Yahudiylar | taxminan 20 — 30 ming kish |
| Turklar | 10 ming atrofida |
| Olmonlar | 7.9 ming kishi |
| Yunonlar | 10 mingdan ozroq |

**Madaniyat**

O'zbekiston fuqarosi pasport orqali aniqlanadi. Qadimdan O'zbekiston yeri O'rta Osiyoda madaniyat o'chog'i bo'lib kelgan. Bu yurtdan chiqqan olim va shoirlar butun dunyoni qoyil qoldirgan. Hozir ham davlat tomonidan yaratib berilgan keng imkoniyatlar natijasida O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi rivojlanmoqda. O'zbek kinolari xalqaro kinofestivallarning g'olibi bo'lmoqda. O'zbekistonda ayniqsa qo'shiqchilik san'ati keng rivojlangan. O'zbek primadonnasi

tili. Maydoni — 448,900[4] km². Aholi soni (2015) — ↗31,025,500[5] . Pul birligi — so'm.

O'zbekiston Respublikasi 12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat.

O'zbekiston - mustaqil, demokratik, dunyoviy, konstitutsiyaviy davlat. Mamlakatning rasmiy tili O'zbekcha. O'zbekiston MDH, BMT, YXHT, va SHHT a'zosidir.

**Tarixi**

*Asosiy maqola: O'zbekiston tarixi*

**Geografiya**

O'zbekistonning umumiy chegarasi 6221 kilometrga, g'arbiy chekkasidan sharqigacha 1,425 kilometrga, shimolidan janubigacha esa 925 kilometrga cho'zilgan. U g'arbdan va shimoldan Qozog'iston (chegara uzunligi 2203 km.) bilan, sharqdan Qirg'iziston(chegara uzunligi 1099 km.) va Tojikiston (chegara uzunligi 1161 km.) bilan, janubdan esa Turkmaniston (chegara uzunligi 1621 km.) va Afg'oniston (chegara uzunligi 137 km.) bilan chegaradosh.



**Demografiyasi**




O'zbekiston Tojiklar

*Asosiy maqola:* ***O'zbekiston demografiyasi***

Fayl:O'zbekiston Aholisi.JPG

Aholi piramidasi (2013-yilgi ma'lumot)

O'zbekiston aholisi ↗32,121,100 kishini tashkil qiladi (2017-yil, yil boshiga). Aholining aksariyat qismi (81,7 %[4] dan ko'prog'i — 24,15 mln.kishi) o'zbeklardan iborat. Ayniqsa Andijon viloyati aholisida o'zbeklar hissasi juda katta. Har biri 1 milliondan oshiqroq ruslar, qozoqlar, tojiklar;

500ming tatarlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlardan tashqari forslar (200 ming), koreyslar (200 ming), ukrainlar(150 ming), turkmanlar (150 ming), ermanilar (100 ming), arablar va lo'lilar (500 ming) va boshqalar. Aholining 36 % shaharlarda va 64 % — qishloqlarda istiqomat qiladi.

Reytingga ko'ra, AQSh armiyasi eng qudratli deb topilgan bo'lsa, Rossiya va Xitoy armiyasi kuchli uchlikdan o'rin olgan. Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya va Yaponiya armiyasi esa kuchli o'nlikka kirgan.

Qayd etish joiz, GFP'ning 2014 yilgi reytingida ham O'zbekiston 48-o'rinda borayotgan edi.[10]

**Taniqli shaxslar**

- Davlatbek Rahmonov (1949 — 2006) — O'zbekiston prokuraturasi tizimi xodimi va jamoat arbobi, Andijon tumani Kengashi deputati, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurasholib borgan va qurboni bo'lgan.
- Azizullo Izzatullayev (1925 — 1991) — O'zbekistonning davlat va jamoat arbobi, Yangiyo'l tumani ijroiya qo'mitasi raisi o'rinbosari (1962-1983 yillar), "Vatan urushi" va „Hurmat belgisi" ordenlari sohibi.
- Darvishbek Rahmonov (8.04.1952) — "Qaldirg'och" namunali sirk gruppasi asoschisi, tashkilotchisi, badiiy rahbari va O'zbekistonning taniqli sirk san'ati arbobi.

# Tez o`qish san`ati

## (1 daqiqada – 3200ta so`z o`qish mahorati)
## (1 soatda – 100 bet kitob o`qish)

Tez o`qish san`ati so`nggi vaqtlarda eng keng tarqalgan dasturlardan biri. Ushbu dastur ham "Meta-ta`lim"ning asosiy yo`nalishlaridan biri. Buni ko`plab insonlar fantastika, deb hisoblashadi. Afsuski, adashishadi, ular shunchaki buni ko`nikmaga aylantirish yo`lini bilishmaydi. Bu uslubning o`zini qo`llanadigan nuqtalari mavjud.

Hozirda, anchadan buyon o`qiyman, deb yurgan barcha kitoblaringizni ro`yxatini tuzib oling va hammasini bir haftada o`qib tugatishga tayyorgarlik ko`rishni boshlayvering, sababi bu uslub chindan ham ishlaydi va kitoblarni tez o`qib tugatishga yordam beradi.

Biroq, bir narsani tushunishga harakat qiling, kitoblar har xil, shu sabab, ularga turli xil uslubda yondoshamiz. Agar siz sevgan kitoblaringizni tez o`qish san`ati orqali o`qiyman, desangiz, buni maslahat bermasdim. Men hech qachon sevgan kitoblarimni tez o`qimayman, ularni maza qilib, maroq bilan standard uslubda o`qigan ma`qulroq.

Tez o`qish bo`lsa – bu shunchaki qurol. Undan kerakli vaqtda foydalansa bo`ladi. Misol uchun, ba`zi kitoblar bor, ularni shunchaki o`qib, tezda undan xulosa olish kerak hamda undagi sizga kerakli ma`lumotlarnigina olib qolishingiz kerak, ayni shu dam tez o`qish sizga yordam beradi. Agar biron kitobni 100% eslab qolish kerak bo`lsa yoki biron ma`lumotni 100% eslab qolishingiz lozim bo`lsa, unda unga tez o`qish san`atini qo`llamang. Bu uchun alohida texnikalar bor. Bu texnikalarni keyingi bo`limda – Ma`lumot bilan ishlash ko`nikmalarida ko`rib chiqamiz.

Tez o`qish san`ati bo`lsa sizga biron ma`lumotni tezda o`qib, undagi kerakli ma`lumotlarni olishga yordam beradi. Bilsangiz, o`qiyotgan kitobingizdagi 80% ma`lumot sizga butunlay keraksiz hamda qiziq emas. Lekin qolgan 20% sizga juda ham kerak. Ayni shu 20% uchun tez o`qishni qo`llaymiz. Bu sizning tezligingizni yangi darajaga chiqaradi. Siz hujjatlar bilan yoki boshqa istagan materialingiz bilan ushbu uslub orqali tez tanishib chiqa olishingiz mumkin.

Bu uslubga aloqador ko`plab rekordlar mavjud. Misol uchun, mashhur AQSh prezidenti Franklin Delano Ruzvelt 1 daqiqada 1200ta so`z o`qiy olgan, Gitler bo`lsa 2 soatda bitta kitobni o`qib tugatgan. Ko`plab mashhur shaxslar bu uslubni bilishgan hamda bundan foydalanishgan hamda bu tezlik chiqish imkoniyati sizda ham mavjud.

Jon Styuart Mill, mashhur britaniya faylasufi bir daqiqada 100ta so`z o`qiy olgan, afsuski bu rekord bo`yicha 90chi o`rinda turadi.

Eng yuqori ginnes rekordi hozirda ukrainalik Yevgeniya Alekseyenko ismli qizga tegishli. Bir daqiqada 416 250ta so`z o`qiy olgan Yevgeniya barcha olimlarni hayratga soldi. Bu rekordni qanday qilib tekshirib ko`rishdi? Yevgeniyaga bir necha varoq ma`lumot berishdi, u 1/5 soniya ichida 1390ta so`z o`qiy oldi va buni daqiqaga urishgan vaqtda ushbu rekord kelib chiqdi.

Bu kabi rekordlarga erishishning ilojisi bormi? Albatta! Biz ushbu texnikani egallash va uni ko`nikmaga aylantirish bilan shug`ullanamiz, unutmang maqsad 1 daqiqada 3200ta so`z o`qish hamda 1 soatda 100 bet kitob o`qiy olish hisoblanadi. Ayni shu ko`nikma bilan ishlaymiz. Alekseyenkoga yetolmasak ham, hech bo`lmaganda boshqa rekordchilarga

yetib olish imkoniyatimiz bor. Ushbu ko`nikmani har qanday inson egallay oladi. Bizga o`qish ko`nikmasini o`rgatishkan, lekin afsuski, tez o`qish hamda sifatli o`qishni o`rgatishmagan. Biz bu xatoni to`g`irlaymiz va yana bir necha qadam oldinga chiqamiz.

Tez o`qish san`ati bir necha qadamlardan iborat.

1) **Maqsad.** Tez o`qishni rivojlantirish uchun avvalo biz oldimizga maqsad qo`yib olishimiz lozim. Maqsad bu yerda eng muhim rolni o`ynaydi. Misol uchun, bir kitobni oldingiz va undan qanday ma`lumotlarni olmoqchisiz, shuni bitta varoqqa yozib qo`ying. Sababi, biz o`qiyotganimizda, aslida biz emas, bizning miyamiz o`qiydi. U xuddi "Google" singari izlovchi sistemaga o`xshaydi. Unga nimadir deb yozsangiz, shunga o`xshash ma`lumotlarni chiqarib beradi. Siz maqsad qo`yib olgan bo`lsangiz, googlega yozib, unga poisk bergandek bo`lasiz, o`qish jarayonida bo`lsa, miyangiz o`ziga kerakli barcha ma`lumotlarni chiqarib oladi hamda eslab qoladi. Demak, maqsad qo`yish majburiy!
2) **Diqqat.** Endilikda esa tez o`qishimizga halal beruvchi asosiy omillar bilan kurashamiz. Ilk raqibimiz – bu diqqat. Inson diqqatini uzoq vaqt davomida bitta joyda ushlab tura olmaydi. Agar diqqatimiz hamisha o`tkir holatda turganda edi, biz hech qachon bitta betni boshqatdan o`qimagan bo`lardik hamda eslab qolish bilan ham muammo bo`lmagan bo`lardi, biroq hozirda ko`pchilikda aynan diqqatni ushlab turish muammosi global muammo hisoblanadi! Shu bois, avvalo diqqatni mashq qilamiz. Ushbu mashqni bir hafta davomida qilsangiz, diqqatingiz bir umr o`tkir holatda bo`ladi, siz yangicha ko`nikmaga ega bo`lgan bo`lasiz. Diqqatni mashq qildirish uchun eng qiyin yo`ldan ketiladi. Diqqat qachon o`tkirlashadi? Qachonki, diskomfort holatlarda mashq qilsakkina u osha boshlaydi. Bitta kitobni qo`lga oling hamda televizorni baland qilib qo`yib, ayniqsa o`zingizga yoqqan serial yoki filmni qo`yib olib, oldiga kelib, kitob o`qishni boshlang. Hozirda biz tushunishni mashq qilmayapmiz. Hozirda biz diqqatni oshirish bilan shug`ullanmoqdamiz. Televizor diqqatingizni olib qochishga harakat qiladi, siz bo`lsa diqqatingizni kitobda ushlab turishga harakat qilasiz. Yoki sevimli musiqangizni qo`yib oling yoki uyda hamma stol atrofiga yig`ilgan vaqtda mashq qiling, to`palon joylarda, ko`chada kitob o`qishga harakat qilib ko`ring. Ayni shunda diqqat rivojlanadi, atrof diqqatni o`g`irlashga harakat qiladi, siz esa diqqatni kitobda ushlab

turishga harakat qilasiz. Bir muncha vaqt o`tgach, har qanday joyda diqqatni ushlab tura olish ko`nikmasi hosil bo`ladi, ya`ni televizor oldida ham diqqat bilan kitob o`qiy oladigan bo`lasiz, ana shunda mashqni to`xtatsa ham bo`ladi. Diqqat to`liq rivojlanib bo`lgan bo`ladi!

3) **Artikulyasiya!** Kitob o`qiyotganda tilni yoki labni qimirlatish juda katta sekinlik hosil qiladi. Bu sizga tezlik beradi, deb o`ylaysiz, afsuski hech ham unday emas. U nafaqat tezlikni tushurib yuboradi, balkim diqqatni ham qochiradi. Bu narsa diqqatni oshiradi, deganlar ham adashishadi. O`qiyotganda asosan fotografik xotira faol bo`lish lozim. Faqatgina ko`zlar orqali ma`lumot o`qiladi, mana shundagina effect yuqorilashadi. Demak, artikulyasiyani yo`qotishimiz lozim. Agar sizda shundoq ham artikulyasiya bo`lmasa, bu mashqni tashlab ketishingiz mumkin. Agar artikulyasiya bo`lsa, unda sizga birgina mashq tavsiya etiladi. Bu mashqning nomi qalam. Bitta toza qalamni olamiz hamda qalamni og`zimizga solib olamiz, g`alati tuyulishi mumkin, lekin bu mashq juda foydali. Qalamni shunday solish kerakki, qalamga lablar, til hamda tishingiz tegib turishi lozim. Qachon labingiz qimirlasa, qalam ham qimirlay boshlaydi. Labni ham, tilni ham tishni ham qalamga tekkazib turing, shu holatda bir necha kun kitob o`qing. Artikulyasiyasiz kitob o`qishni boshlasangiz, unda bu mashqni to`xtatsa ham bo`laveradi. Ana endi tez o`qish sari hech qanday to`siqlarimiz qolmadi. Navbat asosiy ishga, ya`ni tez o`qishga!

4) **Vertikal o`qish ko`nikmasi.** Biz o`qiyotganimizda asosan gorizontal tarzda o`qiymiz, ya`ni o`ngdan chapga qarab, yonmachasiga o`qiymiz, bu holatda ko`zlarimiz gorizontal tarzda harakatlanadi va har bir qatordan boshqa qatorga o`tish vaqtida anchagina vaqt yo`qoladi, qolaversa bu o`qish uslubi bilan tez o`qishning deyarli ilojisi yo`q. Endilikda, bu uslubdan voz kechamiz hamda vertikal tarzda o`qishni boshlaymiz. Ya`ni tepadan pastga qarab o`qiymiz. Bu holatda siz o`rtadagi uchtagina so`zni ko`rishingizning o`zi kifoya. To`g`ri, bu g`ayritabiiy tuyulishi mumkin, lekin hozir sizga butun jarayonni tushuntirib beraman. O`rtadagi uchta so`z sizga butun boshli gapni ochib bera olishi kerak, bu yerda biz avvalda aytgan faol fikrlash boshlanadi. Faol fikrlash jarayonida miya ma`lumotni to`liq qabul qilmay, to`ya olmagani uchun, ma`lumotni keng ravishda, fikrlab o`zi struktura yasashni boshlaydi, ayni shu jarayon faol fikrlash hisoblanadi. Bu o`ziga yarasha noqulayliklar yaratadi, sababi siz bunday o`qish uslubidan avvallari foydalanmagansiz, shu sabab, boshida biroz qiyin bo`ladi, yana oldingi o`qish uslubiga qaytmasligingiz uchun, ikkita

qog`oz uslubidan foydalanamiz. Ikkita qog`oz oling yoki ixchamroq bo`lishi uchun qirqib oling. Ularni kitobning ikki chetiga qo`yasiz, shudnay joylashtiringki, o`rtadagi faqat uchtagina so`z ko`rinsing, qolgan chekkadagi so`zlarni berkiting. Shu uslubda, teppadan pastga qarab, o`qishni boshlang. Boshida siz hech narsani tushunmaysiz, keyinchalik bo`lsa 10ta betga kelganda kitob haqida umumiy fikr to`liq paydo bo`la boshlaydi, yana biroz vaqt o`tib siz bemalol miyada struktura yaratib, gap nima haqida ketayotganini bir zumda aniqlab olishni boshlaysiz. Qachonki, hammasini bir zumda ilg`ashni boshlasangiz, mashqni to`xtatsa ham bo`ladi. Bu deyarli bir haftaga yaqin vaqt oladi. Shunda siz tezligingiz ancha o`sib qolganini his qilasiz. Biroq bu hammasi emas, davomi ham bor. Kitob o`qishni boshlaganingizda, muhimi uni tushunish va faol fikrlashni jarayonini yoqib olish, agar bu ko`nikmaga aylansa, hammasi zo`r ketdi degani. Demak, toki to`liq tushunib olmagunimizcha, faqat o`rtani o`zini o`qiymiz, so`ng varoqlarni olib tashlab, faqat o`rtani o`qishga odatlanamiz. Mana shunda ko`nikma hosil bo`ladi.

5) **Abzaslab o`qish.** Eng so`nggi etap – bu abzaslab o`qish. Agar vertikal o`qish to`liq rivojlangan bo`lsa, abzaslab o`qish sizdan hech qancha vaqt olmaydi. Endilikdagi vazifamiz, bitta qarashda, butun boshli abzasni tushunib olish, ya`ni bu yerda faol fikrlash yuqori darajaga chiqadi. Atiga bittagina so`z sizga butun boshli abzasning mazmunini ochib bera olishi kerak. Ana shundagina effekt bo`ladi. Bunga ham ko`nikish biroz qiyin bo`ladi, lekin ma`lum bir vaqt o`tgach, hammasini to`liq tushuna boshlaysiz, ya`ni faol fikrlash eng yuqori nuqtaga chiqadi, mana shunda mashqni to`xtatsa ham bo`laveradi. Avvaliga tushunish uchun o`qing, keyinchalik tezlikni oshirish uchun o`qing. Ikkala ko`nikma hosil bo`lgach, siz soatiga 100dan ortiq betni o`qishni boshlaysiz. Sizda savol tug`ilishi mumkin. Agar kitobda menga kerakli ma`lumot bo`lsachi, uni yodlab olishim kerak bo`lsachi, deyishingiz mumkin. Boshida aytganimdek, bu faqat bizga kerakli 20% ma`lumotni kitob ichida olish uchungina, xolos. Eslab qolish bo`yicha navbatdagi bo`limda suhbatlashamiz. Abzaslab o`qish rivojlanishi bilan, siz tez o`qish san`atini to`liq egalladingiz, deb hisoblasa ham bo`laveradi. Endi maroq bilan kitoblarni tugatavering, siz yana bir darajaga ko`tarildingiz. Qolaversa, faol fikrlash ham yuqori nuqtaga chiqdi.

# Ma`lumot bilan ishlash ko`nikmalari (Educational technologies)

## (1 oyda – 1ta fan yoki tilni o`rganish)

Mana, qadrdon daholarimiz, siz bilan dasturning eng qiziq nuqtasiga ham yetib keldik. Bizning asosiy ishimiz aynan ma`lumot bilan ishlashga ketadi. Biron til yoki fanni o`rganish to`g`ridan to`g`ri ma`lumotlar bilan bog`liq, ularni strukturalashtirish, 100% eslab qolish hamda kerakli vaqt foydalana olish, qolaversa ularni ko`nikmaga aylantirish masalasi hammani o`ylantiradi, biz esa quyida sizlar bilan ayni shu muammolarni ko`rib chiqamiz. Quyida siz bilan 15ta instrument bilan tanishib chiqamiz, ushbu instrumentlarning barchamiz eng yuqori ta`lim texnikalari hisoblanadi, agar ularni ko`nikmaga aylantira olsangiz, bir umr yuqori sifatda o`qiysiz. Shu sabab, dastur oxiriga til hamda fanlarni o`rganish bo`yicha qanday instrumentlardan foydalanish kerakligini tushuntirib o`tamiz. Har bir chiziqqacha to`liq e`tibor qarating. Sababi, ayni shu texnikalar yordamida sizda ta`lim bilan boshqa muammo qolmaydi, hamisha boshqalardan 30 qadam oldinda yurasiz. Shunday qilib, boshladik bo`lmasam!

### 1. Intensiv o`rganish prinsipi;

Bilsangiz, ko`plab ta`lim jarayonlari o`xshaydi yoki o`xshamaydi uslubida olib boriladi. Nega sizning ta`lim jarayoningiz sekin ketadi va ko`pincha hammasini unutib qo`yasiz? Bunga javobni hozir olasiz.

Ko`pincha biz repetitorga borsak yoki biron fan bilan shug`ullansak, haftada necha kun hamda necha soat sarflaymiz? Yaxshigina vaqt sarflashimiz aniq, shunday emasmi? Misol uchun, matematikani olaylik, bitta matematikani o`rganish qancha vaqtimizni oladi, agar uni to`g`ri uslubda o`rganganimizda atiga 3 haftada ham o`rgansa bo`lardi.

Misol uchun, haftasiga matematika bilan 2 marta 2 soatdan shug`ullanamiz, shunday emasmi? Agar haftasiga ikki martadan shug`ullanilsa matematikani 6 yilda o`rgansa bo`ladi. Sabab? Ebengaus giperbolasiga ko`ra, biz 10 soatdan so`ng ma`lumotni 3dan ikki qismini yo`qotib bo`lamiz. Demak, keyingi dars kelgunicha, biz deyarli 15% ma`lumot bilan darsga kirishamiz hamda mavzu tushuntirishni boshlangan vaqtda, bizdagi ma`lumotlar keyingi ma`lumotlarni qabul qilishga yetmay qoladi, shu bilan passiv fikrlash boshlanadi. Shunchaki, kun uchun, vaqt uchun shug`ullana boshlaymiz. Demak, jarayonni qanday qilib sifatli ham tez qilsa bo`ladi? Javob juda oddiy – intensivlik rejimini yoqib qo`yishimiz lozim.

Matematika:

Haftada 2 marta – 6 yil;
Haftada 3 marta – 3 yil;
Haftada 4 marta – 1,5 yil;
Haftada 5 marta – 6 oy;
Haftada 6 marta – 3 oy;
Haftada 7 marta – 1,5 oy.

Nega biz maktabda o`qigan fanlarimizdan atiga matemtika, Ingliz tili hamda ona tili boshqalariga nisbatan yaxshiroq esda qoladi, men to`liq demayapman, yaxshiroq deyapman, qolgan fanlarni gapirmasa ham bo`laveradi, kimyodan $H_2O$ esda qolsa, tarixdan ibtidoiy odamlar yodda qoladi. Barcha javob, matematika, Ingliz tili hamda ona tili haftada 3 martadan o`tilishida. Hatto-ki, ba`zi bir fanlar bor, ular haftasiga atiga bir martagina bo`ladi. Ular deyarli yodda qolmaydi.

Demak, intensivlik kerak. Agar biz intensive tarzda, haftasiga 7 kun 4 soatdan matematika bilan shug`ullansak, 1,5 oyda ham o`rganib olsak

bo`ladi, bu yerda albatta yana boshqa texnikalardan ham foydalanish lozim, lekin ilk xulosamiz shundan iboratki, eng muhimi intensivlik.

Avval aytganimdek, bu texnikalar nafaqat fan va til, balkim hunar o`rganishda, rassomchilik, san`at, musiqa, sport yo`nalishlarida ham qo`llansa bo`ladi, shu bois, bu uslublar hammaga tegishli, bemalol o`zingizga moslab olavering. Misol uchun, qolgan sohalarni ham ko`rib chiqamiz.

Rassomchilik:

Haftada 2 marta – 6 yil;
Haftada 3 marta – 3 yil;
Haftada 4 marta – 1,5 yil;
Haftada 5 marta – 6 oy;
Haftada 6 marta – 3 oy;
Haftada 7 marta – 1,5 oy.

Sport:

Haftada 2 marta – 6 yil;
Haftada 3 marta – 3 yil;
Haftada 4 marta – 1,5 yil;
Haftada 5 marta – 6 oy;
Haftada 6 marta – 3 oy;
Haftada 7 marta – 1,5 oy.

Dizaynerlik:

Haftada 2 marta – 6 yil;
Haftada 3 marta – 3 yil;
Haftada 4 marta – 1,5 yil;
Haftada 5 marta – 6 oy;
Haftada 6 marta – 3 oy;
Haftada 7 marta – 1,5 oy.

Dasturchilik:

Haftada 2 marta – 6 yil;

Haftada 3 marta – 3 yil;
Haftada 4 marta – 1,5 yil;
Haftada 5 marta – 6 oy;
Haftada 6 marta – 3 oy;
Haftada 7 marta – 1,5 oy.

Haykaltaroshlik:

Haftada 2 marta – 6 yil;
Haftada 3 marta – 3 yil;
Haftada 4 marta – 1,5 yil;
Haftada 5 marta – 6 oy;
Haftada 6 marta – 3 oy;
Haftada 7 marta – 1,5 oy.

O`sha Sistema – o`sha Sistema. Umuman farqi yo`q. Bu texnikalar universal hisoblanadi va istagan yo`nalishda ulardan foydalanish mumkin.

Demak, birinchi qoidamiz – bu intensivlik.

## 2. Ebengaus giperbolasi

Navbatdagi ko`nikma – bu unutish ko`nikmasi. Barcha olimlar eslab qolish bo`yicha formulalar ishlab chiqayotgan bir vaqtda, nemis olimi Ebengaus unutish ya`ni yoddan chiqarish teoriyasiga asos solgan. Va hozirda bu uslub ko`plab pedagoglar tomonidan qo`llaniladi.

Quyidagi rasmda siz Ebengaus giperbolasini ko`rishingiz mumkin:

# EBENGAUS giperbolasi




Ayni shu giperbola bo`yicha biz ma`lumotni yoddan chiqaramiz. Ya`ni, nazariyaga ko`ra, o`quvchi darsdan chiqqandan so`ng ma`lumotning 1/3 qismini yo`qotadi. 10 soat o`tgach bo`lsa ma`lumotning 2/3 qismi esdan chiqadi. 1 haftadan so`ng ma`lumotni atiga 1%gina qoladi, qolgani yoddan chiqadi.

Bu nimadan darak? Biz ushbu unutish nazariyasiga ko`ra, bemalol eslab qolish ko`nikmamizni hosil qilishimiz mumkin. Hozirdagi texnikalarimizda ushbu giperbola haqida ko`p gapiriladi, shu bois ushbu giperbolani eslab qoling. Biz ayni shu unutmaslik uchun nima qilishimiz kerakligini ko`rib chiqamiz.

## 3. Potensial

Fan yoki til o`rganish jarayonida har bir bo`limni biz algoritmlarga bo`lib olamiz. Hamda ushbu algoritmlar bo`yicha ko`nikmalar qanchalar rivojlangani hamda rivojlanmaganini aniqlab olsak bo`ladi, biz ma`lumotni qay darajada eslab qolganimizni va qay darajada qo`llay olishimizni ayni shu potensial aniqlab beradi.

Quyida potensial grafigi ko`rsatib berilgan:

**POTENSIAL**




Ko`rib turibsizki, ayni shu potensial yordamida biz ko`nikmalarimiz qay darajada o`tkir yoki zaif ekanini aniqlab olsak bo`ladi. Potensialning eng pastki qismi, ya`ni birinchi qismi – tushunaman etapida inson ma`lumotni yoki biron fanni tushunadi, lekin tushuntirib bera olmaydi, ishlata olmaydi, bu shunchaki passiv bilim hisoblanadi. Keyingi etap – bu bilaman etapi. Bu darajada ko`nikma ancha o`tkirlangan hamda u yoddan chiqmaydigan darajada esda qolgan. Uchinchi daraja – qo`llay olaman darajasi. Ushbu darajada potensial eng yuqori darajaga chiqqan bo`ladi. Neyronlar eng faol holatga kelgan hisoblanadi. Ma`lumot nafaqat esda qolgan, balkim u faolga ham aylangan, u endi hech qachon esdan chiqmaydi va istagan vaqt uni qo`llay olish imkoniyati bor. Har qanday ko`nikma hamda bilimlarni shu darajaga olib chiqishimiz lozim. Ko`nikma hosil bo`ldi deganimizda, biz aynan shu potensialning so`nggi darajasini nazarda tutgan bo`lamiz.

## 4. Tushunish ko`nikmasi

Biz har qanday fanni yoki tilni o`rganayotganimizda ikki jarayonga duch kelamiz, avvalo uni tushunish hamda uni eslab qolish. Tushunish jarayoni barcha jarayonlardan muhim hisoblanadi. Agar ma`lumot tushunilmasa, u miya tomonidan qabul qilinmaydi va uni eslab qolish

potensiali deyarli nolga yaqinlashadi. Shunday ekan, har qanday ma`lumot hamda ko`nikmani avvalo tushunib olish lozim, so`ng eslab qolish jarayoniga o`tish kerak.

Tushunish – bu nima? Tushunish – bu miyamizda bor eski ma`lumotga yangi ma`lumotning kelib birikishi. Misol uchun, men sizga Nauru davlati haqida gapirishni boshlayman. Bu davlat unday, bu davlat bunday, bu davlatda shunaqa-shunaqa voqealar ro`y berdi deyishim mumkin, lekin siz buni tushunmaysiz. Sabab? Sizni Nauru haqida tasavvuringiz mavjud emas. Agar Nauru haqida sizda ma`lumot bo`lganida, Nauru haqida aytgan keyingi ma`lumotlarim yodingizda qolgan bo`lardi. Va butun jarayonni tasavvur qilib, tushunishingiz mumkin edi. Agar sizga Amerikada bo`lgan voqealarni so`zlab berishni boshlasam, siz shu zahoti hammasini tushuna boshlaysiz, sababi sizda Amerika haqida tasavvur hamda ma`lumot mavjud. Demak, tushunish jarayoni – bu bizda mavjud bo`lgan eski ma`lumotga yangi ma`lumotning kelib birikishi. Eski ma`lumot bu yerda poydevor rolini o`ynamoqda. Yangi ma`lumot esa uyning yuqori qismi. Agar poydevor bo`lmasa, uyni 10 qavat qilib qursangiz ham buzilib ketaveradi.

Demak, xulosa shundan iboratki, siz nimanidir tushunmayapsizmi, shu zahoti davomini o`qishni to`xtating. Sizda eski ma`lumotlar mavjud emas ekan. Eng zo`r yo`li o`qiyotgan ma`lumotingiz haqidagi oddiy faktlarni o`qib chiqing, mana shunda biroz tasavvur paydo bo`ladi, so`ng hammasini tushuna boshlaysiz. Agar siz matematikadagi 9 sinf masalalarini yecha olmayapsizmi, ularni tushunmayapsizmi, demak siz 7 hamda 8 sinf mavzularini bilmaysiz. Avval ularni o`qib, tushunib oling, shundan so`ng 9 sinf ma`lumotlari sizga oson bo`lib qoladi va tez esda qola boshlaydi.

## 5. 10 marta ma`lumot qabul qilgandan ko`ra, 1 marta ma`lumot chiqargan samaraliroq

Ushbu prinsip ko`plab masalalarni hal qilib bera oladi. Shu bois, bu texnikani o`rganishda biroz xushyorroq bo`ling.

Germaniyada shunday bir eksperiment o`tkazishgan. Ikki guruh mutahassislarni yig`ib olib, 4 soat davomida bitta mavzu bo`yicha konferensiya bo`lib o`tgan. So`ng mutahassislarni ikki guruhga bo`lib

olishgan. Birinchi guruhga konferensiyadan chiqishlari bilan varoq tarqatib, konferensiya davomida nimani tushungan bo`lsangiz, hammasini yozing, deyishgan. Ular barchasini yozib chiqishgan. Ikkinchi guruhga bo`lsa 1 oy davomida shu konferensiya mavzusida haftasiga 3 kundan 2 soatdan dars o`tishgan.

Oradan 2 yil o`tgach. Shu ikkala guruh mutahassislarini chaqirishgan va bir joyga yig`ishgan. Ulardan konferensiyadan eslab qolgan barcha ma`lumotlarni yozib berishlarini so`rashgan. Qoilmaqom fenomen, birinchi guruh 20% ma`lumotni eslay olgan hamda yozib bergan. Ikkinchi guruh 0,1% ma`lumotni eslab qola olgan va shunday natija ko`rsatishgan.

Bundan xulosa kelib chiqdiki, 10 marta bitta mavzuni qayta-qayta o`qigandan ko`ra, bir marta u mavzuni so`zlab berish 200 barobar ko`proq samara berar ekan.

Shu bois, xalqimizda "Birovga tushuntirsang, o`zing ham tushunasan" degan gap bor. Bitta ma`lumotni qayta-qayta o`qimangda, shunchaki bir marta o`qib chiqib, o`zingizga-o`zingiz aytib berishga harakat qiling va mana shu ma`lumot umuman yodingizdan chiqmaydi. Chunki siz ichki quvvatni sarflagan holatda ma`lumotni tashqariga chiqardingiz.

Bilsangiz, qiziqarli kitob o`qib, undagi voqealarni kimgadir so`zlab bersangiz, u ma`lumot bir umrga esda qoladi va umuman esdan chiqmaydi. Meta-ta`lim texnikalari ichida eng kuchli dasturlardan biri – bu "Ijro etish" texnikasi, ya`ni ma`lumotni tashqariga chiqarish. Ushbu prinsip orqali siz ma`lumotni bir umrga eslab qola olasiz. Matematikadagi mavzuni eslab qolmoqchimisiz, uni kimgadir aytib bering yoki tushuntirib bering, bu mavzu sizning esingizdan hech qachon chiqib ketmaydi. Bu texnikaga oddiy qaramang, ushbu texnika haqida hali ko`p gapiramiz, bu texnika juda ham kuchli texnikalardan biri.

## 6. Tornado

Ushbu texnika bundan oldingi texnika bilan birlashtirilsa, istagan ma`lumotni 100% eslab qolish imkoniyatiga ega bo`lasiz.

# TORNADO




Har qanday ma`lumotni 100% bexato tarzda eslab qolsa bo`lishiga ishonasizmi? Yo`q, deysizmi? Unda ushbu texnika bilan yaxshilab tanishib chiqing.

Buni til o`rganishda qo`llab ko`ramiz. Deylik, siz 1000ta so`z yodladingiz, endi bularni qay darajada esda qolganini sinab ko`rmoqchisiz. 1000ta so`zni olamiz va uni tekshira boshlaymiz. 1000ta so`zdan 200taga yaqin xato chiqadi. Xatolarni quyidagi uslubda baholaymiz:

To`g`ri topildi – 1 raqami bo`ladi;
Noto`g`ri topildi – -1 raqami bo`ladi;
Ikkilanildi (to`g`ri yoki noto`g`ri ekanini bilmadi) – 0 raqami bo`ladi.

Xatolar sirasiga -1 hamda 0 kiradi. Ya`ni noto`g`ri topilgan hamda ikkilanilgan ma`lumot xato hisoblanadi. Ana endi, davom etamiz. 200ta xatoni tekshirib chiqamiz va xatolar ustida ishlaymiz.

Xatolar ustida ishlash jarayoni:

1) Xatoni qidirib topamiz;

2) Uni mustahkamlaymiz va bir necha bor qaytaramiz;
3) Xatoni to`g`rilaymiz.

So`ng, ushbu 200ta so`zni qaytadan tekshirib chiqamiz. Faqatgina xato topilgan 200ta so`zni tekshiramiz, xolos. To`g`ri topilgan 800ta so`zga tegmaymiz, chunki ular to`g`ri chiqdi, ularni qayta tekshirishdan foyda yo`q.

200tadan deylik yana 50ta xato chiqdi. Endilikda 50ta ustida ishlaymiz. Xatolar ustida ishlagach, ushbu 50tani tekshiramiz. So`ng 15ta xato chiqadi. 15ta ustida ishlaymiz va tekshiramiz. Bu safar xato 0, ya`ni umuman yo`q. Ma`lumot 100% eslab qolindi. Hech qanday shubha yo`q, ushbu ma`lumotdan xavotir olmasa ham bo`laveradi.

**Sherlarni qanday qilib yodlasa bo`ladi?**

Ijro etish hamda Tornado texnikasini birlashtirgan holatda siz nafaqat sherlarni yodlay olasiz, balkim mo`jizalar yaratishingiz mumkin. Istagan turdagi sherni olasiz. So`ng jarayonga kirishasiz:

1) Sherni tushunib olasiz;
2) Sherni o`qib chiqasiz;
3) So`ng uni berkitib, aytib berasiz;
4) Xato aytgan joylaringizni va ayta olmagan qismlarni belgilab qo`yasiz;
5) Ularni mustahkamlaysiz va aynan ularni qaytarasiz – xatolar ustida ishlaysiz;
6) So`ng yana aytib berasiz;
7) Qarabsizki, sher yodlash bo`yicha jahon rekordini qo`lga kiritdingiz!

Bu uslub orqali nafaqat sherlarni, balkim butun boshli tarixni bir oy ichida 100% eslab qolish imkoniyatiga ega bo`lasiz. Shunchaki, birinchi mavzuni ochasiz, uni o`qib chiqasiz, so`ng so`zlab berasiz, keyin qarab ayta olmagan joylarni qaytarasiz, ularni ham so`zlab berasiz, mana qarabsizki, butun boshli mavzu yodda qoldi.

**7. 5>10 – takrorlash sistemasi**

imkoniyati ko`rsatiladi. Ya`ni siz biron mavzu yodlab bo`lganingizdan so`ng, uni shu zahoti qaytarasiz, so`ng yana qaytarasiz, shu tempda besh marta qaytaramiz. Birinchi takrorlash 15 daqiqa vaqt olsa, keyingisi 11 daqiqa vaqt oladi. Keyingisi bo`lsa 7 daqiqa vaqt oladi. Demak temp shunday ko`rinishda bo`ladi: 15, 11, 7, 3, 0.75, 0.37. Shundan so`ng, qachon qaytaraman desangiz, uni 0.37 daqiqada qaytarib chiqishingiz mumkin. Shu sabab ham, 5>10.

Demak, takrorlashlar tizimiga xulosa chiqaradigan bo`lsak, 10 marta vaqt o`tib qaytarib, bitta tezlikka chiqqandan ko`ra ma`lumotni olish bilan 5 marta qaytarib shu tezlikka chiqqan ma`qulroq.

## 8. Imtihon tizimi

Imtihon tizimi yana bir kuchli qoidalardan biri. Ushbu tizim sizdagi o`ziga bo`lgan ishonchni ancha oshiradi hamda imtihonga 100% tayyorgarligingizni ta`minlab beradi.

Imtihon tizimi qanday ishlaydi? Deylik, siz tarix fanidan imtihonga tayyorgarlik ko`rmoqdasiz. Siz tarixni o`rganishdan avval, 36talik testni olasiz va uni yechib ko`rasiz, natija: 8ta chiqdi. Ana shu jarayonda siz zaif nuqtalaringizni ancha aniqlab olasiz va imtihon tizimi bilan ancha tanishib olasiz. Bu holatda miyangiz imtihon qanday bo`lishini, unda qanday savollar tushishini aniqlashtirib oladi. Oz bo`lsa ham tushunchaga ega bo`lasiz.

So`ng bir oy davomida "Ijro etish", "Tornado" hamda 5>10 texnikalari yordamida butun tarixni yodlab olasiz. O`rganib chiqqach, yana o`zingizni imtihon qilib ko`rasiz, deylik sizda bu gal natija: 28 chiqdi. Siz ayni yaxshi o`zlashtirilmagan qolgan 8ta mavzuga e`tibor qaratasiz. U mavzularni aniqlashtirib olasiz, mavzularni qidirib topasiz, so`ng ularni boshqatdan qaytarib, yodlab chiqasiz. Va yana imtihon topshirasiz, bu gal 34ta to`g`ri javob chiqdi. So`ng xato chiqqan 2ta mavzuni boshqatdan qaytarasiz. Va bu gal natija 36 chiqdi. Lekin, shu bilan to`xtamaymiz, yana 3 marta o`zimizni imtihon qilib ko`ramiz, 3 marta 36 natijasi chiqsa, to`xtaymiz va ko`ngilni xotirjam qilib, imtihonga kirsak ham bo`laveradi. Imtihon tizimi tushunarli bo`lgan bo`lsa kerak. Men faqat tarixdan misol keltirdim, aslida bu tizim barcha fanlarga to`g`ri keladi.

## Integrasiya

Mana, qadrdon daholarim, siz bilan barcha o`rganish texnikalarini birma-bir ko`rib chiqdik, ana endi navbat ulardan qanday foydalanish bo`yicha ko`rsatmalarga. Quyida sizga har bir fan hamda tillarni o`rganishda qaysi uslublardan foydalanish haqida to`liq ma`lumot beriladi. Buni bonus sovg`a deb qabul qiling! Marhamat, o`qing, o`rganing va yuqori marralarga chiqing.

Quyida ko`rsatadigan uslublarim nafaqat Ingliz tiliga, balkim istagan tilingizga qo`llashingiz mumkin. Demak, quyida men faqatgina tilga oid bo`lgan texnikalarni ko`rsatib o`taman.

1) Lug`at yodlash. Lug`at yodlash va uni qo`llash bo`yicha to`liq ma`lumotni chet tilidagi so`zlarni yodlash texnikasi bo`limida ko`rsatib o`tdik. Xuddi shu texnikadan foydalangan holatda, 1 soatda 100ta so`z yodlash imkoniyatiga ega bo`lasiz. Statistika bo`yicha chet tilini erkin egallash uchun 3000ta so`zni bilish kifoya ekan, agar siz ushbu texnikadan foydalansangiz atiga 30 soat ichida bir yilda qila olmagan ishingizni uddalashingiz mumkin. Xitoy hamda shunga o`xshash Osiyo tillariga keladigan bo`lsak, ulardagi so`z yodlash texnikasi ham ko`rsatib o`tildi, demak hech qanday qiyinchilik mavjud emas;
2) Grammatika. Grammatika bo`limi tilda qiyin bo`lim sifatida ko`rinishi mumkin, lekin aslida juda ham oson. Grammatikada ikki narsa muhim: mavzuni tushunish hamda mavzuni mustahkamlash. Mavzuni tushunish uchun "Tushunish ko`nikmasi" hamda "Elak prinsipi"dan foydalaning. Eng zo`r yo`li – bu Grammatikani Mental Cards orqali konspektlab, strukturalab chiqishdir. Bu tushunishga tegishli! Mustahkamlashga keladigan bo`lsak, har bir mavzudan so`ng, shu mavzuning har bir qoidasiga 15tadan gap tuzing, bu mavzuni avtomatlashtiradi hamda mustahkamlaydi;
3) Speaking. Suhbatlashish ko`nikmasi eng qiyin bo`limlardan biri hisoblanadi. Lekin aslida u ham uncha qiyin emas. Bu yerda ko`nikmalar qoidasidan foydalaning. Speaking – bu ko`nikma, umuman bilim emas. Istasangiz ushbu ko`nikmangizni tez rivojlantiruvchi maxsus "Ritorika" uslubini sizga hadya etaman:

## Qanday qilib 7 kun ichida ingliz tilida erkin suhbatlashishni boshlash mumkin?

Har qanday til o`rganuvchisini suhbatlashish masalasi qiynaydi. Ko`plab insonlar yillar davomida qiyindan qiyin ingliz tili grammatikasini, Grammatik konstruksiyalarni yodlashadi, eslab qolishga harakat qilishadi, lug`at boyligini kengaytirishadi, natija negadir "ha" deganda

9) Gapirayotganimizda tabassum qilamiz, ko`krakni keng yoyib, yelkalarni bo`sh qo`yamiz, nafas erkin hamda hotirjam bo`lishi shart. Har gapirayotganingizda xatolaringizga emas, qanchalar yaxshi gapirayotganingizga e`tibor qarating. Xursand bo`ling, o`zingizdan minnatdor bo`ling, chunki gapiryapsiz, buni o`rniga dumalab televizor ko`rib yotishingiz ham mumkin edi. Muhimi o`zingizni maqtab qo`ying, organizm bundan xursand bo`ladi hamda yuqorida keltirib o`tgan psixologik baryerimiz yo`qolib, aksincha butun organizmimiz bizga yordam berishni boshlaydi;

10) Ingliz tilida aytgan monologlarimizni ham diktofonga yozib olamiz. Ularni bir necha bor eshitamiz, shunchaki tahlil qilish uchun, qayerda xato qilyapmiz. Xatolarimizni qidirib topamiz, to`g`irlaymiz hamda mustahkamlaymiz;

11) Gapirayotgan vaqtingizda to`g`ri gapiryapsizmi yoki yo`qmi, hech narsa haqida o`ylamang, shunchaki gapiring. Bu axir qanchalar maroqli jarayon, xursandchilik bilan gapiring;

12) Xuddi shu tartibda 10ta mavzuda gapirib ko`ramiz. Har bir mavzuga 10 daqiqadan kam vaqt ajratmaymiz. Kuniga yarim soatdan 2ta mavzuda gapirsangiz, 7 kundan so`ng ingliz tilida erkin gapirishni boshlaysiz.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan barcha "Innovators` Team" trening klubi tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan hamda juda katta natijalar ko`rsatgan. Yuzlab qatnashchilar shu uslub orqali tilda erkin suhbatlashishni boshlashdi. Natijalar aniq, shunchaki sizdan harakat so`raladi, xolos.

Eng muhimi kayfiyat hamda harakat va siz tez orada til o`rganish uncha qiyin ish emasligini tushunib yetasiz.

4) Listening. Ushbu ko`nikmani rivojlantirish ham asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Tushunish ko`nikmasini rivojlantirish uchun standard 200-300 soat ketadi, deyishadi. Biroq sizga hozir ko`rsatadigan texnikam orqali siz atiga 20 soat ichida ushbu ko`nikmani rivojlantirishingiz mumkin. Demak, tushunish ko`nikmasidagi asosiy muammo nimada? Asosiy muammo shundan iborat-ki, biz biron film yoki audiokitob eshitayotgan vaqtimizda kutilmaganda notanish so`z chiqib qoladi va bu so`zga xayol ketib, umuman keyin gapirilgan gaplarni tushunmay qolamiz. Ularni izlab-topib, tarjima qilib, yodlab, yana eshitishga o`tirganimizda, yana notanish so`z chiqib, butun jarayonni buzaveradi. Shu bois, nima qilishimiz lozim? Film yoki

uncha ko`z ko`rinmaydigan mavzular va ular haqida deyarli gapirib bo`lmaydi;

2) Har bir mavzuga 15ta shu mavzuga aloqador boshqa mavzular o`ylab toping. Misol uchun, barmoq so`zini olaylik. Barmoq: 1) Soyalar teatri; 2) Ko`zi ojizlar; 3) Manikyur; 4) Nikoh va h.k. Ko`pchilik savol berishi mumkin, barmoqqa soyalar teatrini nima aloqasi bor, deb. Javob juda oddiy, soyalar teatrida barmoqlar orqali tomosha ko`rsatiladi. Ko`zi ojizlarga kelsak, ular kitobni barmoqlari orqali o`qishadi, shu kabi maxsus adabiyotlar mavjud. Manikyur – bu tushunarli. Nikohda esa uzuk aynan barmoqqa taqiladi, bundan tashqari barmoqqa qarab uzuk tanlanadi. E`tibor qiling, mavzular noodatiy bo`lishi shart. Mavzuga oid ostki mavzular ham unga aloqador hamda noodatiy bo`lsin. Bu eng muhim faktorlardan biri;
3) Juda qiziq, shunday emasmi? Ushbu mavzularda deyarli suhbatlashib bo`lmaydi, biroq aynan shu noodatiy mavzularni kengaytirib gapirish orqali, siz avvalo o`z tilingizda keng miqyosda gapirishni boshlaysiz. Har bir mavzu haqida atiga 15 daqiqa gapirsangiz kifoya. Bitta mavzuni olamiz, 15ta aloqador mavzularni topamiz va 15 daqiqa davomida gapiramiz. Birinchi bo`lib o`zbek tilida;
4) Gapirayotgan vaqtimizda diktofonni yoqib olamiz. Bu ham juda muhim element. Diktofonga barchasini yozib oling;
5) Navbatdagi qadam – diktofonga yozib olingan o`zbek tilidagi monologlarimizni eshitish vaqtida ingliz tilida gapirib ketamiz. Shu zahoti ingliz tiliga tarjima qilib gapirishni boshlaymiz;
6) Faqat bunda o`ziga yarasha nyuanslari mavjud. Avvalo o`zbek tilida gapirganingizdan ko`ra ancha tezroq gapirishingiz kerak. Pauza qilish umuman ta`qiqlanadi. Eng muhimi tabassum bilan;
7) Tabassum bu yerda hal qiluvchi rolni o`ynaydi. Nega? Biz til o`rganishni yoki chet tilida suhbatlashishni yoqtirmay qolganmiz, uyalamiz, xato qilishdan qo`rqamiz va h.k. Aynan shu faktorlar til o`rganishga halal beradi. Chet tilida gapirishni o`rganib turgan odamga e`tibor qarating, u gapirayotganda ancha jiddiylashadi, qovoqlari solingan, barmoqlarini o`ynashni boshlaydi, belini bukib oladi, bu ong ostiga yozilgan dastur. Qiyinchilik kelganda, odam fizionomiyasi avtomatik tarzda o`sha to`lqinga moslashadi;
8) Ushbu psixologik baryerni yengishning eng optimal yechimi – bu xuddi shu ishni teskarisini qilish. Chunki, agar shu ketish bo`lsa, ikki-uch darsdan so`ng til o`rganishni to`xtatib qo`yishimiz mumkin. Yoki hech qachon kelmaydigan "keyin"ga suramiz;

9) Gapirayotganimizda tabassum qilamiz, ko`krakni keng yoyib, yelkalarni bo`sh qo`yamiz, nafas erkin hamda hotirjam bo`lishi shart. Har gapirayotganingizda xatolaringizga emas, qanchalar yaxshi gapirayotganingizga e`tibor qarating. Xursand bo`ling, o`zingizdan minnatdor bo`ling, chunki gapiryapsiz, buni o`rniga dumalab televizor ko`rib yotishingiz ham mumkin edi. Muhimi o`zingizni maqtab qo`ying, organizm bundan xursand bo`ladi hamda yuqorida keltirib o`tgan psixologik baryerimiz yo`qolib, aksincha butun organizmimiz bizga yordam berishni boshlaydi;

10) Ingliz tilida aytgan monologlarimizni ham diktofonga yozib olamiz. Ularni bir necha bor eshitamiz, shunchaki tahlil qilish uchun, qayerda xato qilyapmiz. Xatolarimizni qidirib topamiz, to`g`irlaymiz hamda mustahkamlaymiz;

11) Gapirayotgan vaqtingizda to`g`ri gapiryapsizmi yoki yo`qmi, hech narsa haqida o`ylamang, shunchaki gapiring. Bu axir qanchalar maroqli jarayon, xursandchilik bilan gapiring;

12) Xuddi shu tartibda 10ta mavzuda gapirib ko`ramiz. Har bir mavzuga 10 daqiqadan kam vaqt ajratmaymiz. Kuniga yarim soatdan 2ta mavzuda gapirsangiz, 7 kundan so`ng ingliz tilida erkin gapirishni boshlaysiz.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan barcha "Innovators` Team" trening klubi tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan hamda juda katta natijalar ko`rsatgan. Yuzlab qatnashchilar shu uslub orqali tilda erkin suhbatlashishni boshlashdi. Natijalar aniq, shunchaki sizdan harakat so`raladi, xolos.

Eng muhimi kayfiyat hamda harakat va siz tez orada til o`rganish uncha qiyin ish emasligini tushunib yetasiz.

4) Listening. Ushbu ko`nikmani rivojlantirish ham asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Tushunish ko`nikmasini rivojlantirish uchun standard 200-300 soat ketadi, deyishadi. Biroq sizga hozir ko`rsatadigan texnikam orqali siz atiga 20 soat ichida ushbu ko`nikmani rivojlantirishingiz mumkin. Demak, tushunish ko`nikmasidagi asosiy muammo nimada? Asosiy muammo shundan iborat-ki, biz biron film yoki audiokitob eshitayotgan vaqtimizda kutilmaganda notanish so`z chiqib qoladi va bu so`zga xayol ketib, umuman keyin gapirilgan gaplarni tushunmay qolamiz. Ularni izlab-topib, tarjima qilib, yodlab, yana eshitishga o`tirganimizda, yana notanish so`z chiqib, butun jarayonni buzaveradi. Shu bois, nima qilishimiz lozim? Film yoki

audiokitobni ssenariysini ya`ni matnini oling, unga ko`z yugurtirib, notanish so`zlarni o`chirib chiqing, so`ng ularni yoniga tarjimalarini yozib, lug`at yodlash texnikasi yordamida yodlang. So`ng bemalol o`tirib, filmni tomosha qiling, chunki umuman boshqa notanish so`z chiqmaydi va film oxirigacha tushunish ko`nikmasi juda katta tezlikda rivojlanadi. Shu yo`sin, 20 soat shug`ullaning, natijasi haqidagi keyin gaplashamiz;

5) Reading. O`qish bo`limida ham muammo notanish so`zlarda. Agar notanish so`zlarni yod olib chiqib, so`ng matnni o`qisak, butun matnni 100% tushunamiz;
6) Writing. Yozish qoidalarida asosiy urg`u ko`proq amaliyotga beriladi. 40ta mavzu tanlab olib, 40ta esse yozing. Oldiniga oddiy mavzularga, so`ng o`rtacha, so`ng qiyin mavzularga yozing, ana shunda yozish ko`nikmasi o`tkirlanadi.

Barcha tillar bilan xuddi shu algoritmda ishlaymiz va tez orada istagan tilni tez hamda sifatli tarzda o`rgana boshlaysiz.

## Matematika

Matematikani o`rganishda bir necha qoidalarga amal qilishimiz lozim.

1) Mavzuni to`liq tushunish shart va majburiy! Agar mavzu tushunilmasa, matematika qo`ldan chiqib ketadi! Bu yerda "Elak prinsipi" hamda "Tushunish ko`nikmasi"dan foydalaning;
2) Formulalarni "Ijro etish" hamda "Tornado" uslubida yodlab oling;
3) Har bir formula bo`yicha "EMD" algoritmidan foydalangan holatda ko`nikma hosil qiling, ya`ni shu formulaga mos 15ta oson, 15ta o`rtacha, 15ta qiyin misol hamda masalalarni tanlab oling va yeching;
4) Masalalarni yecha olmasangiz qanday uslubdan foydalanish haqida so`rashingiz mumkin. Ba`zi bir qiyin masala va misollarni yechish juda qiyin, shu bois, siz shablon uslubidan foydalanishingiz mumkin. Xuddi shunga o`xshash misol yoki masalani qidirib toping va eng muhimi uni yechilishini tomosha qiling. Yechilishini tushunib olgach, o`z misol hamda masalangizni yeching. Ana shunda miyangiz shunga o`xshash barcha misol hamda masalalar qanday yechilishini ko`nikmaga aylantirib oladi;
5) Endi navbat Geometriyaga. Bu yerda asosiy e`tibor nazariyaga qaratiladi. Mavzularni tushunish majburiy. Iloji boricha

klassifikasiyalarni yodlab oling "Ijro etish" hamda "Tornado" uslubidan foydalangan holatda;

6) Teorema hamda isbotlar. Teoremalarni ham "Ijro etish" va "Tornado" uslubida yodlab oling. So`ng, isbotni o`qishga va uni yodlashga shoshilmang. Bilasiz, har bir teoremani o`zini isboti bo`ladi. Siz shu yerda shoshilmang, teoremani yodlab olgach, muhimi tushungach, isbotni siz taxminan o`zingiz yozib ko`ring. O`zingiz teoremani isbotlashga harakat qilib ko`ring. So`ng, o`z isbotingiz hamda kitobda berilgan isbotlarni solishtiring. Mana shu solishtirish jarayonida miyangiz butunboshli isbotni yodlab oladi hamda ko`nikmaga aylanadi;
7) So`ng EMD algoritmidan foydalangan holatda 15ta-15tadan masalalarni to`plab olib, ularni ko`nikmaga aylantiring.

## Tarix

Tarixni o`rganish bo`yicha algoritmlar:

1) Birinchi o`rinda klassifikasiyalarni yodlab chiqing. Barcha kerakli atamalar hamda sanalarni "Ijro etish" hamda "Tornado" uslublaridan foydalangan holatda yodlab oling;
2) So`ng, ularga Mental Cards tayyorlang;
3) Tez o`qish san`ati orqali butun tarixni o`qib chiqing;
4) Imtihon tizimidan foydalaning.

## Fizika

1) Avvalo klassifikasiyalarni yodlab chiqing. Barcha qonunlar hamda qora bilan belgilangan muhim ma`lumotlarni yodlab oling;
2) Tushunish ko`nikmasi bu yerda juda katta rol o`ynaydi. "Elak prinsipi"dan foydalaning;
3) Formulalarni ham "Ijro etish" hamda "Tornado" uslubida yodlab oling;
4) EMD algoritmi orqali masalalarni ishlang;
5) Imtihon tizimidan foydalaning.

## Kimyo

1) Avvalo, tushunish ko`nikmasidan foydalaning;
2) Formula hamda klassifikasiyalarni yodlab oling;

3) EMD algoritmi orqali formulalarni ko`nikmaga aylantiring;
4) Imtihon tizimidan foydalaning.

## Biologiya

1) Tushunish ko`nikmasi hamda "Elak prinsipi"dan foydalaning;
2) Klassifikasiyalarni yodlab chiqing;
3) Mental cards orqali konpektlashtiring;
4) Tez o`qish san`ati orqali o`qib chiqing;
5) Imtihon tizimidan foydalaning.

## Ona tili

1) Klassifikasiyalarni yodlash;
2) Tez o`qish san`ati orqali o`qib chiqish;
3) Tushunish ko`nikmasi va Elak prinsipi;
4) Mental cards orqali konspekt qilish;
5) Imtihon tizimi.

## Adabiyot

1) Qoidalarni "Tornado" va "Ijro etish" tizimi orqali yodlanadi;
2) Biografiyalarni Tez o`qish san`ati orqali o`qib chiqiladi, ulardagi klassifikasiyalar yodlab olinadi;
3) Asarlarni "Aylanma" tizimi orqali o`rganiladi va tez o`qish san`ati orqali o`qib chiqiladi;
4) Mental cards orqali konspekt qilinadi;
5) Imtihon tizimidan foydalaniladi.

## Informatika

1) Tushunish ko`nikmasi hamda "Elak prinsipi" orqali o`qiladi;
2) Tez o`qish san`ati orqali o`qib chiqiladi;
3) Klassifikasiyalar "Tornado" va "Ijro etish" orqali yodlab olinadi;
4) Mental cards orqali konspekt qilinadi;
5) Masalalar "EMD" sistemasi orqali ko`nikmaga aylantiriladi;
6) Imtihon tizimidan foydalaniladi.

**Psixologiya**

1) Tushunish ko`nikmasi hamda "Elak prinsipi" orqali o`qiladi;
2) Tez o`qish san`ati ishlatiladi;
3) Mental cards orqali konspekt qilinadi;
4) Klassifikasiyalar yodlanadi.

Yuqorida men eng muhim fanlar uchun algoritm tuzib berdim. Siz ham texnikalar yordamida istagan fan yoki sohangizga ushbu texnikalarni integrasiya qilib chiqishingiz mumkin. Agar integrasiya qilishga qiynalsangiz azamovayubxon@gmail.com elektron pochta manziliga faningiz hamda faningizning darsliklarini jo`natib yuboring, biz tezlik bilan sizga tayyor dasturni jo`natib yuboramiz. Yoki biz bilan bog`laning, kontaktlarimiz kitob oxirida ko`rsatib o`tilgan.

# `Xulosa

Kitob yozgach, unga xulosa yozish juda qiyin ish. Sababi, ijodkor o`z ijodi tugashini hech ham xohlamaydi. Shu bois, xulosa yozishga hamisha qiynalaman.

Mana siz bilan, fan hamda tillar bo`ylab sayohat qildik. Xotiramizni rivojlantirdik, tez hamda to`g`ri o`qishni o`rgandik. Lekin bularning barchasidan maqsad nima? Asosiy maqsad – bu vaqtni tejab qolish. Agar qisqa muddatda istagan sohani o`rganish imkoniyati bo`lsa, insonlar uzoq yillar davomida, umrlarini ko`p qismini o`qib-o`rganishga sarflamay, aynan nimanidir yaratishga qarashlari mumkin.

Kitobning asosiy maqsadi vaqtingizni tejash, sizni eng yuqori samaradorlikka chiqarish va o`rganish masalasi siz uchun asosiy masala bo`lmasligini ta`minlash edi. Agar kimgadur zarracha foyda bera olsak, biz bundan xursand bo`lamiz.

Lekin, ko`pincha tayyor texnikalarga ega bo`lgach, harakatga kirishishimiz ancha qiyin kechadi, shu bois, texnikalarni teoretik o`rganishning o`zi kifoya emas, ularni darhol amaliyotda sinab ko`rish lozim, ana shundagina siz o`qib-o`rganish uncha qiyin ish emasligini tushunib yetasiz.

Sizga turli xil rekordlar o`rnatishni taklif etaman. Misol uchun, fan olimpiadalarida g`alaba qozonishni. Ushbu texnikalar yordamida bemaloi istagan olimpiadada qatnashib, eng yuqori o`rinlarni egallashingiz mumkin. Oliy ma`lumot olish bo`yicha rekord o`rnatish ham qiziq ish bo`ladi. Bir yil ichida butun boshli oliy ta`lim dasturini yakunlagach, sizda ancha katta zerikish paydo bo`ladi. Siz o`z miyangiz bilan boshqalar ichida ajralib turish imkoniyatiga ega bo`lasiz.

Miyamizning potensiali biz o`ylagandanda yuqoriroq. Li Yakkokaning bir gapi bor: "Muvaffaqiyat – bu 1% qobiliyat va 99% mehnat" Ushbu gapning isboti bo`lsa ushbu kitob. Siz kim bo`lishingizdan qat`iy nazar, istagan paytingiz daholik darajasiga chiqishingiz mumkin va bu siz ko`rib turganingizdek uncha qiyin ish emas. Shunday ekan, sizga ulkan zafarlar hamda muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Hurmat bilan, T. Silverio.

## "LIFE IN PROGRESS" kompaniyasi quyida sizlarga o`z xizmatlarini taklif qiladi

### *Genus test*

Genus test – bu nemis olimlari tomonidan ixtiro qilingan noyob test hisoblanadi. Ushbu test sizdagi barcha irsiy qobiliyatlarni aniqlab beradi. Qaysi fanlarni o`rganishga potensialingiz yuqori, qaysi fanlarni o`zlashtirish potensiali past, qaysi kasblar sizga to`g`ri keladi, qaysi sohani tanlash kerak va tanlagan sohangizda siz kim bo`la olasiz. Shu kabi o`zingiz

haqingizda qiziqarli 100ga yaqin ma`lumotlarni genus test sizga ko`rsatib namoyish qilib beradi.

### *100% English*

Ingliz tilini tez va samarali o`rganishni istaysizmi? Eng so`nggi texnologiyalar hamda butunjahonga mashhur "Meta-ta`lim" metodikasiga asoslangan yuqori sifatli kurslarimizga taklif qilamiz.

- 1 soat/320ta so`z yodlash imkoniyati;
- 5 kun ichida – Grammatika: «Mental cards» hamda «Sliding system» dasturlari orqali;
- 7 kun ichida – Speaking (15 daqiqa to`xtamay gapirish san`ati);
- 20 soat/Listening ko`nikmasi;
- 1 oy/Intermediate darajasi;
- 3 oy/IELTS 7,5 – 8 ball.

### *Genius club*

Ma`lumot bilan ishlashda qiyinchiliklar bormi? Farzandingiz a`lochi bo`lishini hamda tengdoshlariga nisbatan ancha aqlliroq bo`lishini istaysizmi? Istagan til yoki fanni qisqa muddatda tez hamda uzoq muddatga eslab qolishni xohlaysizmi? Sizni "Genius club" ya`ni "Daholar klubi"ga taklif qilib qolamiz.

- 1 daq/3200ta so`z o`qish ko`nikmasi – Tez o`qish san`ati;
- 8 soat/1000ta Xitoy ieroglifi, 1 soat/150-320ta Ingliz, ispan, italiyan, koreys, fransuz tilidagi so`zlar – Superxotira;
- Mnemonika mashqlari;
- Ma`lumot bilan ishlash ko`nikmalari;
- 1 oy/tarix, biologiya, kimyo va istagan fan;
- Mental cards – 1 kechada bir necha kitobni konspektlashtirish ko`nikmasi;

- 2 soat/ 1ta kitob o`qib tugatish ko`nikmasi.

Ushbu dastur Yevropadagi birinchi raqamli dasturlardan biri hisoblanadi. 2016 yilda 10 millionga yaqin yoshlar ushbu dasturdan muvaffaqiyatli o`tib, turli xil rekordlarni o`rnatishdi.

- 1 yil/1ta Oliy ta`limni yakunlashdi;
- 6 oy/5ta sinfni yakunlashdi;
- 1 oy/Universitetga tayyorgarlik ko`rishdi.

***6000 words in 3 weeks***

Siz soatiga nechta so`z yodlay olasiz? 20tami? Yoki 30tami? Agar xotirasi maksimal darajda rivojlangan shaxs bo`lsangiz uzog`I bilan 50taga yaqin so`z yodlay olishingiz mumkin.

Biz ishlab chiqqan metodika bo`yicha esa siz 1 soatda o`rtacha 150-320ta so`z yodlash imkoniyatiga ega bo`lasiz. Ushbu ko`nikma har bir insonda to`liq chiqa olishini texnika o`zida isbotladi.

Biz ishlab chiqqan yangi innovasion superlug`at yordamida siz 3 hafta ichida 6000ta so`z yodlab olish imkoniyatiga ega bo`lasiz.

***Lug`at o`z ichiga:***

- Xotira mashqlari;
- 20 daqiqada 80,000ta so`z yodlash texnikasi;
- So`z yodlash texnikasi;
- 6000ta so`zlik assosiativ lug`at;
- Akademik so`zlarni oladi.

***Statistika ma`lumotlariga ko`ra:***

- 150ta so`z – Odatiy suhbatlar uchun yetarli;

- 800ta so`z – Turistik sayohatlar uchun yetarli;
- 2000 – 3000ta so`z – Intermediate darajasi, ya`ni talaba darajasi, ushbu darajada siz tilde erkin suhbatlasha olasiz;
- 5000ta so`z – Advanced darajasi – o`qituvchi darajasi – IELTSdan 8 – 8,5 ball;
- 10,000ta so`z – Proficiency darajasi – professorlar darjasi – ilmiy-texnik kitoblarni o`qiy olish imkoniyati hamda ilmiy ish qilish imkoniyati.

Hamda olimlar hisob-kitoblariga ko`ra odamlar yiliga o`rtacha 900 – 1200tagacha so`z yodlashar ekan. Sizga esa ajoyib imkoniyat taqdim etilmoqda, atiga 3 hafta ichida 6000ta so`z yodlash imkoniyati.

### *English in 10 days*

Ingliz tilini tez va samarali o`rganishni istaysizmi? Suhbatlashish ko`nikmasini to`liq egallashni istaysizmi? Sizni 10 kunlik Ingliz tili kursimizga taklif etamiz.

Ushbu kurs o`z ichiga 70 akademik soatni tashkil qiladi. 10 kun davomida 7 soatdan trening olib boriladi. Hamda atiga 10 kun ichida siz erkin suhbatlasha olasiz.

Bu kurs kimlar uchun?

- Chet elda sayohat qilishni istaganlar uchun;
- Chet elga yashash uchun ketayotganlar uchun;
- Ingliz tilida qisqa muddatda erkin suhbatlashishni o`rganishni istaganlar uchun;
- Til ishqibozlari va tilga qiziquvchi har bir inson uchun.

### *Life management*

Life-management – bu muvaffaqiyat sari sizga 100% natija keltiruvchi 50.000 yildan buyon qo`llanilib kelinayotgan maxsus qoidalar

hamda algoritmlar. Ushbu treningizmida siz qanday qilib istagan orzuingizga istagan muddatda erishish yo`llarini va aniq strategiyasini o`rganib olishingiz mumkin.

Bu kimlar uchun?

- Hayotda o`zini to`liq rivojlantirishni istovchilar uchun;
- Har qanday orzusiga erishish bo`yicha 100% natija beruvchi strategiyaga ega bo`lishni xohlovchilar uchun;
- Hayotda nimagadur erishaman, deb yashovchi har bir inson uchun.

Manzil: Bodomzor Metro, Hurmatli ko`chasi 24
Telefon raqamlari: +998 91 699-44-93 +998 93 370-17-06
+998 998786359

Dastur haqidagi fikr-mulohazalaringizni hamda natijalaringizni azamovayubxon@gmail.com elektron manziliga yuborishingiz mumkin.

Telegram: @RoyalStatus; @ ayubxonazamov.
Facebook: https://www.facebook.com/englishintwomonths/#; www.facebook.com/Клуб-гениев-Genius-club-342165112899640/.

Sayt: kouching.uz